

ISSN 2181-1601

SCIENTIFIC PROGRESS

Scientific Journal

VOLUME # 1 ISSUE # 3

2021/01

ACCEPTANCE AREAS OF THE JOURNAL

- mathematics, physics, informatics;
- chemistry, ecology, geography;
- advances in biology and medicine;
- history, law, aesthetics;
- philology and language teaching;
- physical education and sports;
- music, art and culture;
- philosophy, logic and sociology;
- architecture and economics;
- pedagogy, psychology, defectology

www.scientificprogress.uz



SCIENTIFIC PROGRESS

Scientific Journal

VOLUME #1, ISSUE #3, JANUARY 2021

ISSN: 2181-1601



UZBEKISTAN

EDITOR-IN-CHIEF
SHAKHLO BOTIROVA

Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

EDITORIAL BOARD

GULJIHAN NURISHEVA

Doctor of Philosophy, Professor
National University of Kazakhstan named after Al Farobi

RAKHMATULLA BEKMIRZAEV

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
Jizzakh State Pedagogical Institute named after Abdulla Qodiri

SHOIRA DONIYAROVA

Doctor of Philology, Associate Professor
Jizzakh State Pedagogical Institute named after Abdulla Qodiri

MARAT SULTONOV

Doctor of Chemical Sciences, Associate Professor
Jizzakh State Pedagogical Institute named after Abdulla Qodiri

SAYFULLA BOBOEV

Doctor of Biological Sciences, Associate Professor
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ATANAZAR SEYTNAZAROV

Doctor of Technical Sciences, Associate Professor
Academy of Sciences of Uzbekistan

ZUKHRA YAKHSHIEVA

Doctor of Chemical Sciences, Associate Professor
Jizzakh State Pedagogical Institute named after Abdulla Qodiri

MUKADDAS ABDURAKHMANOVA

Candidate of philological sciences, Associate Professor
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

BERDIYOR SAPAROV

Doctor of Philosophy in Philosophy, Associate Professor
Tashkent State Agrarian University

OTABEK NASIROV

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

OYBEK HAYITOV

Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor
Regional Center for Scientific and Methodological Support,
Retraining and Advanced Training of Physical Culture and Sports

MIRZOALI KHUDOYBERGANOV

Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Associate
Professor

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

SURAYYO ESHONKULOVA

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
Jizzakh State Pedagogical Institute named after Abdulla Qodiri

SHOIRA ABDUJALILOVA

Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

BAKHODIR MUMINOV

Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Tashkent State Agrarian University

IRODA AZIMOVA

Candidate of Philological Sciences, Associate professor
University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

ULUGBEK MINGBOEV

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Jizzakh regional Center for Retraining and Advanced Training of
Public Educators

EDITORIAL BOARD

HABIBULLA AHADKULOV

Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Associate
Professor

Northern University of Malaysia

NIGORA ASHURMETOVA

Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Tashkent State Agrarian University

NODIRA SOBIROVA

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

NODIRA SOATOVA

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
Jizzakh State Pedagogical Institute named after Abdulla Qodiri

MAVLUDA RAKHIMSHIKOVA

Candidate of Philosophical Sciences, Acting Associate Professor
Mukhtar Avezov University of South Kazakhstan

JUMMAGUL ABDURAKHMONOVA

Candidate of Historical Sciences, Acting Associate Professor
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

SOFIYA DJUMAeva

Candidate of Philological Sciences, Acting Associate Professor
Tashkent Regional Center for Retraining and Advanced Training of
Public Educators

NAVBAHOR UMAROVA

Doctor of Philosophy in Psychology, Acting Associate Professor
Uzbek State University of Physical Culture and Sports

MAVJUDA TILAKOVA

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Acting Associate
Professor

Jizzakh Regional Center for Retraining and Advanced Training of
Public Educators

FURKAT RAJABOV

Doctor of Philosophy in Geography, Acting Associate Professor
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

KULASH TULENTAEVA

Candidate of Historical Sciences, Acting Associate Professor
National University of Kazakhstan named after Al Farobi

DILFUZA MAHMUDOVA

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Acting Associate
Professor

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ILHOMJON ASLANOV

Doctor of Philosophy in Geography, Acting Associate Professor
Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization
Engineers

NILUFAR JURAEVA

Candidate of Technical Sciences, Acting Associate Professor
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

MARINA KOSBERGENOVA

Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Acting
Associate Professor

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

MASHKHURAKHON DARMONOVA

Doctor of Philosophy in History, Senior Researcher
Academy of Sciences of Uzbekistan

ТАРИХ ДАРСЛАРИНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА МИНИАТЮРАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЙЎЛЛАРИ

Ҳайдаров Усмон Амиркулович

ТДИУ қошидаги академик лицей ўқитувчиси

uhaydarov86@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Миниатюра умумий ўрта таълим мактабларида фойдаланишни амалга оширилиши тарихий ходисаларнинг бир ёқлама талқинда, хилма-хил фикрлаш, тафаккур юритишга, шунингдек тарих фанида шаклланган бир томонлама қарашлардан ҳалос бўлишда ижобий таъсир қилувчи самарали воситага айланади.

Таянч сўзлар: тарих, дарслик, ўқувчи, ўқитувчи, кўникма, малака, билим, тажриба, метод, услуб, тарбия.

WAYS TO USE MINIATURES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF HISTORY LESSONS

Khaydarov Usmon Amirkulovich

Teacher of academic lyceum at TSUE

uhaydarov86@gmail.com

ABSTRACT

The use of miniatures in general secondary schools will become an effective tool for a one-sided interpretation of historical events, for a different way of thinking, as well as for getting rid of one-sided views formed in the science of history.

Keywords: textbook, student, teacher, skill, qualification, knowledge, experience, method, style, upbringing

КИРИШ

Мамлакатимиз мустақилликка эришганлиги туфайли аждодларимизнинг қадимий тарихий меросини, маънавий қадриятларини тадқиқ ва тарғиб қилишга кенг имконият яратилди. Бу имконият, айниқса таълим мазмунининг миллий асосларини мустаҳкамлаш, дарсларни мазмун жиҳатидан бойитишга қулай методологик асос бўлди. Шу боис Республикамиз умумий ўрта таълим мактабларида Ўзбекистон тарихини ўқитишда тарихий манбалар, хусусан тасвирий санъат асарларида акс эттирилган тарихий воқеа ва ходисалардаги

тарихий фактларнинг талқини сифатида фойдаланиш ўқувчиларда тарихий билимларни самарали ўзлаштиришга ўзига хос педагогик қулайлик яратиши маълум бўлди.

Зеро, Шарқда тасвирий санъат жамият тараққиётига мос равишда даврнинг тасвирий талқини сифатида ривожланган. Ҳар бир ўқувчи онгида тарихий даврнинг тасвирий асарларидан ўрганиши шу даврга оид тарихий билимларни бойитиш имконини беради. Шу боис ҳам тарихий тасвирлар, деворий суратлар, миниатюра асарлари, шунингдек замонавий рассомларнинг тарихий мавзудаги асарларини ўрганиш, ўқувчиларнинг тарихий билимларини ошириш жараёнида муҳим омил сифатида тадқиқ этилиши лозим бўлган долзарб муаммолардан бири ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Шунинг учун ҳам Республикамизнинг тарихчи педагог ва методистлари томонидан ҳозиргача тарих ўқитиш методикасининг турли масалалари ўрганилган бўлсада, унинг фанлараро алоқадорлик тамойиллари, хусусан тарих таълимида тасвирий санъат асарларидан фойдаланишга оид жиҳатлари махсус илмий муаммо тарзида тадқиқ этилмаган. Республикамиз олимларидан санъат тарихи соҳасида С. Мурзаев, Р. Фатхуллаев, Х.Каримов томонидан қисман ўрганганлар. Санъатнинг тарихий аспектларини Г.Пугаченкова, Л.Ремпель, А.Ҳакимов, Д.Фахрединова, Л.Аведова, С.Махкамова, К.Оқиловаларнинг тадқиқотларида атрофлича ўрганилган. Хусусан, Ўзбекистон тасвирий санъатини пайдо бўлиш тарихи Г.Пугаченкова, Л.Ремпелларнинг тадқиқотларида етарли даражада ўз аксини топган. А.Ҳакимовнинг “IV-XIII аср Мовароуннаҳр амалий санъати мазмуни ва мотивларига оид” мавзусидаги, тарихчи-педагоглар Н.Ремеев, С.Махкамов, Т.Турғуновларнинг тадқиқотларида, шунингдек бадиий педагогика йўналишини ўрганган Н.Абдуллаев, Н.Ойдинов, С.Булатов, А.Сулаймоновларнинг тадқиқотларида бу борада муайян ишлар амалга оширилган. Бироқ, шу пайтгача умумий ўрта таълим мактабларида тарих ўқув фанини тасвирий санъат ўқув предмети билан алоқадорликда ўқитиш масаласи махсус илмий мавзу сифатида тадқиқ этилмаган. Бу муаммони ҳал этилиши тарих таълими самарадорлигини оширишни муайян даражада кафолатлайди.

Мустақилликнинг дастлабки йилларида республикамизнинг бир гуруҳ етакчи олимлари А.Асқаров, А.Мухаммаджонов, Р.Мукминова, Ҳ.Бобобеков томонидан умумий ўрта таълим тизимида тарих фанини ўқитиш ва ўрганишни такомиллаштириш мақсадида бир қатор дарслик ва қўлланмалар чоп этилди.

Бинобарин тарих фанида мустақиллик йилларининг дастлабки босқичидаги методологик парокандаликка, журъатсизликка, хато ва чалғишларга барҳам

бериш ҳаётини зарурат эди. Шундан келиб чиқиб, Ўзбекистон ҳудудида илк давлатчилик асосларини юзага келтирган тарихий шарт-шароитлар, буюк алломаларимиз бу билан боғлиқ тасвирий санъат асарларини ўрганишдан иборатдир.

МУҲОКАМА

Тасвирий санъат манбалари умумий ўрта таълим мактабларида фойдаланишни амалга оширилиши тарихий ходисаларнинг бир ёқлама талқинда кутилиб, хилма-хил фикрлаш, тафаккур юритишга, шунингдек тарих фанида шаклланган бир томонлама қарашлардан ҳалос бўлишда ижобий таъсир қилувчи самарали воситага айланади.

Ўтмишнинг ибратомуз томонларини, машҳур тарихий шахслар ҳаётини бадиий тадқиқ этиш бевосита тарихий тараққиётнинг талаб ва эҳтиёжлари билан амалга ошириладиган ғоявий эстетик жараён бўлиб, бу ҳол истиклолга эришган мамлакатимиз ва халқимиз учун алоҳида аҳамият касб этади. Юртбошимиз И.А.Каримовнинг ўз нутқларида Туркистон тарихида қомусий олимлар, машҳур саркардадлар, давлат арбоблари, босқинчиларга қарши курашган халқ қахрамонлари кўп бўлганлигини таъкидлаб, уларнинг фаолиятини ўрганишга ҳамда элимизга ибрат қилиб кўрсатишга даъват этиб келиши ҳам бежиз эмас. Зеро, аждодлар тўплаган тажрибани бизга етказиш бугунни теранроқ англашимизга, келажак сари собит қадам ташлашимизга тарихни билиш асосида эришилади. Шунинг учун бўлса керак барча халқлар адабиётида ўтмиш ва машҳур тарихий шахслар ҳақида кўплаб бадиий асарлар битилган.

Яратилган ўқув адабиётлари ўрта таълим тизимида ўқувчилар учун ватанимиз тарихини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга бўлиб Ўзбекистон тарихи фанининг ўрта таълимдаги мазмуни даврлари, тарихий воқеаларни талқини бўйича янгича ёндошувнинг мавжуд бўлганлиги билан характерланади. Энг муҳими, тарихий мавзудаги тасвирий санъат асарлари таълим тизимида фаолият кўрсатаётган тарих таълими мутахассисларига зарур манба сифатида муҳим рол ўйнайди.

НАТИЖА

Тарих фанини ҳолисона, ўрганишга киришилаётган бир пайтда И.Турсинов, Ш.Каримиов, М.Содиқов, Қ.Усмоновлар томонидан “Ўзбекистон тарихини ўқитиш ва ўрганишнинг ягона концепсияси» ишлаб чиқилди. Ушбу концепсияда “Ўзбекистон тарихи”ни ўқитиш ва ўрганишнинг зарурияти ва аҳамияти, ўқитиш вазифалари, методологик асослари ва тамойиллари ҳамда

мазкур фаннинг асосий мазмуни ва унинг ёритилиши масалалрига эътибор қаратилди.

ХУЛОСА

Тарих таълимини тарихий мавзудаги тасвирий санъат асарлари воситасида ташкил этиш ўқувчиларда тарихий тафаккурни ўстиришнинг муҳим омилларидан биридир. Зеро, тарихий мавзудаги тасвирий санъат асарларда мазмун ва шаклнинг мавзу, ва ғоянинг бирлигини ўзида ифодоловчи асосий воситадир. Масалан Шарафиддин Али Яздийнинг “Зафарнома” асарида Амир Темурнинг ҳарбий юришлари ва унинг қурдирган иншоотлари, Темурнинг жасорати ва мардлиги, ўша даврдаги халқнинг турмуш-тарзи ва ҳоказолар хусусида ҳикоя қилинади. Тарихий фактлар ҳеч вақт ёзувчининг ўзига тобе қилиб қўймайди. Балки унга шу фактдан туртки олишга, унинг моҳиятини очишга давр руҳини бадиий инкишоф этишга олиб келади. Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки тарихий мавзудаги тасвирий санъат асарлари вақт ва муҳитнинг бадиий талқини тарихнинг турли қирраларини бадиий бўёқлар ёрдамида ўқувчилар кўз ўнгида янада ёрқинроқ чизилишига, тарихий воқеалар мазмунини тўлалигича эса сақлаб қолишга ва ўқувчиларга ўтмишнинг ибратомуз воқеалар асосида тарбия беришга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Муқимова Р ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. 7-синф учун қўлланма.-Т.: Ўқитувчи, 1994. -251б.;
2. Бобобеков Ҳ ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. 8-синф учун дарслик.-Т.: Ўқитувчи, 1994. 254 б.
3. С.А. Хайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихини ўқитишда “Зафарнома”дан фойдаланишни имкониятлари. *Science and Education*. 1(7). 192-198
4. С.А. Хайдаров. (2020). Педагог-ўқитувчиларда ахборот-коммуникация кўникмасини шакллантириш асослари. "*Science and Education*." *Scientific journal*. 1(7). 610-617
5. Сулаймон Амиркулович Хайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. *Science and Education*. 1(8). 666-671
6. Хайдаров С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. *Academic Research in Educational Sciences*. 1 (3). 1313-1321.
7. Амиркулович, С. Ҳ. (2020). Тарих фанини ўқитишга оид экологик муаммолар масаласи. *Scientific Progress* 1(1). 12-17.

8. Сулаймон Хайдаров. (2020). [Ўзбекистон тарихи фани дарслари самарадорлигини оширишда тасвирий санъат воситаларининг роли](#). Science and Education, 1(6), 174-179.
9. С.А. Хайдаров. (2020). [Тарих дарсларида тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш](#). Science and Education. 1(9). 458-461.

REFERENCES

1. Муқимова Р ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. 7-синф учун қўлланма.-Т.: Ўқитувчи, 1994. -251б.;
2. Бобобеков Ҳ ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. 8-синф учун дарслик.-Т.: Ўқитувчи, 1994. 254 б.
3. С.А. Хайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихини ўқитишда “Зафарнома”дан фойдаланишни имкониятлари. Science and Education. 1(7). 192-198
4. С.А. Хайдаров. (2020). Педагог-ўқитувчиларда ахборот-коммуникация кўникмасини шакллантириш асослари. "Science and Education." Scientific journal. 1(7). 610-617
5. Сулаймон Амиркулович Хайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. Science and Education. 1(8). 666-671
6. Хайдаров С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. Academic Research in Educational Sciences. 1 (3). 1313-1321.
7. Амиркулович, С. Ҳ. (2020). Тарих фанини ўқитишга оид экологик муаммолар масаласи. *Scientific Progress* 1(1). 12-17.
8. Сулаймон Хайдаров. (2020). [Ўзбекистон тарихи фани дарслари самарадорлигини оширишда тасвирий санъат воситаларининг роли](#). Science and Education, 1(6), 174-179.
9. С.А. Хайдаров. (2020). [Тарих дарсларида тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш](#). Science and Education. 1(9). 458-461.

ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ТАСВИРИЙ САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

Ҳайдаров Сулаймон Амиркулович

Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти Гуманитар фанлар факультети, Тарих кафедраси катта ўқитувчиси, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

haydarov_sulaymon82@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Таълим муассасаларидаги энг асосий фанларидан бири Ўзбекистон тарихи дарсларидир. Ўқувчининг миллий тарихга муносабати - бу унинг ўз халқи, миллий давлатчилиги тарихини билиш эҳтиёжини ифодаладиган кўникма ва малакалари мажмуидир.

Таянч сўзлар: дарслик, ўқувчи, ўқитувчи, кўникма, малака, билим, тажриба, метод, услуб, тарбия

PECULIARITIES OF THE USE OF WORKS OF FINE ARTS IN TEACHING THE HISTORY OF UZBEKISTAN

Haydarov Sulaymon Amirkulovich

Chirchik State Pedagogical Institute ўа Tashkent region, Faculty of Humanities, Senior Lecturer, Department of History, Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD)

haydarov_sulaymon82@mail.ru

ABSTRACT

One of the main subjects in educational institutions is the history of Uzbekistan. The student's attitude to national history is a set of skills and abilities that express his need to know the history of his people, national statehood.

Keywords: textbook, student, teacher, skill, qualification, knowledge, experience, method, style, upbringing

КИРИШ

Келажак авлодларни етук ва баркамол қилиб вояга етказиш, миллий истиқлол руҳида тарбиялаш мақсадида Республикамизда таълим тизими ва мазмуни замон талаблари даражасида такомиллаштириш учун ислохотлар олиб борилиб, Давлат таълим талаблари такомиллаштирилмоқда, таълимда инновацион

технологияларни қўллаш, ўқитиш жараёнини ноанъанавий услубда олиб бориш асосида сифат ва самарадорликка эришилмоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримов таълим соҳасидаги ислоҳатларни амалга оширишнинг аҳамияти хусусида тўхталиб, қуйидагиларни таъкидлаган эди: “Энг аввало, бизнинг таълим тизимига бўлган муносабатимизни ҳам тубдан ўзгартириш керак. Таълим ислоҳоти бизни демократик ўзгаришлар, янги жамият барпо йўлидан дадил етакловчи, барчамизни ҳараклантирувчи ички куч бўлмоғи зарур. Ҳар биримизга ... аён бўлсинки, таълим тарбия тизимини ўзгартирмасдан туриб, одамлар онгини, демакки, уларнинг турмуш тарзини тубдан ўзгартириш мумкин эмас”.

Юқоридаги юксак мақсадларни амалга оширишда ҳар бир фанни ўқитиш жараёнида юқори самарадорликка эриришиш талаб этилди. Шунинг учун ҳам ўқитувчилар дарс жараёнида ўқитишнинг турли методларини ўз ўрнида қўллаш олса, мавзунинг моҳиятини тушинтиришга, ҳар бир ўқувчининг билим, кўникма ва малакаларини баҳолашга етарлича вақт ажратса, кундалик дарсга тааллуқли материаллар билан бир қаторда илгари ўтилган мавзуларни такрорлаб турсагина ўз вазифасини муваффақиятли ҳал эта олади. Ўқувчиларга таълим-тарбия беришдаги муаммоларни ва камчиликларни олдини олишнинг дастлабки шarti ўқитувчи билан ўқувчи ўртасидаги мустаҳкам алоқа ўрнатилишидир. Ўқувчига таълим объекти эмас, балки “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”нинг асосий ғояси бўлмиш таълим субъекти – шахс деб қараш талаб этилади.

Агар ўқитувчи ана шу методологик талабни эътиборга олмас экан, ўзи ва ўқувчилар орасида кўз илғамас “психологик тўсиқ” пайдо бўладики, бу ҳолат уларнинг бир-бирларини тушунишларига тўсиқлик қилади. Ўқитувчи ўз фаолиятидаги бундай камчиликларни олдини олиш учун тинмай ўз устида ишлаши – ўз фани ютуқларидан, фанни ўқитиш методологиясидан, ҳамкасбларини илғор иш тажрибаларидан доимо хабардор бўлиши лозим. Бир сўз билан айтганда, ўқитувчилик фаолиятида авторитар услубга эмас, балки ҳамкорлик педагогикасига таяниш талаб этилади. Шунинг учун ҳам кейинги вақтларда “таълимнинг интерфаол методлари” таълим жараёнига кенг кириб бормоқда.

Таълим муассасаларидаги энг асосий фанларидан бири Ўзбекистон тарихи дарсларидир. Чунки, ўқувчининг миллий тарихга муносабати - бу унинг ўз халқи, миллий давлатчилиги тарихини билиш эҳтиёжини ифодаладиган кўникма ва малакалари мажмуидир. Ушбу таъриф Ўзбекистон мактабларидаги тарих таълимини бевосита мақсади - «ўқувчилар тарихий тафаккурини шакллантириш

орқали тарихий жараёнга ягона ҳодиса сифатида қараб (ўтмиш - бугун - келажак) уларда тарихий билимлар воситасида ижодий ёндашув малакаларини ҳосил қилиш” ва ўқувчилар қалби ҳамда онгига миллий ғояни сингдириш билан уйғун кечади. Тарих таълими жараёнида тарихий тушунчани тарихий воқеага боғлаш шу орқали ўқувчиларга унинг назарий моҳиятини очиш имкониятини яратиб бериш лозим. Тушунча, тасаввур орқали ўқувчиларнинг воқеа ходисларга нисбатан ички муносабатини уйғотиб, уларни ўрганиш имконини вужудга келтиради. Мазкур вазиятларни тасаввур қилиш, объект ва тушунчаларни умумий муносабат ва алоқаларини англаш мумкин бўлади. Чунки ўқувчилар тарихий материални ўзлаштириш учун амалий фикрий ҳаракатни бажарадилар.

Ўқувчи тарихий воқеалар, атроф муҳитдаги объект (предмет, жараён ва ҳодиса) ларнинг моҳиятини билиб олиш асносида уларни бир бири билан ўзаро таққослайди, натижада улардаги ўхшашлик ва фарқни аниқлайди. Тарихий тафаккур жараёнида таҳлил ва синтез йўли билан тарихий фактларнинг туб моҳияти очилади, уларнинг муҳим аломатлари ёки белгилар ойдинлашади. Шунинг учун ҳам тарих дарсларининг самарали воситаларидан бири тарихий мавзудаги тасвирий санъат асарларидир. Тасвирий санъат воситаларидан фойдаланиш ўқувчиларнинг тарихий тасаввурларига аниқлик киритиш ва бу тасаввурларни ривожлантиришга ёрдам беради. Тасвирий санъат асарлари тарихий далил ва ҳодисаларни ташқи кўринишинигина эмас, балки уларнинг ички моҳиятини ҳам очиб беради.

Ўқитувчи ўз маърузасида тасвирий санъат асарларидан фойдаланса ўқувчиларда шу давр воқеалари хусусида тўлиқ тасаввур ҳосил бўлади. Зеро, тарихий мавзудаги тасвирий санъат асарларидан фойдаланмай туриб ўрганилаётган даврнинг манзарасини ҳам аниқ ва чуқур тасаввур қилиб бўлмайди.

Тарихий мавзудаги тасвирий санъат асарлари ўқувчиларда тарихий тушунчаларни шакллантиришга, уларнинг назарий хулосалар ва умумлашган яқунларини ижтимоий ривожланишининг объектив қонуниятларини ўзаро алоқаларини яхшироқ тушуниб олишга ёрдам беради, шунингдек ўқувчиларнинг эстетик жиҳатдан тарбиялашнинг муҳим воситаси бўлиб ҳам хизмат қилади.

МУҲОКАМА

Тарихий мавзудаги тасвирий санъат асарлари кўриш анализатори иштирокида мушоҳада этиш ва улар ҳақида аниқ тасаввур ҳосил қилиш билан чегараланмайди, балки мураккаб тарихий ҳодисаларни, тушунчаларни тушуниб олишни ҳам енгиллаштиради, тарихни тўғри ва реал тушунишга ёрдам беради.

Ўқитувчининг тарихий мавзудаги тасвирий санъат асарларидан фойдаланишнинг маъсулиятли вазифаси янги ўқув материални баён қилиш йўллари излашидир. Дарсда ўқитувчи кўзлаган мақсадига эришиши учун бу жараён ўз ичига қуйидагиларни олиши керак:

- методик тизим компонентлари, энг аввало, дарсда баён қилинадиган тарихий тушунчалар (ғоялар, қонуниятлар, воқеалар, фактлар ва ҳақозолар) таҳлил қилиниши, уларни асосий ва иккинчи даражали қисмларга ажратиш керак. Шунинг учун ҳам бу жараённи дидактикада дарслик матнининг тушунчалар жиҳатидан таҳлили деб юритилади. Бунда ўқитувчи шу дарсда қандай янги тушунчалар ўрганилишини аниқлайди, уларга мос терминлар устида ишлаш йўллари белгилайди. Янги тушунчалар аввалги дарсларда ўрганилган қайси тушунчалар билан алоқада, боғланишда эканлигини ўрнатади, ўқувчиларга бериладиган йўналтирувчи саволлар тизими тузиб чиқилади;

- тарих дарсида ўрганилиши зарур бўлган далиллар, тушунчалар маълум мантиқий кетма-кетликда ва изчилликда баён қилинади. Шунинг учун ўқитувчи баён қилиш кетма-кетлигини белгилаб олади. Бу матнни мантиқий - тадрижий жиҳатдан таҳлил қилиш услуби. Шунингдек ўқитувчи дарсда ўқувчиларнинг тайёргарлик даражаларини, имкониятларини, ёш хусусиятларини эътиборга олиш керак. Шу мақсадда у ўқувчиларни дарсга жалб қилиш, уларни янги материал мазмунига қизиқиш йўллари излаш учун дарслик матнини психологик жиҳатдан таҳлил қилади. Тарих дарслиги матнидаги ўқув материални ўқувчи тарихий мавзудаги тасвирий санъат асарларининг ўрганишга, унда дунёқарашнинг шаклланишига тарбиявий таъсир этиши лозим. Ўқитувчи янги материални тарбиявий имкониятларини ўрганиш мақсадида дидактиканинг асосий тамойилига амал қилган ҳолда матн мазмуни тарбиявий жиҳатдан таҳлил қилади.

НАТИЖА

Ўзбекистон тарихи дарсларида тарихий мавзудаги тасвирий санъат асарларидан фойдаланишда қуйидагиларга эътибор бериш талаб этилади:

1. Дастур ва ўқув қўлланмаси бўйича ўрганиш кўзда тутилган тарихий воқеаларни жонли тарзда баён этиш.
2. Тарихий арбоблар, халқ оммаси вакиллариининг образларини ва халқ оммасини ролини кўрсатиш.
3. Тарихий воқеалар ривожланишида реал манзарани гавдалантиришга ёрдам берадиган парчалар танлаб олиш.

Шуларга амал қилган ҳолда маълум даврга оид бўлган типик тарихий ҳодисаларни ойдинлаштириш учун тарихий мавзудаги тасвирий санъат

асарларидан самарали фойдаланиш мумкин. Баъзи бир тарихий шахслар ҳақидаги маълумотларни дарс давомида ана шу мақсадлар учунгина киритиш керак. Масалан ўқувчиларга Бобурнинг ўз юртидан кетишини тасаввур қилиб бериш керак бўлган ўринларда бу ишни умумий таассуротлар йўли ёки турли пойма – пой фактларда фойдаланиш йўли билан эмас, балки бутун манбани очиб берувчи миниатюра асари ва бошқа тасвирий санъат воситалари бунга ёрдам беради.

Масалан, “Бобурнома” асаридаги Бобурнинг Самарқандни олиши воқеаси, Бобурнинг Андижон тахтида мулозимлари билан олиб бораётган машварати, Аҳмад Танбал билан Андижон тахти учун кураши, Синд дарёси бўйида Иброҳим Лоди билан кураши, Афғонистонда Бобурнинг хукмронлиги тасвирланган миниатюралар шунингдек “Зафарнома” асарида ишланган бошқа миниатюраларни келтириб ўтиш мумкин.

Тарих дарси давомида маълум бир мавзуга тегишли бўлган муайян бир тарихий мавзудаги санъат асарини сўзлар билангина эмас балки ўқувчиларга кўрсатиш билан ҳам тушунтириш керак. Тарихий расмлар ўз хусусияти жиҳатидан турлича бўлиб, улар устида ишлаш методикаси ҳам шунга боғлиқдир.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, тарихий мавзудаги тасвирий санъат асарлари ўқув материалига аниқлик киритади, уни конкретлаштиради, ўқувчилар кўз ўнгида ўтмиш ва ҳозирги ҳаётини воқеаларнинг тўлиқ ва ёрқин манзарасини гавдалантиришга, уларнинг тарихий тасаввурлари тизимининг мукамал бўлишига ёрдам беради, ўқитувчи баёнинг ишончли ва эмоционал бўлишини таъминлайди. Бу омиллар ўқувчиларнинг тарихий билимларини тасвирий воситалар орқали жонли бўлишини таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. С.А. Хайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихини ўқитишда “Зафарнома”дан фойдаланишни имкониятлари. *Science and Education*. 1(7). 192-198
2. С.А. Хайдаров. (2020). Педагог-ўқитувчиларда ахборот-коммуникация кўникмасини шакллантириш асослари. *"Science and Education."* Scientific journal. 1(7). 610-617
3. Сулаймон Амиркулович Хайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. *Science and Education*. 1(8). 666-671

4. Ҳайдаров С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. *Academic Research in Educational Sciences*. 1 (3). 1313-1321.
5. Ҳайдаров Сулаймон Амиркулович. (2020). Тарих фанини ўқитишга оид экологик муаммолар масаласи. *Scientific Progress*.1(1). 12-17.
6. Сулаймон Ҳайдаров. (2020). [Ўзбекистон тарихи фани дарслари самарадорлигини оширишда тасвирий санъат воситаларининг роли](#). *Science and Education*, 1(6), 174-179.
7. С.А. Ҳайдаров. (2020). [Тарих дарсларида тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш](#). *Science and Education*. 1(9). 458-461.

REFERENCES

1. С.А. Ҳайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихини ўқитишда “Зафарнома”дан фойдаланишни имкониятлари. *Science and Education*. 1(7). 192-198
2. С.А. Ҳайдаров. (2020). Педагог-ўқитувчиларда ахборот-коммуникация кўникмасини шакллантириш асослари. "Science and Education." *Scientific journal*. 1(7). 610-617
3. Сулаймон Амиркулович Ҳайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. *Science and Education*. 1(8). 666-671
4. Ҳайдаров С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. *Academic Research in Educational Sciences*. 1 (3). 1313-1321.
5. Ҳайдаров Сулаймон Амиркулович. (2020). Тарих фанини ўқитишга оид экологик муаммолар масаласи. *Scientific Progress*.1(1). 12-17.
6. Сулаймон Ҳайдаров. (2020). [Ўзбекистон тарихи фани дарслари самарадорлигини оширишда тасвирий санъат воситаларининг роли](#). *Science and Education*, 1(6), 174-179.
7. С.А. Ҳайдаров. (2020). [Тарих дарсларида тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш](#). *Science and Education*. 1(9). 458-461.

MUSIQA TARBIYASINING O'QUVCHI YOSHLARNI KOMIL INSON QILIB TARBIYALASHDAGI O'RNI

Ulug'bek Jalolov

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Musiqa
ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

u.jalolov@cspi.uz

ANNOTATSIYA

Maqolada musiqaning tarbiya bilan bog'liqligi va musiqashg'ulotlarining ta'lim tarbiyadagi ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: musiqash, ta'lim, tarbiya, madaniyat, estetik did.

THE ROLE OF MUSIC EDUCATION IN THE EDUCATION OF STUDENTS AS PERFECT PERSONS

Ulugbek Jalolov

Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region, Faculty of Pedagogy, 3rd year
student of Music Education

u.jalolov@cspi.uz

ABSTRACT

The article discusses the connection between music and education and the importance of music lessons in education.

Keywords: music, education, upbringing, culture, aesthetic taste.

KIRISH

Musiqa ellarni-ellarga, dillarni-dillarga bog'lovchi kishi estetik didini tarbiyalovchi hamda madaniy saviyasini oshiruvchi mo'jizaviy vositadir. Musiqa bu tarbiyaning eng faol turi hisoblanadi. Bola tug'ilgandan so'ng ilk bor ona allasini tinglab orom oladi. Ona allasiga vatanga muhabbat ona yurtiga sadoqat kabi buyuk insoniy his-tuyg'ular mujassamdir. Musiqa ta'limi va tarbiyasi o'quvchi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Musiqa ta'limi asosan musiqash va san'at maktablarida darslardan tashqari tashkil etilgan. Musiqa to'garaklarida o'rgatiladi. Komil inson tarbiyasida ana shunday musiqash va san'at maktablari va to'garaklarning o'rnini va ahamiyati katta. O'quvchilarni san'at maktablariga jalb qilish ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish samarali natijalar beradi. Tarbiya tizimi ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liq. Tarbiyasi talab darajasida bo'lgan har qanday o'quvchi ta'limni

juda yaxshi o'zlashtiradi. Shuning uchun komil inson tarbiyasida bu muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yosh avlodni yuksak madaniyatli estetik didi yuqori darajada rivojlangan komil insonlar qilib tarbiyalashda musiqiy ta'limning ahamiyati beqiyosdir. Xususan o'zbek musiqa san'ati bu borada katta imkoniyatlarga egadir. Ma'lumki o'quvchilarni musiqiy estetik ruhda tarbiyalash jarayoni birinchidan musiqa pedagogikasining asosiy umumiy tamoyillariga rioya etilishiga ikkinchidan didni tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan maxsus shart-sharoitlarni ta'minlashga asoslanishi lozim. Musiqiy estetik didni shakllantirish jarayoni musiqani idrok etish qobiliyatini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir. Bunda eng avvalo musiqiy idrokni ta'minlovchi tarkibiy qismlarini tamoyillarini tilga olish zarur bo'ladi. Ikkinchi tamoyil san'at pedagogikasi talablariga rioya qilishdan iborat bo'lib u idrok etishdagi yaxlitlikni obrazlilikni xissiy va anglangan taassurotlar birligini va ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlashdan iborat. Uchinchi tamoyil bola shaxsini rivojlantirishning tabiiy va madaniy jihatlarini birga qo'shib olib boorish zarurligidir. Bu tamoyil boladagi tabiiy iste'dod, qobiliyatlar, xususiyatlardan musiqiy tarbiya jarayonida samarali foydalanishni ularni tashqi pedagogik ta'sirlar yordamida yanada rivojlantirishni taqozo etadi. Albatta musiqiy estetik didni shallantirish jarayoni musiqiy idrok etishning umumiy qonuniyatlari bilan bog'liqdir, lekin ayni paytda uning faqat o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarga ham egadir. Musiqiy estetik didni shakllantirish jarayoni ongli faol munosabat mavjud bo'lishi nazarda tutadi. Bu munosabat idrok etish jarayonini alohida (individual) estetik baho berish darajasigacha ko'tarilishi lozim. Shuning uchun ham kichik yoshdagi o'quvchilarning musiqiy estetik didini shakllantirishga bevosita bog'liq bo'lgan musiqa mashg'ulotlarida bolalarning bilish, his qilish faoliyatini kuchaytirish kerakki u umumiy va maxsus qobiliyatlarini rivojlantirishga va pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish bosqichlariga bo'linadi. Pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish bosqichiga musiqiy taassurotlarning to'planishi; o'quvchilarga turli xissiy holatlarni boshdan kechirishga imkon berish; xissiy musiqiy tasavvurlarga qaytilishi; «Tinglab tushunish» yoki «Ijro etib-tushunish» tajribasini boshqa asarlarga ham tatbiq etish jarayonini rag'batlantirish kabi shartlar kiradi. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini shakllantirish tamoyillari va shart-sharoitlariga muvofiq ravishda pedagogik ta'sir ko'rsatish usullarini aniqlashga harakat qildik. Chunki mashg'ulotlarning har bir turi muayyan pedagogik vazifalarini hal qilishga yordam beradi. Biz mashg'ulotlarning quyidagi turlarini alohida ajratib ko'rsatmoqchimiz: 1. An'anaviy tur- bunda musiqiy faoliyatning barcha ma'lum turlaridan muayyan izchillikka foydalaniladi; 2. Ustun tur-uning tarkibida musiqiy faoliyat turlaridan biri ustivor o'rin tutadi. 3. Mavzuli tur- u tarkibidan muayyan mavzu

tevaragidagi tashkil topadi. 4. Kompleks tur- xilma-xil san'at turlari materiallariga asoslansa ham muayyan mavzuni yoritishga qaratiladi. Mashg'ulotlarning birinchi an'anaviy turi musiqiy faoliyatning har xil turlariga doir bir qancha vazifani bir vaqtda bajarishni nazarda tutadi. Lekin u hamisha ham o'qituvchiga musiqiy tarbiya vazifasini to'liq darajada hal qilish imkonini bermaydi. Ikkinchi ustun turdan bolalar musiqiy faoliyatining birir turidagi qoloqligini barham toptirishga foydalanadi. Mazkur mashg'ulot turlariga muvofiq ravishda to'rtta variant mavjud bo'lib, ularning har birida musiqa tinglash, qo'shiq aytish bolalarning musiqa asboblarini chalishi musiqaga jo'r bo'lib harakat qilishi ustunlik qiladi. Mashg'ulotlarning uchinchi mavzuli turi darsining barcha tarkibiy qismlariga yaxlitlik bag'ishlaydi. To'rtinchi kompleks tur esa darsining ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi, xissiy tahliliy tafakkurni rivojlantiradi.

MUHOKAMA

Mashg'ulotlarni o'tkazishda musiqa o'qituvchisiga 1-4 sinflar nashr etilgan «Umumiy ta'lim maktablari musiqa dasturlari» 1992 yil yordam beradi. Darslarni o'tish tajriba o'tkazish jarayonida dasturlarda ko'rsatilgan asarlardan to'la foydalanish yoki aniq sharoitdan kelib chiqib, ulardan ayrimlarini boshqa maqbul asarlar bilan almashtirish ham mumkinligini unutmash lozim. Bunday repertuar tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish zarur: - o'zbek musiqasi asarlarining yuksak badiiy va tarbiyaviy ahamiyati o'quvchilarning musiqa asarini idrok etish va ijro qilishi uchun qulay bo'lishi. Musiqa asarlari janr va turlarining xilma-xilligi. Xissiy esteti ta'sir ko'rsatish kuchi, yorqin va xilma-xil xissiyotlar uyg'onish imkoniyatlari darajasi musiqiy idrok va faoliyatning ijodiy tomonlarini faollashtirish imkoniyati.

NATIJA

Mazkur mezonlarni aniqlash uchun asos bo'lib ikki tamoyil asarlarni tanlashning estetik yo'nalishi, hamda o'zbek xalq va kompozitorlik musiqasining o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi tamoyillari xizmat qiladi. Katta sinflarda esa o'zbek xalq qo'shiqlarini sevib tinglaydilar va tushunadilar. Ularda ashula va yalla, lapar va terma janrlaridagi turli asarlar ayniqsa zo'r qizitish uyg'otadi. Maktablarimizda yosh avlodni tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi bo'lgan estetik tarbiya masalalarini muvoffaqiyatli hal qilishga katta ahamiyat berilmaydi. Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning eng asosiy va ancha murakkab majmualaridan biri bo'lib, bolalarning musiqa san'ati asarlarini tushunishga ijro etishga o'rgatish ishlarini kichik yoshdan boshlashni taqozo etadi. Shunga ko'ra estetik tarbiyalash maqsadida Barcha maktablarda va maktabdan tashqari muassasalarda bolalarning badiiy musiqa, rassomlik, haykaltaroshlik bilan shug'illanishga sharoit yaratish alohida nazarda tutilgan. Musiqa bolalar va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning g'oyat

ta'sirchan va samarali vositasi sifatida ham ahamiyatga egadir. Maktabdagi musiqa ta'limi va tarbiyasi bo'yicha sinfda va sinfdan tashqari olib borilgan shular orqali Vatanga muhabbat hislarini, xalqlarga nisbattan do'stlik va hamkorlik munosabatlari, barcha millat xalqlarining huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish bilan chambarchas va uzviy bog'liqdir. O'quvchilarda o'zbek musiqasi tilining o'ziga xos xususiyatlariga doir tushuncha va tasavvur hosil qilish ancha murakkab, uzoq vaqt davom etadigan jarayondir. Bunda vazifa o'quvchilarning musiqani ongli idrok etishlari elementar tahlil qilishlari va ularning musiqa haqidagi bilimlarini boyitib borish asosiy vazifa deb bajarilishi qaraladi.

XULOSA

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, ilmi, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi hech shubhasiz beqiyos ahamiyat kasb etadi. Musiqa ta'limi va tarbiyasi orqali yoshlarni komil inson etib tarbiyalash lozim musiqa ta'limi yoshlarni tarbiyalashda juda katta ta'sir etadi. Yoshlarni komil inson etib tarbiyalash eng avvalo tarbiyaga bog'liq. Men Abdulla Avloniyning : «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir» degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. www.library.uz
2. D. Omonullayeva Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan leksiyalar kursi, 1990.
3. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). МУСИҚА ИЛМИ ВА ИСЛОМ ДИНИ: ТАЛҚИН МУАММОСИ. *Academic research in educational sciences*, (3).
4. Маҳкамова, Ш. Р., & Асадуллаева, М. А. (2020). «ВЕЛИКИЙ ШЁЛКОВЫЙ ПУТЬ»: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КУЛЬТУР ЗАПАДА И ВОСТОКА В КОНТЕКСТЕ ПРОБЛЕМЫ МОДЕРНИЗАЦИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Science and Education*, 1(Special Issue 4).
5. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). ХАЗРАТ НАВОИЙНИНГ МУСИКИЙ ТАФАККУРИ. *Science and Education*, 1(Special Issue 4), 215-222.

REFERENCES

1. www.library.uz
2. D. Omonullayeva Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan leksiyalar kursi, 1990.

3. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). МУСИҚА ИЛМИ ВА ИСЛОМ ДИНИ: ТАЛҚИН МУАММОСИ. *Academic research in educational sciences*, (3).
4. Маҳкамова, Ш. Р., & Асадуллаева, М. А. (2020). «ВЕЛИКИЙ ШЁЛКОВЫЙ ПУТЬ»: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КУЛЬТУР ЗАПАДА И ВОСТОКА В КОНТЕКСТЕ ПРОБЛЕМЫ МОДЕРНИЗАЦИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Science and Education*, 1(Special Issue 4).
5. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). ХАЗРАТ НАВОЙНИНГ МУСИҚИЙ ТАФАККУРИ. *Science and Education*, 1(Special Issue 4), 215-222.

HAR BIR MILLATNING O'ZLIGINI ANGLATADIGAN OYNASI BU UNING ONA TILI VA ADABIYOTIDIR

Bekova Mahkamtosh Kupaysinovna

Toshkent shahridagi Prezident maktabining ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

mahkamtoshbekova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada har bir millatning o'zligini anglashda ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishda va ijtimoiy rivojlanishida o'z ona til va adabiyotining o'rni beqiyosligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Til, ona tili, adabiyot, vatan, millat, o'zbek tili, rivojlanish, islohot, interfaol, muloqot.

THE MIRROR OF EVERY NATION IS ITS MOTHER TONGUE AND LITERATURE

Bekova Mahkamtosh Kupaysinovna

Teacher of Native Language at the Presidential School in Tashkent

mahkamtoshbekova@gmail.com

ABSTRACT

This article describes the unique role of the native language and literature in the expansion of the spiritual worldview and social development of each nation in the understanding of its identity.

Keywords: Language, native language, literature, homeland, nation, Uzbek language, development, reform, interactive, communication.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh maqsad-mohiyati xalqimizga munosib hayot sharoitini yaratib berish; "Islohot islohot uchun emas, inson uchun, uning manfaatlarini uchun", - degan ezgu g'oyani amalga oshirishdan iboratdir.

Keyingi yillarda jamiyatimizda kuzatilgan ma'naviy yangilanish, shaffoflik ijtimoiy adolat tamoyillarida ustuvorlik insonlar qalbida ertangi kunga ishonch hissini bir necha barobar oshiradi. Buning uchun esa sog'lom turmush tarzini jamiyatdagi o'rni beqiyosdir. Aynan shuning uchun ham mamlakatimiz ta'lim tizimining oldida yosh avlodga zamonaviy bilim va hunarlar bo'yicha mustahkam ta'lim berish bilan birga

ruhiy komillikka erishish, mustaqil fikrlay oladigan, yuksak ma'naviyatli barkamol inson etib tarbiyalash va o'z ona tiliga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishdan iboratdir [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ona tili - millatning ruhi, uning or-nomusi, ma'naviy qiyofasi, orzu-umidlarining namunasidir. Ona tili millatning birligi va birdamligining timsolidir. U millatni yagona xalq sifatida o'z atrofida birlashtiradi va dunyoda borligini ta'min etadi. Har bir millatning o'z Vatani, oilasi bo'lgani kabi uning jonajon va betakror ona tili ham bo'ladi. Inson uchun uning Vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrli bo'lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo'ladi. Hattoki, go'dak ham o'z vatanini, ota-onasini, dunyoni o'z ona tili orqali angelaydi va atay boshlaydi. Farzand tarbiyasida onaning o'rni beqiyos bo'lganidek, insonning hayotda o'z o'rnini topishida, kamolotga erishuvda tilning o'rni ulkan ahamiyatga ega. Shu bois, tilni, onaga qiyoslab ona tili deb ataydilar. Til inson vujudida qon-qoniga singib oqadi. Jamiki, ezgu fazilatlar, avvalo, ona allasi va ona tilining bebaho jozibasi orqali singadi. Inson qalbida ona tiliga nisbatan sof tuyg'u, mehr-muhabbat alanga oladi. Turk dunyosining buyuk marifatparvar ijodkori Ismoilbek Gaspirali aytganidek: "Millatning ikki asosi bordur. Bu ularning tili va dinidir. Agar millat hayotidan shu ikkisidan biri sug'urib olinsa, bu millat tanazzulga yuz tutur" [2-3].

Suvsiz daryo bo'lmaganidek, tilsiz millat ham vujudga kelmaydi. Biror millatga mansub bo'lgan til, o'sha millat bilan yashaydi va bardavom bo'ladi. Ota-bobolarimiz qadimdan tilni asrab avaylashgan, rivojlantirishgan. Masalan, A.Navoiy, Zahridin Muhammad Bobur, Lutfiy va boshqalar. O'zbek tilining rivoji uchun beqiyos hissa qo'shganlar. Turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilimiz bizning bebaho boyligimizdir. So'z mulkining sultoni, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zi yashagan murakkab davr – XV asrda tilimiz himoyasiga o'tlanib, turkiy til o'z imkoniyatlari jihatidan boshqa tillardan sira qolishmasligini ilmiy va amaliy jihatdan isbotlab berdi. O'zining "Xamsa" kabi shoh asarini turkiy tilda yaratdi.

Hozirda ham shoirlarimiz o'zbek tilining boyligini, uning buyukligini namoyon etuvchi asarlar yaratmoqdalar. Boisi buyuk adabiyoti bo'lgan xalqning buyuk tili ham bo'ladi. Insonning qanday ma'naviyatga ega ekani uning tilida, chiroyli nutqida namoyon bo'ladi. Til millatning buyuk boyligi, bebaho xazinasi, tuganmas mulkidir. Chunki millatning tarixi, uning madaniy, ma'naviy merosi, urf-odatlar va an'analari unda mujassam bo'ladi. Shu sababli ona tilimizni asrab-avaylash, uni boyitishimiz va avlodlarga to'liqligicha yetkazishimiz kerak. Birinchi Prezidentimizning ta'biri bilan aytganda "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-milliy bog'liqlik til orqali vujudga keladi". Bu fikrlarni doimo yodimizda tutishimiz kerak. Darhaqiqat, tilsiz millat rivojlanmaydi, taraqqiy etmaydi. 1989-yil 21-

oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. O'zbek tili haqidagi qonun qabul qilinganidan so'ng barcha davlat hujjatlari o'zbek tilida yuritiladi, gazeta va jurnallar o'zbek tilida chop etila boshlandi. 1993-yil 2-sentabrda "Lotin tiliga asoslangan o'zbek alifbosini tuzish tog'risida"gi qonun qabul qilindan so'ng, mamlakatimiz har tomonlama rivojlandi va jahon kommunikatsiya tizimidan munosib o'rin egallash muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shu sababli chet ellarda ham o'zbek tiliga qiziquvchilar, uni o'rganuvchilar soni ortib bordi. Dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo'lib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida o'zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma'no va jozibadorligidan darak beradi. Rossiyalik tilshunos olim, professor A.M.Kozlyanina "O'zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador" deb bejiz ta'kidlamagan. Shunday ekan ona tilimizning shundayin go'zalligini, sofligini keyingi avlodlarga yetkazish bizning vazifamizdir. Negaki, ona tilini ulug'lash, asrab-avaylash o'sha tilda so'zlashadigan har bir insonning burchidir [4].

MUHOKAMA

Til muloqot vazifasi ham hisoblanadi. Hammamizga ma'lumki, mashhur bo'lgan A.Navoiy bobomizga tegishli "Ko'ngil qulfi mahzanin qulfi til va ul qulfin kalitin so'z bil". Inson qalbining xazinasini til, bu qalb xazinasining kaliti so'zdir. O'zbek tilining so'zlari shu qadar ma'noli, ko'pki bitta ma'noga ega bo'lgan tushunchani bir nechta so'zlar orqali ifodalash mumkin bo'ladi. Masalan, birgina ko'z so'zining bir necha ma'nolari bor. Bilamizki bir tushunchaga tegishli so'z, bir necha so'zlar bilan ifodalansa, ya'ni sinonim so'zlari qanchalik ko'p bo'lsa, ayni shu til boy til hisoblanadi. Ko'plab adiblarimiz til haqida ko'plab hikmatli so'zlarni aytganlar va tilni turlicha ta'riflaganlar. Masalan, "Til-millat ko'zgusi", "Til-ma'naviyat ko'zgusi", "Til - millatning bebaho boyligi" va shu kabilardir. Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'lgan edi. Istiqloq yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi.

O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'si oshdi. "Davlat tili haqida"gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug'atlar, darslik va o'quv qo'llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so'z va so'z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo'llaniladigan so'zlarni o'z ichiga olgan besh jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati" bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridandir.

NATIJA

Til – millatning ma'naviy boyligidir. Til nafaqat muomala vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Turli xalqlarning tillariga hurmat esa o'z navbatida o'zaro tushunishni, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Tillarni saqlanib qolishi uchun esa bu tillarni qo'llab-quvvatlash zarurdir. Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tillarni tan olish va hurmat qilish tinchlikning birdan bir kafolatidir.

Shu sababli ham har bir xalq o'z tili saqlanib qolishi uchun harakat qiladi. XXI asr o'rtalariga borib, Xitoy tili asosiy til bo'lib olishi mumkin. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir millon kishi so'zlashishi kerak ekan. Biroq bunday tillar dunyoda atigi 250 tadir. O'zbek tili ham mana shu 250 taning ichida ekani quvonarli, albatta [5-6-7].

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi. Til – millat ko'zgusi, deb bejiz aytilmagan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati o'zbek tili ta'sirida shakllangan. Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan. Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimiz yutuqlari, sportchilarimiz g'alabalari sharafiga o'zbek tilida madhiyamiz kuylanayotir.

Biz o'z ona-tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz, go'zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. "Til yashasa, millat yashaydi". Agar biz o'z tilimizning ko'rkamligi, boyligini dunyoga tarannum etsak, millatimiz yanada charog'on bo'ladi va birligimiz mustahkam bo'ladi. Zero rus tarixchisi Shobelev aytganidek "Millatni yo'q qilish uchun u yerga qurol ko'tarib borish shart emas, uning tilini, ma'naviyatini, adabiyotini yo'q qilish kerak, shunda millatning o'zi yo'q bo'lib ketadi" degan fikri naqadar to'g'ri ekanligini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLARLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi.
2. N. N. Azizxodjayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Toshkent 2006 y.
3. B.To'xliyev. Adabiyot o'qitish metodikasi.T.: 2010 y.

4. С.А. Хайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихини ўқитишда “Зафарнома”дан фойдаланишни имкониятлари. *Science and Education*. 1(7). 192-198
5. С.А. Хайдаров. (2020). Педагог-ўқитувчиларда ахборот-коммуникация кўникмасини шакллантириш асослари. "Science and Education." *Scientific journal*. 1(7). 610-617
6. Сулаймон Амиркулович Хайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. *Science and Education*. 1(8). 666-671
7. Хайдаров С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. *Academic Research in Educational Sciences*. 1 (3). 1313-1321.
8. Хайдаров Сулаймон Амиркулович. (2020). Тарих фанини ўқитишга оид экологик муаммолар масаласи. *Scientific Progress*. 1(1). 12-17.
9. Сулаймон Хайдаров. (2020). [Ўзбекистон тарихи фани дарслари самарадорлигини оширишда тасвирий санъат воситаларининг роли](#). *Science and Education*, 1(6), 174-179.
10. С.А. Хайдаров. (2020). [Тарих дарсларида тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш](#). *Science and Education*. 1(9). 458-461.

REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi.
2. N. N. Azizxodjayeva. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Toshkent 2006 y.*
3. B.To‘xliyev. *Adabiyot o‘qitish metodikasi*. T.: 2010 y.
4. С.А. Хайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихини ўқитишда “Зафарнома”дан фойдаланишни имкониятлари. *Science and Education*. 1(7). 192-198
5. С.А. Хайдаров. (2020). Педагог-ўқитувчиларда ахборот-коммуникация кўникмасини шакллантириш асослари. "Science and Education." *Scientific journal*. 1(7). 610-617
6. Сулаймон Амиркулович Хайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. *Science and Education*. 1(8). 666-671
7. Хайдаров С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. *Academic Research in Educational Sciences*. 1 (3). 1313-1321.
8. Хайдаров Сулаймон Амиркулович. (2020). Тарих фанини ўқитишга оид экологик муаммолар масаласи. *Scientific Progress*. 1(1). 12-17.

9. Сулаймон Хайдаров. (2020). [Ўзбекистон тарихи фани дарслари самарадорлигини оширишда тасвирий санъат воситаларининг роли](#). Science and Education, 1(6), 174-179.
10. С.А. Хайдаров. (2020). [Тарих дарсларида тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш](#). Science and Education. 1(9). 458-461.

KITOB – MANGULIK ARDOG‘IDAGI DURDONA**Abdualimova Shalola**

Toshkent shahar, Mirobod tumani 294-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunimiz uchun dolzarb masala bo‘lgan va ertangimizni qay darajada porloq bo‘lishini belgilab beruvchi kitob - badiiy asar o‘qish haqida qisqacha mulohaza yuritiladi. Shuningdek, maqolada, mamlakatimizda yoshlarni kitob oqishga qiziqitish haqida olib borilayotgan ishlarga ham qisqacha izohlar beriladi.

Kalit so‘zlar: kitob, badiiy asar, internet, oila, ta‘lim muassasasi, aql-zakavot, tarbiya, tarixni anglash, o‘zlikni bilish.

THE BOOK IS THE GREATEST OF THE ETERNAL HONORS**Abdualimova Shalola**

Teacher of native language and literature at school No. 294, Mirabad district, Tashkent

ABSTRACT

This article gives a brief overview of reading a book - a work of art, which is a topical issue for today and determines how bright our future will be. The article also gives a brief overview of the work being done in our country to encourage young people to read books.

Keywords: book, artwork, internet, family, educational institution, intelligence, upbringing, understanding of history, identity.

KIRISH

Kitob necha ming yillardan buyon insoniyat taqdiri va yashash tarzida o‘zining bebaho ahamiyati bilan qadrlangan. Tarixdan ham ma‘lumki, kitob deb atalmish xazinaga bo‘lgan e‘tibor va qiziqish insoniyat taqdirida katta burulishlar yasadi. Jahonni tiz cho‘ktirgan. sultonlar-u podshohlar ham kitob qarshisida bosh egdi. Ilm va ma‘rifat dunyosida osmon ilmini o‘rgandi, sirini ochdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Afsuski, bugungi shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan XXI asr insoniyat hayotida bu bebaho durdona o‘zining qadr-qimmatini biroz yo‘qotib borayotgandek tuyuladi. Uning o‘rnini internet egallab borayotgani, albatta, sir emas. Bugungi kunda internet tizimi insoniyatning faol hayotida o‘zining ko‘rinmas to‘rlarini yanada kengroq yozib,

kitobning o'rnini batomom egallab olmasdan turib, mening nazarimda, uning o'z vazifalarini belgilab olishimiz lozim. Sababi shundaki, dunyo aql-zakovat egalari o'zlarining iqtidor namunalarini kelajak avlodga yetkazish maqsadida ilm, aql-zakovat xazinasi, vaqt oralig'idan olib o'tuvchi vosita – kitobning ahamiyatini, qadr-qimmatini, uning foydalari, inson tarbiyasidagi ahamiyatini juda yaxshi anglashgan. To'g'rida, aytingchi, kitob haqida gapirganingizda so'zingiz oxrida "lekin" degan so'zni qo'sha olasizmi? Yoki kitobning turlari haqida gapirganimizda xavotir, ikkilanish bilan fikr yuritamizmi? Yo'q, albatta. Ijtimoiy tarmoqlar haqida gapirganimizda-chi? Qo'yingchi, o'ylaganimizdachi? Kitobni inson yoshiga munosib, saviyasiga mos darajasini aniqlab berish, farzandimizga o'qitish mumkin, ammo internetdagi saytlar haqida nima deya olasiz? Siz uy yumushlari yoxud kasbingiz jihatdan bandligingiz tufayli farzandingiz foydalanayotgan internet saytlarini qanday nazorat qilishga ulgurasiz yoki qunt qila olasiz? Inson o'z farzandiga tavsiya qilayotgan kitoblarni ko'pchiligi bilan tanish bo'ladi. Bu kitoblarni siz yo o'qigansiz yoki vedeofilmlarini ko'rgansiz. Ammo bola foydalanayotgan saytlar haqida nima deya olasiz. G'arbiycha madaniyat, yengil-yelpi hayot va tizginsiz nafs iskanjasi, axloqsizlikni namoyish etuvchi filmlar, musiqa va kliplar, internet orqali taralayotgan turli shov-shuvli ma'lumotlar xalqlarning osuda hayot tarziga salbiy ta'sir ko'rsatib, jamiyatda beqaror holatlarni chaqirayotgan ushbu "XXI asr mo'jizasi" emasmi? To'g'ri, internetning qulay tomonlari ham bor, albatta, ammo ushbu ziyo xazinasidan bilim izlashdan ko'ra illat, fisq-u fasod bulog'idan bahra olib, yana shunday buloqlarni yaratuvchi kimsalarning bor ekanligiga nima deysiz?

MUHOKAMA

Mening nazarimda, farzanddek navnihollarimizni bu salbiy illat iskanjasidan himoya qilish uchun nafaqat ta'lim muassasalarida, oilada turli chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim. Unib-o'sib kelayotgan kelajak avlodga oilada, ta'lim muassasida milliy qahramonlarimiz hayoti aks etgan asarlarni, ular asosida ishlangan video filmlarni ko'proq ko'rsatishimiz, ular to'g'risida qiziqarliroq, hayajonliroq gapirishimiz lozim. Oilaviy an'analar orasida bir oyda bir marta milliy, insoniy fazilatlarini o'zida jamlagan kitoblar o'qish an'anasini ham kiritsak yomon bo'lmasdi. Buning uchun turli tanlovlarini o'tkazish bilan birga maktablarda ta'lim berayotgan pedagogik kadrlarni o'zlarini kitobxonlik saviyalarini yanada oshirish kerak. Chunki yuqori saviyga ega, o'z kasbining ustasi bo'lgan ustoz darsini olgan tinglovchi, albatta, bilimga chanqoq bo'ladi, kitob qadrini tushunadi. Maktabda o'tiladigan adabiyot, tarbiya darslarida, to'garaklarda milliy ruhdagi, farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi asarlardan masalan, "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Sarbadorlar", "Yulduzli tunlar", "Avlodlar davoni", "Ulug' saltanat", "Ulug'bek xazinasi", "Ufq", "Ikki eshik orasi", "Dunyoning ishlari" kabi badiiy asarlarga o'xshash buyuk ajdodlarimiz qahramonligini,

o‘zbek xalqining fazilatlarini, ikkinchi jahon urushining oqibatlarini o‘zida aks ettirgan hamda milliy qadriyatlarimizni sehrli jilolarini taratuvchi kitoblarni o‘qishni tavsiya qilish, ular yuzasidan o‘quvchilar fikrini maqolalar tarzida jurnallarga yoritish, adabiyot kechalarini tashkil qilish samarali natija beradi, deb o‘ylayman.

NATIJA

Ba‘zan kitoblarning narxlari bilan bog‘liq fikrlar quloqqa chalinadi. Ammo masalaning boshqa bir tomoniga ahamiyat berish ham kerak. Katta-katta to‘ylarga isrofarchilik qilib, be‘mani, bachkana urf-odatlariga sarflangan xarajatlar negadir kitob sotib olish masalasiga kelganda katta muommodek muhokama qilinadi. Qizig‘i shundaki bir marta pul sarflab sotib olingan kitoblar qancha daholar yetib chiqishiga sabab bo‘lishi necha avlodga xizmat qilishi mumkin. Internetdan olgan ma‘lumotingizni siz bir marta o‘qiy olasiz (agar ko‘chirib olmasangiz), bir necha yillardan so‘ng ushbu ma‘lumotni qayta topa olmaysiz. Kitobdagi ma‘lumotlar necha qayta tekshiruvlardan o‘tadi. Internetdagi ma‘lumotlar kimning tahlilidan o‘tadi, kimning taqrizi asosida chop etiladi, qolaversa uning haqiqiyiligiga kim kafolat beradi.

Ta‘lim muassasalarida adabiyot darslarida o‘qituvchi, avvalo, o‘tilayotgan dars mavzusini o‘quvchilarga oldindan tavsiya etsa, o‘quvchilarning ko‘pchiligi shu kitoblarni topib o‘qishga xarakat qiladi. O‘quvchilar kitobdan olgan xulosalarini yanada boyitish, taassurotlarini yanada kuchaytirish maqsadida ushbu asarlar muallifi yashagan uy muzeylar, adabiyot muzeylariga olib borilsa, o‘quvchiga yanada katta qiziqish uyg‘onadi. Axir, aytingchi, milliy adabiyotimizning shoh asarlarni o‘qigan, shunday buyuk yozuvchilarning mashaqqatli hayoti bilan tanishgan o‘quvchilarni kitobga mehr qo‘ymaydi deya olasimi? Otabek va Kumush, Anvar va Ra‘no, Robiya va Kimsanning sof muhabbatini, Xalima ayadek onalar mehri tarannum etilgan, Zebi, Gulnor kabi o‘zbek qizlarining ayanchli taqdirlari, Mirzo Ulug‘bekdek daho xizmatlari aks ettirilgan asarlar yaratilgan xonadonga tashrif buyurgan, otashin muhabbat aks etgan, milliy qadriyat va madaniyatni jamlagan asarni o‘qishni va yana shunga o‘xshash asarlar o‘qishga muhtojlik sezmaydi deya olasizmi.

Bu harakat orqali biz nafaqat milliy qahramonlar, balki bu asarlar orqali biz o‘zimizning tariximiz va qadimiy shaharlarimizga nisbatan ham yosh avlod ongida hurmat va qiziqish tuyg‘usini shakllantirishimiz mumkin. Masalan, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, “Boburnoma” kabi asarlarni o‘qigan inson borki, go‘zal Samarqand shahriga maftun bo‘ladi. Xayolan Registon maydonini aylanib yurgan “padarkush” deya nom olgan Abdulatifga nisbatan muhabbat-u Mirzo Ulug‘bekdek dahoning ma‘rifat merosini saqlab, kelajak avlodga yetkazish uchun jonini xatarga qo‘ygan, ming o‘g‘ildan aziz shogird, astronomiya maktabining davomchisi, olim Ali Qushchiga nisbatan nafrat paydo bo‘larmidi? Bolalik gashtini surib ulgurmay bir

kechada sarkarda, hukmdorga aylangan, umri davomida hiyonat, iztirob, ayriliq, sogʻinch iskanjasida yashasa-da, 322 yildan oshiq hukm surgan sulolaga asos solgan Z.M.Boburdek shaxs faoliyatiga nisbatan qiziqish uygʻonmaydi, deya olasizmi.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlarimiz bilan virtual olamdan umuman chekinish kerak demoqchi emasman. Internetning biz uchun qulay, afzal va juda muhim tomonlari bor. Ammo kishini dardini kuylovchi, quvonchlariga sherik boʻluvchi, asrlar tizgini va sinovidan oʻtgan kitob mangulik ardogʻidagi durdonadir.

Men kitob oʻqishni juda sevaman, oʻzim dars berayotgan oʻquvchilar ongida ham qalbida ham milliy adabiyotimizga, tariximizga, qahramonlarimizga, adiblar va adabiyotimizning serjilo nuqtalariga mehr, muhabbat uygʻotish mening vatan oldidagi eng katta oʻqituvchilik burchim deb bilaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир / Халқ сўзи. 2017. 4 август
2. www.ziynet.uz.
3. www.adaabiet.uz.
4. www.google.uz.
5. www.literatura.ru.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир / Халқ сўзи. 2017. 4 август
2. www.ziynet.uz.
3. www.adaabiet.uz.
4. www.google.uz.
5. www.literatura.ru.

NG HARF BIRIKMASINI BO'G'INLARGA AJRATUVCHI VA IZOH BERUVCHI KOMPYUTER DASTURI

Jurayeva N.V.

Chirchiq davlat pedagogika instituti, Matematika va informatika fakulteti, informatika kafedrası dosenti

Qarshiboyeva N.A.

Chirchiq davlat pedagogika instituti, Matematika va informatika fakulteti 4-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada, o'zbek tilida uchraydigan NG harf birikmasini bo'ginga ajratishning kompyuter dasturini ishlash prinsiplari haqida ma'lumot berilgan. Kompyuter dasturi C++ dasturlash tilida ishlab chiqilgan. Elektron baza sifatida O'zbek tili izohli lugati olingan. Dastur 600 yaqin so'zlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: axborot, texnologiya, kompyuter, dastur, C++ dasturi, innovatsiya

NG LETTER COMPUTER SOFTWARE

Juraeva N.V.

Chirchik State Pedagogical Institute, Faculty of Mathematics and Informatics, Associate Professor of Informatics

Karshiboeva N.A.

4th year student of Chirchik State Pedagogical Institute, Faculty of Mathematics and Informatics

ABSTRACT

The article provides information on the principles of operation of a computer program for the division of the letter combination NG, which occurs in the Uzbek language. The computer program is developed in the C ++ programming language. An explanatory dictionary of the Uzbek language is used as an electronic database. The program contains about 600 words.

Keywords: information, technology, computer, software, C ++ software, innovation

KIRISH

So'nggi yillarda dasturlashga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu kompyuter texnologiyasining kun sayin rivojlanib borishi bilan bog'liqdir. Ayniqsa

visual dasturlash texnologiyalaridan foydalanib amaliy dasturlar ishlab chiqish, kompyuter texnologiyasining rivojlanishiga katta ta'sir etmoqda. Kompyuter texnologiyalarini ta'lim sohasidagi o'rni beqiyosdir. Deyarli barcha ta'lim yo'nalishlari kompyuter texnologiyalarining yangi innovatsion usullaridan foydalanib kelmoqdalar. Bu borada o'zbek tiliga kompyuter texnologiyalari yordamida o'qitishni misol qilib keltirsak bo'ladi. Ma'lumki, yangi innovatsion usullar yordamida o'rganish va o'rgatish osonroq va tezroq amalga oshadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Axborot texnologiyalarini taqbiqi sifatida o'zbek tili grammatikasida uchraydigan ayrim masalalarni kompyuter orqali hal qilishni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ma'lumki, har qanday sohada yechilmagan va muammoli holatlar uchrab turadi. Bundan o'zbek tili grammatikasi ham chetda qolmagan. Ayrim muammoli holatlarni hal qilish kompyuter ishtirokida yengil kechadi. Bu dastur orqali o'zbek tilida uchraydigan Ng harf birikmalarni ishlatishdagi chalkashliklarni kompyuter dasturi orqali hal qilishga harakat qilingan.

Ng harf birikmasini bo'g'inlarga ajratuvchi va izoh beruvchi dastur C++ dasturi orqali tuzilgan bo'lib, dasturning maqsadi "ng" va "n", "g" undoshlarini bo'g'inga ajratish jarayonida yuzaga keladigan noqulayliklarni bartaraf qilishga ko'maklashadi. Ushbu dastur 600 ga yaqin "ng" va "n", "g" undoshlari qatnashgan so'z va so'z birikmalaridan iborat. Bazadagi har bir so'zning maqbul yozilish shakli, o'zlashma so'zlarning kelib chiqish etimologiyasi ko'rsatilgan, so'zlarning aniqlangan ma'nolari berilgan.

MUHOKAMA

Dasturning tuzilish jarayoni quyidagicha: C++ dasturi ishga tushiriladi. Uning forma qismiga bittadan Label, Edit, Memo, Button tugmalari joylashtiriladi. Dasturda ishlatiladigan so'zlar bazasi bloknot fayliga joylanadi. Forma qismiga dastur ishlashi uchun zarur bo'lgan kutubxonalar, o'zgaruvchilar va operatorlarni kiritib olamiz.

Bu dasturga kiritilgan kutubxonalar dasturdagi operatorlarning ishlashida ko'maklashadi. Kiritilgan so'zlarni fayldan ochish uchun massivlardan ham foydalanilgan. Agar kiritilgan so'z bazada mavjud bo'lsa uni bazadan qidirib topadi va uni o'qidi. Kiritilgan so'zni yangi qatorda, uning ma'nosini esa keyingi qatorga chiqarib berish uchun ham operatorlardan foydalanilgan.

NATIJA

Button bu qidirish tugmasi hisoblanadi. Bu jarayonda mantiqiy amal bajarilgan bo'lib, Edit1 ga kiritilgan so'z bazada mavjud bo'lsa, Memo da aks etadi. Bazada yo'q

bo'lsa “Bunday so'z bazada mavjud emas!!!” degan so'z kelib chiqadi. Dasturdagi Memo komponentasi dasturga kiritilgan so'zlarning bo'g'inga ko'chirilgan holatini va izohini chiqarish uchun ishlatilgan.

Dastur ishlash jarayoni quyidagicha: dastur ishga tushiriladi va bazadagi so'zlardan biri kiritiladi. Bu oynada afsungar so'zi kiritilgan bu so'zni bo'g'inga ajratilgan va so'zni ma'nosi aks etgan.



The screenshot shows a window titled "Form1" with a search interface. The text "So'zni kiriting->" is followed by a text input field containing "afsungar" and a button labeled "Qidirish". Below the input field, a text area displays the following text: "af-sun-gar- afsun bilan sehrlovchi. Telepat qadimgi hind afsungarini esladi. Yoshlik. U sohir hislardan kechdi beomon, afsungar tuyg'ular bo'lganlar g'oyib A. Oripov, Yillar armoni."

Bazaga kiritilmagan so'zlardan kiritadigan bo'lsak, “Bunday so'z bazada mavjud emas!!!” degan yozuv chiqib keladi.



The screenshot shows a window titled "Form1" with a search interface. The text "So'zni kiriting->" is followed by a text input field containing "dastur" and a button labeled "Qidirish". Below the input field, a text area displays the text: "Bunday so'z bazada mavjud emas!!!"

XULOSA

Bu dasturdan tarjimonlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, oliy ta'lim o'qituvchilari va talabalari shuningdek, keng o'quvchilar ommasi bema'lol

foydalanishlari mumkin. Dastur foydalanish uchun qulay, sodda va tushunarli tarzda tuzilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh. F.Madraximov, S.M. Gaynazarov. C++ tilida programmalash asoslari. Toshkent 2009.
2. Juraeva N.V., Yaxshiboeva R.B, Ibrohimova H.S., O'zbek tili grammatikasini kompyuter bazasiga kiritishdagi ba'zi grammatik muammolar haqida. Ta'limdagi innovatsiyalar va islohatlar kontekstida zamonaviy klaster tizimi: Muammolar, yondoshuvlar va istiqbollari. Ilmiy amaliy anjuman. Chirchiq 2019.
3. Jurayeva N.V., Rajabov O.T., Madaminova N.A. Ng harf birikmasini bo'g'inlarga ajratuvchi va izoh beruvchi kompyuter dasturi haqida. Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv: muammo va yechimlar. Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani. Andijon 2020.
4. Juraeva, N. V. (2020). The Formal model of the grammar of the uzbek language. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 129-132.
5. Джураева, Л. В. (2020). Географияни ўқитиш жараёнида дидактик ўйинли дарслардан фойдаланиш йўллари. *Замонавий узлуксиз таълим сифатини ошириш*, 125-129.
6. Джураева, Л. В. (2020). География дарсларида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш. *Ўзбекистонда илм-фан ва таълим*, (5), 473-475.
7. Джураева, Л. В. (2020). География фанини ўқитишда локал ва хусусий методик даражада фойдаланиладиган технологиялар (интерфаол методлар методлар). *Интернаука*, 18(147), 54-56.

REFERENCES

1. Sh. F.Madraximov, S.M. Gaynazarov. C++ tilida programmalash asoslari. Toshkent 2009.
2. Juraeva N.V., Yaxshiboeva R.B, Ibrohimova H.S., O'zbek tili grammatikasini kompyuter bazasiga kiritishdagi ba'zi grammatik muammolar haqida. Ta'limdagi innovatsiyalar va islohatlar kontekstida zamonaviy klaster tizimi: Muammolar, yondoshuvlar va istiqbollari. Ilmiy amaliy anjuman. Chirchiq 2019.
3. Jurayeva N.V., Rajabov O.T., Madaminova N.A. Ng harf birikmasini bo'g'inlarga ajratuvchi va izoh beruvchi kompyuter dasturi haqida. Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv: muammo va yechimlar. Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani. Andijon 2020.
4. Juraeva, N. V. (2020). The Formal model of the grammar of the uzbek language. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 129-132.

5. Джураева, Л. В. (2020). Географияни ўқитиш жараёнида дидактик ўйинли дарслардан фойдаланиш йўллари. *Замонавий узлуксиз таълим сифатини ошириш*, 125-129.
6. Джураева, Л. В. (2020). География дарсларида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш. *Ўзбекистонда илм-фан ва таълим*, (5), 473-475.
7. Джураева, Л. В. (2020). География фанини ўқитишда локал ва хусусий методик даражада фойдаланиладиган технологиялар (интерфаол методлар методлар). *Интернаука*, 18(147), 54-56.

ТЕМУРБЕКЛАР МАКТАБИ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУХИДА ТАРБИЯЛАШ

Мирзахмедов Шерзод Махсудович
Низомий номидаги ТДПУ магистранти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада темурбеклар мактаби ўқувчиларини ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш технологияси ҳақида фикрлар илгари сурилган. давлат келажаги бўлган ёшларни юксак ахлоқий фазилатларга эга, инсонпарвар, жисмонан бақувват, ватанни севадиган, ҳарбий билимга эга, миллий ғурур руҳида тарбиялаш бугунги куннинг энг долзарб масаласи эканлиги ҳамага маълум. Ушбу мақоладан тегишли соҳа вакиллари фойдаланишлари мумкин.

Калит сўзлар: Темурбеклар мактаби, темур тузуклари, ватанпарвар шахс, тарбия, маърифат, тараққиёт

EDUCATION OF TEMURBEK SCHOOL STUDENTS IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM

Mirzakhmedov Sherzod Maxsudovich
Master of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

ABSTRACT

This article puts forward ideas about the technology of educating students of the Temurbek school in the spirit of military patriotism. It is well known that the most pressing issue today is to educate young people who are the future of the state in the spirit of high moral qualities, humane, physically strong, patriotic, military-educated, national pride. This article can be used by relevant industry representatives.

Keywords: Temurbek school, Temur's rules, patriotic personality, upbringing, enlightenment, development

КИРИШ

Ўзбекистонда миллий давлатчиликни барпо этиш жараёни том маънода мустақиллик натижасидагина ўз мақомига эга бўлди ва сиёсий-ҳуқуқий амалиётда ўз ифодасини топди. Уни мустаҳкамлашнинг ҳар бир йили ўз кадрига кўра жамият сиёсий-ҳуқуқий, ижтимоий ва маданий тараққиётининг ортга қайтариб бўлмас жараёнига айланди. Сўнгги йилларида мамлакатимизда ватанпарварлик тарбияси ва тарғиботига муносабат тубдан ўзгарди. Ватанпарварликни тарғиб

қилишнинг самарали механизмлари ишлаб чиқилди, бу борада техник ва технологик воситаларнинг имкониятларидан тўлақонли фойдаланиш тизими йўлга қўйилди. Амалга оширилаётган чуқур ўзгаришлар натижасида Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси жамиятимизнинг ажралмас бир қисмига, мамлакатимиз барқарорлиги ва тараққиётининг кафолатига, ҳарбий хизматчилар ва ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг муҳим институтига айланмоқда, - десак муболаға бўлмайди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев, “Маълумки, тарихда халқимиз орасидан кўплаб буюк саркардалар етишиб чиққан. Ана шундай мард ва фидойи аждодларимизнинг ҳарбий соҳадаги бой мероси, мардлик ва жасурлик фазилатлари ёшларимиз учун ибрат мактаби бўлиб хизмат қилади. Айниқса, Соҳибқирон Амир Темур бобомиздек – у зот биронта жангда мағлуб бўлмаган – енгилмас саркарда ва давлат арбоби жаҳон тарихида камдан-кам топилади. Ўз яқинлари, замондошлари бу улуғ сиймони Темурбек деб атаган эканлар”¹, - дея таъкидлаб, ҳозирда юртимизда ёшларга ҳарбий таълим- тарбия берадиган курсантлар мактабларига “Темурбеклар мактаби” деб ном берилишини таклиф этган эдилар.

Айниқса, ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялашга доир ишлар самарадорлигини ошириш ва фаоллаштириш, бу борадаги таълим-тарбиявий ишларга мамлакатимиз фуқароларини, давлат ва нодавлат нотижорат ташкилотларини ҳамда фуқаролик жамиятининг бошқа институтларини янада фаол жалб этиш ва ёшлар онгига ва- танпарварлик, мардлик туйғуларини сингдириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 23 февралдаги № 140-сон “Ёшларни ҳарбий- ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”²ги Қарорининг қабул қилиниши бу борадаги энг муҳим қадамлардан бири бўлди.

Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тизимида хизмат ўтаётган ҳарбий хизматчиларга, Ҳарбий-техник институтида таҳсил олаётган курсантларга, “Темурбеклар мактаби”да таълим олаётган ёшларга ватанпарварлик дарсларидан сабоқ беришда, уларнинг ҳарбий маҳоратини ва жанговар тайёргарлигини мунтазам ошириб боришда буюк Соҳибқирон Амир Темурнинг ҳарбий бошқарувини ва ватанпарварлик жасоратини миллий истиқлол мафкураси

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. –Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – Б.534.

² “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 23 февралдаги 140-сон қарори (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 23.02.2018 й., 09/18/140/0816-сон; 24.03.2020 й., 09/20/179/0350-сон)

талабларидан келиб чиққан ҳолда ўрганиш энг муҳим масалалардан бири бўлиб қолмоқда.

МУҲОКАМА

Амир Темур ёшларга ҳуқуқий тарбия бериш ғояларини назарда тутиб ўз “Тузуқлари”да давлатни ҳуқуқий асосда идора қилишда ёшларнинг ахлоқий тарбияси каби бунда ҳам ўн икки қоидага асосланиш зарурлигини таъкидлайди. “Энди менинг номдор бахтиёр фарзандларим ва мамлакатларни забт этгувчи иқтидорли набираларимга йўл-йўриғим шуки, мен ўн икки нарсани ўзимга шиор қилиб олиб, салтанат мартабасига эришдим. Шу ўн икки нарса ёрдамида мамлакатларни забт этиб, салтанатимни бошқардим ва салтанат тахтига зебу зийнат бердим”, - деб ёзиб давлатга ва ундаги касб эгаларининг ҳар бир тоифасига мос келадиган давлатни ҳуқуқий бошқариш зарурлигини ва ёшларни шу йуналишда шакллантиришни тушунтирди.

Биринчиси, ислом дини ва шариат қоидаларига, қонунларига риоя қилишни талаб этганлигида эди. Яъни давлат ва халқ қонун асосида, шариат қоидалари негизида идора қилинишини таъкидлади. “Тузуқлари”да шундай деб ёзади: “Биринчиси давлат ва салтанатимга боғлаган менинг биринчи тузугим – Тангри таолонинг дини ва Муҳаммад Мустафонинг шариатига дунёда ривож бердим³.

Унинг давлатни ҳуқуқий асосда бошқариш ҳақидаги қарашларининг иккинчи муҳим қоидаси давлатнинг устунларини ташкил қилган турли табақалар ва тоифалар билан биргаликда бамаслаҳат иш кўриш сиёсатини юритишдан иборат бўлган. Темурнинг улуғлиги, донишмандлиги шундаки, у фақат армияга суяниб, зўрлик билан эмас, биринчи навбатда уларга таянган ҳолда давлатни бошқаришни⁴ ва вазирлари билан кенгашган ҳолда белгиланган қонун асосида муҳим ишларни олиб боришни насихат қилди. Соҳибқирон ўз ворисларига васият қилар экан, жамиятнинг турли табақаларга ва тоифаларга бўлинишини ва уларнинг тутган ўринлари қонун асосида баҳоланиши муҳим эканлигини, қонунсиз давлатни бошқариш мумкин эмаслигига ишора қилади ва бу борада, айниқса, ёшларга табақалар ўртасида келишув сиёсатини олиб бориш зарурлигини насихат қилади.

Учинчи қоидаси шариат қонунлари асосида, тадбиркорлик, ҳушёрлик ва эҳтиёткорлик билан бошқа давлатларни ўз салтанати таркибига қўшиб олишни васият қилганида эди. Амир Темур учун кенгаш билан қонун асоси- да иш кўриш, эҳтиёткорлик шиори бўлди. Ана шу ўз вақтида бошқалар билан маслаҳатлашиб

³Темур тузуқлари. Тиллабоев Р.А. Среднеазиатск ие географическ ие с очинения XV —XVI вв.как исторический источник (жития шейхов накшбандия):Афтореф.дис...док. ист. наук. — Т.:1994. — 54 с.

⁴ Бобоев Ҳ. Амир Темур ва унинг қарашлари. —Т.: Ўзбекистон, 1992.-80 б

олиш, уларнинг фикрини билиш ва ундан кейин қонун асосида хулоса қилиш, ҳатто ўз душманларини ҳам мурасага, тинч-тотувликка даъват қилиш ҳамма вақт ишнинг ўнгидан келишига, кўп сонли армияни кам сонли жангчилар билан енгиш имкониятларини беради⁵, деб тушунтирди.

Тўртинчи қоидасида, Соҳибқирон давлат ишларини давлат қонунлари асосида бошқарганлигини таъкидлайди. Қонунларга кўра вазирлар, амирлар, сипоҳ, раият ўз лавозимига кўра яшаши лозим деб айтади. Дарҳақиқат, Темурнинг ҳукмронлиги тўра ва тузукка, яъни давлат ва ҳуқуққа таянган ҳолда олиб борилди. Соҳибқироннинг ҳуқуқий тарбия бериш ҳақидаги қарашларининг бешинчиси, сипоҳийлар ва амирлар билан яхши муносабатда бўлиш, мартаба ва унвонларини ҳурмат қилиш тўғрисидаги васиятлари эди. Уларнинг ҳаётларидан хабардор бўлиб, тегишли дирҳам ва динорларини қонунга мос бериб туришни, шундан қонун устуворлиги учун амирлар давлатга жон дилдан хизмат қилишини айтган эди. Олтинчиси, инсоф ва адолат билан иш кўриш ҳақидаги насиҳати бўлиб, гуноҳкорга ҳам, бегуноҳга ҳам раҳм-шафқат бўлиши кераклигини талаб қилишидир⁶.

Еттинчиси, сайидлар, уламою машойих, оқилу донолар, муҳаддислар, тарихчиларни эътиборли шахслар, деб иззат ва ҳурмат қилишни васият этганлиги бўлди. Ёшлар учун улар билан суҳбатда бўлишни ва улардан маслаҳатлар сўрашни лозим ҳисоблаган. Аксинча, бузуқи–ғийбатчи одамларни мажлисга яқинлаштирмасликни, уларнинг гапларига қулоқ солмасликни тушунтирган.

Саккизинчиси, ёшларни азму жазм билан иш тутиш, яъни бирор ишни амалга оширишга қарор қилган бўлса, унга бутун вужуди билан киришиб, ниҳоясига етказиш нимаики деган бўлса, унга амал қилиш руҳида тарбиялаш ҳисобланди. “Одам Атодан Ҳотам ул-анбиёгача ўтган шохлар ва пайғамбарларнинг ишлари, қонун ва қоидалари билан қизиқиб, уларни ўрганиб, яхши жиҳатларини ўз ишида тадбиқ қилишга” уриниш бўлди. Шу орқали Амир Темур ўтмишдаги қонунларни, анъаналарни ёшлар унутмаслиги кераклигини таъкидлайди. Хулоса қилиб айтганда, Амир Темур ёшларга давлатнинг белгилари, байроқлари, ноғора – туғларига жиддий эътибор беришни тушунтиради. Уларни амирларга тақдим этиш қоидалари қатъий қилиб белгилаб қўйилиши зарурлигини таъкидлайди.

НАТИЖА

Биринчидан, Амир Темур элдаги маърифий-тарбия ишлари давлат томонидан идора қилиниши зарур деб ҳисоблади ва ҳар бир қишлоқда бошланғич таълим берувчи мактабларнинг ташкил қилиниши мамлакат ёшларининг ҳар бирини

⁵ Бобоев Ҳ. Ўзбекистонда XIV—XV асрларда сиёсий ва ҳуқуқий таълимотлар: 1993. — 260 б.

⁶ Кэранг Саидов А. Амир Темур ва Франция.-Т.: Адолат, 1996.- 886

саводли этишни амалга ошириш орқали халқнинг саводли, билимли бўлишини ташкил қилишга ҳаракат қилди.

Иккинчидан, Илмнинг ривожланишида турли соҳадаги китобларнинг аҳамияти катталигини назарда тутиб, китобни донишмандликнинг асоси ва ҳаётни ўргатувчи, инсонни тарбияловчи восита деб баҳолади. Комил инсонни шакллантиришда билим билан тарбияни ўзаро алоқада деб тушунган Амир Темур мамлакат ёшларининг тарбияланиб, камол топиши борасида ҳам ўз қарашларини баён этди.

ҲУЛОСА

Учинчидан, давлат келажаги бўлган ёшларни юксак ахлоқий фазилатларга эга, инсонпарвар, жисмонан бақувват, ватанни севадиган, ҳарбий билимга эга, миллий ғурур руҳида тарбияланган бўлишини, тарбиянинг асосий талабларидан деб билди. Унинг маърифий - тарбиявий фикрлари адолатли, ҳуқуқий давлат фуқароларининг ақл-билими, ахлоқи қандай бўлиши кераклигини кўрсатиб беришни ўз ичига олар эди. Бир сўз билан айтганда, Амир Темур даврида илм-фан, маданият гуллаб яшнади, бой маънавий қадриятлар яратилди. Булар Марказий Осиё минтақасидаги халқларининг маданий-маънавий тараққиётида асосий йўналишни белгилаб берди.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. –Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – Б.534
2. Бобоев Ҳ. Ўзбекистонда XIV—XV асрларда сиёсий ва ҳуқуқий таълимотлар: 1993. — 260 б.
3. Кэранг Саидов А. Амир Темур ва Франция.-Т.: Адолат, 1996.- 886

AQLI ZAIF O'QUVCHILARNI IJTIMOYIY MOSLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHAROITLARI

Boyto'rayeva D

Nizomiy nomidagi TDPU magistranti

ANNOTATSIYA

Aqli zaif bolalarni xayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun ularni ijtimoiy-maishiy xayotga moslashtirib borish zarur. Respublikamizda aqli zaif bolasi bor ota-onalarning savodxonligini, ularni ijtimoiy moslashtirish mexanizmini ishlab chiqish hozirgi kunda o'z yechimini kutayotgan muammolardan ekan, jamoatchilik tashkilotlari, mahallalar, imkoniyati cheklangan, alohida yordamga muhtoj bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi maxsus muassasalar o'z tashabbuslarini ko'rsatishlari lozim deb hisoblaymiz. Ushbu maqola mahallalarda, oilaviy shifoxonalarda ota-onalarga birlamchi korreksion-pedagogik ko'nikmani berishda shifokor, defektolog, psixolog yordamini tashkil etish alohida yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda zaruriy va muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: aqli zaif, moslashtirish, ijtimoiylashtirish, Autizm **yoki** Autistik, Asperger sindromi, tyutor, inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan, Daun sindromi, DEGS, disleksiya, bolalar serebral sholli

PEDAGOGICAL CONDITIONS OF SOCIAL ADAPTATION OF STUDENTS WITH DISABILITIES

Boyto'rayeva D

Master of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

ABSTRACT

In order for mentally retarded children to find their place in life, it is necessary to adapt them to social life. One of the problems facing the country today is the development of literacy of parents with mentally retarded children, the mechanism of their social adaptation, public organizations, communities, special institutions for the education of children with disabilities. We believe that they should show their initiative. This article is a necessary and important resource for the organization of the assistance of doctors, speech pathologists, psychologists in the provision of primary correctional and pedagogical skills to parents in neighborhoods, family hospitals, in the adaptation of children with special needs to social life.

Keywords: mental retardation, adaptation, socialization, Autism or Autistic, Asperger syndrome, tutor, inclusive education, disability, Down syndrome, DEGS, dyslexia, cerebral palsy in children

KIRISH

“Biz XXI asrda - IT-texnologiyalar juda rivojlangan va bolaning “aqlan zaif” yoki boshqa qandaydir bir rivojlanishdagi o‘ziga xosliklarini muhokama qilish emas, balki unga ko‘proq narsalarni berish va kuchli tomonlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo‘lgan davrda yashamoqdamiz. Ba’zida hatto “oddiy” odamlar nimadir qila oladi, nimanidir qila olmaydi. Bolaning imkoniyatlaridan kelib chiqish kerak!” - deb hisoblaydi mazkur soha mutaxassislari.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ota-ona - o‘z farzandining eksperti

«Biz ota-onalar sifatida farzandlarimizni - ularning kuchli va zaif tomonlarini yaxshi bilamiz. Biroq hech kim bizning fikrimizni so‘ramaydi. Hech kim bizga bolalarimiz uchun ishlab chiqilgan rejalar va o‘quv dasturlarini ko‘rsatmaydi. Ta’lim sohasi vakillari ko‘pincha bolani tarbiyalash va unga ta’lim berish to‘g‘ridan-to‘g‘ri oilaga - ota-onalar/vasiylar yoki qarindoshlarga bog‘liq deb ta’kidlashadi. Amaldorlarning bolalar rivojlanishida ota-onalarning o‘rni muhimligini ta’kidlashlariga qaramay, aslida juda kamchilik ularning fikri va ovozi inobatga oladi. Har bir ota-ona o‘z farzandining «mutaxassisi» ekanligini tan olish muhim hamda ular o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda bevosita jalb etilishi va bolalarining ehtiyojlarini o‘rganish bo‘yicha birgalikda tadqiqotlar o‘tkazishlari kerak. Xorijiy mamlakatlarda o‘zlarining manfaatlarini mustaqil ilgari sura olmaydigan va huquqlarini himoya qila olmaydigan nogironligi bo‘lgan bolalarning ota-onalari tashkilotlari faoliyati keng yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, butun Rossiya bo‘ylab o‘zining hududiy filiallariga ega bo‘lgan Butunrossiya nogiron bolalarning ota-onalari tashkiloti (VORDI) mavjud, VORDI ota-onalarni «bolalarining hayot sifatini yaxshilash uchun qonunchilik va amaliy o‘zgarishlarni harakatlantiruvchi kuch» deb hisoblaydi. Afsuski, O‘zbekistonda hanuzgacha ushbu yo‘nalish va miqyosda faol bo‘lgan bu kabi tashkilotlar yo‘q.

“Qoloqlik” emas, balki rivojlanishdagi o‘ziga xoslikdir

Autizm yoki autistik spektrning buzilishi (AASB) tashqi dunyo bilan aloqa qilishda va ijtimoiylashishda qiyinchiliklarga olib keladigan inson holati toifasiga kiradi. Buyuk Britaniyada AASBga ta’limdagi qiyinchiliklar (ingl. - learning disability) sifatida munosabatda bo‘linadi va ko‘pchilik uni «buzilish» emas, balki autistik spektr holati deb hisoblaydi. Autizmga diqqat yetishmovchiligi va giperfaollik sindromi (DEGS), tutqanoq, depressiya va boshqa buzilishlar hamrohlik qilishi mumkin. Bundan

tashqari, bolalar va kattalarda dislekiya - o'qish va yozish, ularni tushunishga qiynalish kuzatiladi. AASBning yengilroq, nutq va intellektual darajasi nisbatan rivojlangan shakllaridan biri Asperger sindromi deb ataladi. Bu nom 1943 yilda katta yoshli bolalardagi ushbu holatni tavsiflagan avstriyalik olim Gans Asperger sharafiga qo'yilgan. 16 yoshli [eko-aktivist](#) Greta Turnberg, 2010 yilda hayoti badiiy [film](#) sifatida suratga olingan amerikalik olim va yozuvchi Templ Grandin hamda butun dunyoga mashhur ko'plab iste'dodli rassomlar, bastakorlar, olimlar va siyosatchilar ham xuddi shu sindromga ega bo'lishgan.

MUHOKAMA

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti [ma'lumotlariga](#) ko'ra, autistik spektr buzilishi holati har 160 bolaning birida uchraydi va AASB bo'lgan bolalar soni geometrik progressiyada o'sib bormoqda. AQSHda bu muammo yetarlicha keng yoritilgan hamda Kasalliklarni nazorat qilish va profilaktika markazining [ma'lumotlari](#) shuni ko'rsatadiki, 2008 yilda 125 nafar bolaga bir nafar AASB bo'lgan bola to'g'ri kelgan bo'lsa, 2018 yilda allaqachon 59 boladan biriga autizm tashxisi qo'yilgan.

Rossiyada so'nggi besh yil ichida autizmi bor insonlar soni 2014 yilda ro'yxatga olingan 13897 kishidan 2018 yilda 31415 kishiga [ko'paydi](#). Afsuski, kam va o'rtacha daromadli mamlakatlarda xabardorlikning past darajada ekani, mutaxassislarning yetishmasligi, diagnostika vositalarining yo'qligi va daromadlarning o'rtacha darajada ekani tufayli autizmning tarqalganligi to'g'risida kamchilik biladi.

Na statistika, na mutaxassislar

O'zbekistonda rivojlanishda o'ziga xosliklari bo'lgan bolalarning turli xil toifalar (AASB, Daun sindromi, DEGS, disleksiya va boshqalar) bo'yicha aniq soni to'g'risidagi rasmiy statistik ma'lumotlar yo'q. Davlat statistika qo'mitasi 2000 yildan beri «jismoniy yoki aqliy rivojlanishida og'ish» bo'lgan o'quvchi-bolalar soni to'g'risida ba'zi ma'lumotlarni taqdim etib [kelmoqda](#). XTV rasmiy saytida «Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun» [bo'limi](#) mavjud, ammo u yerda bunday o'quvchilar soni to'g'risida ma'lumot yo'q. Faqatgina Sog'liqni saqlash vazirligiga yozma so'rov orqali biz 2013 yildan 2019 yilgacha bo'lgan davrda bolalar serebral sholligi (BSSH) bo'lgan bolalar haqidagi ba'zi ma'lumotlarni olishga muvaffaq bo'ldik xolos. Autizmi bor bolaning otasi va O'zbekistonda AASBga uchragan bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha ijtimoiy faol Farhod Ortiqboyevning [so'zlariga](#) ko'ra, autizmi bor 400 ga yaqin bola Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazida (RBIMM) ro'yxatga olingan bo'lib, ularning aksariyati Toshkentda istiqomat qiladi. Biroq shaxsan uning o'zi bunday bolalari bo'lgan 1000 dan ortiqroq oilalarni biladi.

Aslida ular soni ko'proq, ammo ota-onalar ko'pincha bolalarini yashirishadi. Eng asosiysi, bizda "autizm/autistik spektrning buzilishi" tashxisini qo'ya

oladigan mutaxassis deyarli yo‘q. Bunday mutaxassislarni barmoqlar bilan sanash mumkin! Viloyatlarda esa ota-onalar qayerga murojaat qilishni, qayerda to‘g‘ri tashxis qo‘yilishini va bu bilan qanday ishlash kerakligini bilishmaydi», - deydi XTV mutaxassisi Farhod Ortiqboyev. Yana bir muammo - odatiy maktablar sharoitida ta‘lim olishda qiynalayotgan o‘quvchilarni individual qo‘llab-quvvatlaydigan tyutorlarning (inglizcha tutor – “pedagog-murabbiy”) yetishmasligi. Ota-onalar bu muammoni o‘z moddiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal qilishga majbur. Hozirgi vaqtda rivojlanishda o‘ziga xosliklari bo‘lgan bolalar bilan ishlash tajribasiga ega defektologlar yoki psixologlar bu vazifani tijorat asosida amalga oshirmoqdalar.

NATIJA

“Tyutorlik lavozimi xodimlar shtat jadvaliga kiritilishi hamda ushbu lavozimga qabul qilinadigan mutaxassis rivojlanishda o‘ziga xoslikka ega bolalar bilan ishlash va ularning muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun sharoitlarni yaratish borasida ma‘lumotga ega bo‘lishi zarur. Ideal holatda tyutorlar pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida tayyorlanishi kerak, ammo bizda bu haqda gap-so‘z ham bo‘lgani yo‘q. Hozircha faqat Oliy ta‘lim vazirligi bilan fan o‘qituvchilari uchun inklyuziv ta‘lim bo‘yicha 24 soatlik dasturni joriy etish to‘g‘risida muzokaralar olib bordik, biroq bilishimcha bu dastur joriy etilgani yo‘q”, - deydi o‘zbekistonda tavallud topgan, hozirda Yangi Zelandiyaning Vaykato universiteti inklyuziv ta‘lim sohasida tadqiqot olib borayotgan Galina Nam. Afsuski, tyutor lavozimi umumiy maktablarni qo‘ying, hattoki umumta‘lim jarayoniga rivojlanishda o‘ziga xosligi bo‘lgan bolalar kiritilgan [tajriba](#) maktablarimizda ham ko‘zda tutilmagan. Galina Namning so‘zlariga ko‘ra, tyutor vazifasini odatda bolaning ota-onasi bajaradi, bu esa, so‘zsiz, ularning shusiz ham qiyin bo‘lgan hayotiga yanada murakkablashtiradi. Ota-onalar uchun qiyinchilik shundan iboratki, birinchidan ular juda charchashgan. Ikkinchidan, ular nafaqat farzandiga darslarni o‘zlashtirishga yordam beradilar, balki uni qolgan sinfdoshlaridan ham himoya qiladilar. Ayrim hollarda volontyor yoki amaliyotchi tyutor sifatida ish olib boradi. Bunday amaliyot Samarqandda joriy etildi, u yerda volontyorlar tyutorlikka taklif qilindi, Urganchda esa pedagogika OTMlari talabalari amaliyot o‘tash davrida tyutorlik bilan shug‘ullanishdi. «Buni vaqtinchalik qaror sifatida ko‘rish mumkin, biroq mening nazarimda, ushbu holatlarning hech birini ta‘lim olishga qiynaluvchi o‘quvchilarni samarali va barqaror individual qo‘llab-quvvatlash sifatida ayta olmaymiz», - deya xulosa chiqaradi Galina Nam.

Bizning maqsadimiz, bu - tayanch-harakat apparati, eshitish, va ko‘rish nuqsonlari bo‘lgan yoki rivojlanishda o‘ziga xosligi bo‘lgan barcha uchun inklyuziv jamiyat barpo etish va inklyuziv ta‘limni rivojlantirishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun nogironligi va rivojlanishda o‘ziga xosligi bo‘lgan bolalar imkoniyatlari

haqidagi qotib qolgan tushunchalarni (stereotiplarni) parchalash hamda jamiyatdagi mavjud to‘siqlarni buzib tashlash lozim. O‘zbekiston 2009 yilda imzolagan va haligacha ratifikatsiya qilmagan BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi [konvensiyasining](#) 24-moddasida “Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning ta’lim olish huquqini tan oladilar. Ushbu huquqni kamsitishsiz va teng imkoniyatlar asosida amalga oshirish uchun ishtirokchi davlatlar barcha darajalarda va butun hayoti davomidagi inklyuziv ta’limni ta’minlaydilar”, deb yozilgan. Nogironligi bo‘lgan bolalarni nogironligi sababli umumiy ta’lim tizimidan chiqarib bo‘lmaydi va ularning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda oqilona sharoitlar bilan ta’minlanishi kerak. O‘ziga xos ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar ko‘p hollarda aksariyat insonlardagi stereotip va noto‘g‘ri qarashlar, ta’lim olishi qiyin bo‘lgan bolalarni yaxshi bilmaslik, ularning real imkoniyatlari va kuchli tomonlarini inkor qilish kabi holatlar sababli ta’lim olmay qolishlarini e’tirof etadilar. Ularning ota-onalari o‘z farzandlarining sifatli va inklyuziv ta’lim olish huquqini qanday himoya qilishni bilmaydilar. Ayniqsa, mutasaddi vazirlik va tashkilotlar amaldorlari tomonidan noto‘g‘ri munosabat mavjud bo‘lgan bir vaqtda ta’lim va ijtimoiy himoya tizimlari qarshisida qo‘rquv his etadilar.

XULOSA

Ta’lim dasturlari va jarayonida jismoniy holati yoki rivojlanishdagi o‘ziga xosliklardan qat’i nazar, har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari hisobga olinishi lozim. Biz bolalarni nogironlik alomatlari bo‘yicha kamsitishimiz emas, balki ularga olishlari mumkin bo‘lgan har narsani berishimiz kerak. Ta’lim dasturini rivojlantirib, qamrovini oshirishni xohlar ekanmiz, «bitta dastur barcha uchun» tamoyilining allaqachon eskirgani va bugungi kun talablariga javob bermasligini tan olishimiz zarur. Buning uchun bolaning o‘ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda individual ta’lim dasturini shakllantirish lozim. «Inklyuziya ta’lim to‘g‘risidagi asosiy qonunda maktabgacha ta’limdan boshlab barcha huquqlar mustahkamlangan bo‘lsagina rivojlanishi mumkin. Aks holda barcha qonunosti hujjatlari “sandiqa chang bosib yotaveradi”. Ota-onalar o‘z farzandlarining qiziqishidan kelib chiqqan holda ularni ixtisoslashgan va umumta’lim maktablarida o‘qishlarini tanlash hamda umumta’lim maktablarida qonuniy huquqlari bo‘lgan maxsus sharoitlar yaratilishini talab qilish imkoniyatiga ega bo‘lsalar, o‘shandagina haqiqatdan ham yaxshi tomonga o‘zgarishlar boshlanadi!» - deydi «Buyuk kelajak» eksperti Odila Atabayeva.

2030-yilgacha O‘zbekiston xalq ta’limi tizimini rivojlantirish [konsepsiyasida](#) inklyuziv ta’lim dasturlari yetarlicha rivojlanmagani hamda moslashtirilgan umumta’lim dasturlarini ishlab chiqish, OTM dasturlarida inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash zarurligi qayd etilgan.

Shu munosabat bilan kadrlar taqchilligini hal qilish va inklyuziv ta'limning ajralmas qismi bo'lgan tyutor lavozimini rasman joriy etish maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 24-aprelda PF-5712-son [Farmoni](#) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y., 06/19/5712/3034-son)
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
3. Д.Нуркелдиева "Мактабгача олигопедагогика". Тошкент -2002
4. Мамедов К. Д., Пулатова П. М. "Олигофренопедагогика асослари". Педагогика Институтлари дефектология факультети талабалари учун ўқув қўлланма. - Тошкент.: "Ўқитувчи", 1994.
5. Гаврилушкина С.П. Воспитание и обучения умственно отсталых дошкольников. Москва. Просвещение.1995 г.
6. www.pedagog.uz
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/10/23/inclusive-education>

ПСИХИЧЕСКОЕ ВЫГОРАНИЕ КАК ФАКТОР СНИЖЕНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ СОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ПРЕКРАЩЕНИЯ СПОРТИВНОЙ КАРЬЕРЫ

Зотова Елена Алексеевна

Узбекский государственный университет физической культуры и спорта

Старший преподаватель

elektra.86@inbox.ru

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются вопросы психического выгорания в спортивной деятельности. Изучена взаимосвязь между воспринимаемым стрессом и психическим выгоранием у спортсменов, занимающихся индивидуальными и командными видами спорта. Проведенное исследование позволило установить психическое выгорание как следствие процесса хронического стресса. Эмпирическим путем также удалось установить положительную связь между стрессом и выгоранием. Исследование показало значительное выражение воспринимаемого стресса у спортсменов, занимающихся индивидуальными видами спорта, в отличие от командных, что связано с присутствием социального фактора в командных видах спорта. Так же и психическое выгорание, соответственно своим показателям, получило более широкое развитие у спортсменов индивидуальных видов спорта, в отличие от командных. Эмпирически было доказано, что психическое выгорание выражается в чувстве физической усталости, снижении уровня притязаний, сменяющейся в перспективе глубоким разочарованием, падением интереса к спортивной деятельности и прекращением спортивной карьеры. В работе даны некоторые рекомендации, которые могли бы позволить спортсмену поддерживать интерес к тренировочной и соревновательной деятельности, самосовершенствоваться и стремиться к сохранению своей спортивной карьеры.

Ключевые слова: психическое выгорание, эмоциональное выгорание, стресс, спортсмены, спортивная деятельность, обесценивание достижений, уровень притязаний.

ABSTRACT

The article deals with the issues of mental burnout in sports activities. The relationship between perceived stress and mental burnout among athletes involved in individual and team sports was studied. The study made it possible to establish mental burnout as a consequence of the process of chronic stress. Empirically, it has also been

possible to establish a positive relationship between stress and burnout. The study showed a significant expression of perceived stress among athletes involved in individual sports, as opposed to team sports, which is associated with the presence of a social factor in team sports. Likewise, mental burnout, according to its indicators, has received wider development among athletes in individual sports, as opposed to team sports. It has been empirically proven that mental burnout is expressed in a feeling of physical tiredness, a decrease in the level of claims, followed in the future by deep disappointment, a drop in interest in sports activities and the termination of a sports career. The work provides some recommendations that could allow an athlete to maintain an interest in training and competitive activities, improve himself and strive to maintain his sports career.

Key words: mental burnout, emotional burnout, stress, athletes, sports activity, devaluation of achievements, level of aspirations, descriptive research.

ВЕДЕНИЕ

Высокие физические и психические нагрузки, ориентация на достижение максимально высоких результатов, жесткая конкуренция соперников характеризует современный спорт высших достижений. Поэтому крайне важно уделять внимание влиянию психологических факторов на достижения спортсменов [1; 3; 6].

Musiqiy faoliyatning keyingi turlari - bu bolalar ijodi va bolalarning musiqiy ijodidir. Bunda bolalar ijodi ularning rasqga tushganlarida, qo'shiq kuylaganlarida musiqiy cholg'ularni chalganlarida namoyon bo'lsa, bolalarning musiqiy ijodi ulardan ijodkorlikni, improvizatsion ijodiy namunalarni va yaratuvchanlikni talab etadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida yoritib bermoqchi bo'lgan fikrlarim bugungi maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tilayotgan va o'rganilayotgan musiqa ta'limini bolalarga, ularni psixologiyasidan kelib chiqqan holda o'rgatishlik ayniqsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ta'lim jarayonida bo'ladigan kichik muammolar jumladan bolalarning qo'shiq kuylayotganidagi so'zlarni xato talaffuzi, ritmlarni his etmasligi, umuman musiqaga befarqlik kabilarni chetlab o'tmasdan ularga e'tibor qaratgan to'g'ri yechim topa olish bu albatta pedagogdan yuqori salohiyatni va tadbirkorlikni talab etadi. Zero osmoni musaffo elimizga shunday yuqori malakali va madaniyatli kadrlarning ko'payishi bu eng maqbul yo'l bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Музыкальное воспитание в детском саду/ mavzu yuzasidan materiallar.
2. Проблемы музыкального воспитания детей дошкольного возраста/ mavzu yuzasidan materiallar
3. Яфальян А.Ф./Учебное пособие для студентов педагогических вузов/Теория и методика музыкального воспитания в начальной школе// Современные наукоемкие технологии. – 2009.
4. Махкамова, Ш. Р. (2020). МУСИҚА ИЛМИ ВА ИСЛОМ ДИНИ: ТАЛҚИН МУАММОСИ. *Academic research in educational sciences*, (3).
5. Махкамова, Ш. Р., & Асадуллаева, М. А. (2020). «ВЕЛИКИЙ ШЁЛКОВЫЙ ПУТЬ»: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КУЛЬТУР ЗАПАДА И ВОСТОКА В КОНТЕКСТЕ ПРОБЛЕМЫ МОДЕРНИЗАЦИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Science and Education*, 1(Special Issue 4).

6. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). ХАЗРАТ НАВОЙНИНГ МУСИКИЙ ТАФАККУРИ. *Science and Education*, 1(Special Issue 4), 215-222.

REFERENCES

1. Музыкальное воспитание в детском саду/mavzu yuzasidan materiallar.
2. Проблемы музыкального воспитания детей дошкольного возраста/ mavzu yuzasidan materiallar
3. Яфальян А.Ф./Учебное пособие для студентов педагогических вузов/Теория и методика музыкального воспитания в начальной школе// Современные наукоемкие технологии. – 2009.
4. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). МУСИҚА ИЛМИ ВА ИСЛОМ ДИНИ: ТАЛҚИН МУАММОСИ. *Academic research in educational sciences*, (3).
5. Маҳкамова, Ш. Р., & Асадуллаева, М. А. (2020). «ВЕЛИКИЙ ШЁЛКОВЫЙ ПУТЬ»: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КУЛЬТУР ЗАПАДА И ВОСТОКА В КОНТЕКСТЕ ПРОБЛЕМЫ МОДЕРНИЗАЦИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Science and Education*, 1(Special Issue 4).
6. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). ХАЗРАТ НАВОЙНИНГ МУСИКИЙ ТАФАККУРИ. *Science and Education*, 1(Special Issue 4), 215-222.

МАТЕМАТИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ХАЛҚАРО БАҲОЛАШ ДАСТУРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Дилрабо Икромжоновна Абдукодирова
Тошкент шаҳар Яшнобод тумани 282-мактаб

АННОТАЦИЯ

Мақолада ҳозирги кунда математика фанини ўқитишда таълим сифатини оширишда, ўқувчиларнинг саводхонлигини оширишда, илм-фан соҳасини риволантиришда халқаро баҳолаш дастурларининг қўлланилиши ва аҳамияти ҳақида фикрлар баён этилган.

Калит сўзлар: таълим сифати, халқаро дастур, PISA, STEAM, TIMSS, халқаро баҳолаш дастурлари.

THE IMPORTANCE OF INTERNATIONAL EVALUATION PROGRAMS IN MATHEMATICS

Dilrabo Ikromjonovna Abdukodirova
Tashkent city, Yashnabad district, school 282

ABSTRACT

The article discusses the current application and importance of international assessment programs in improving the quality of mathematics teaching, improving student literacy, and advancing science.

Keywords: teaching quality, international guide, PISA, STEAM, TIMSS, international assessment guide.

КИРИШ

Ҳозирги даврда замонавий техника ва технологияларнинг ҳаётга кириб келиши инсон фаолиятида, ижтимоий онгида катта ўзгаришлар бўлишини тақозо этмоқда. Зеро, олам тўғрисида ва инсоннинг ҳаётда тутган ўрни тўғрисидаги тасавурлари ўзгармоқда, тафаккури ва оламни тушинишнинг янги усуллари шаклланмоқда, маънавий-амалий ўзлаштиришнинг янги воситалари ва усулларига ўтиш юз бермоқда.

2017-2021 йилларга мўлжалланган Ўзбекистонни ривожлантиришнинг ҳаракатлар стратегиясида ўқувчиларнинг функционал саводхонлигини ривожлантириш миллий тадбирлар режасига киритилган. Мактаб таълим сифатини яхшилашнинг асосий йўналтирувчи нуқтаси сифатида мактаб

ўқувчилари функционал саводхонлигини ривожлантириш уларнинг жамиятда фаол ишлаш, ўз тақдирини ўзи белгилаш, ўз-ўзини такомиллаштириш ҳамда ўзини-ўзи рўёбга чихариш қобилиятларини талаб қилади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

2020 йил 7 майда Президентимизнинг “Математика соҳасидаги таълим сифатини ошириш ва илмий тадқиқотларни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4708-сонли қарори қабул қилинди. Мазкур қарорнинг мазмун-моҳияти шундан иборатки, унда мамлакатимиз илм-фан соҳасидаги тараққиётининг устувор йўналиши сифатида математика фанини ривожлантиришга алоҳида аҳамият берилган.

Таълим сифатини ошириш учун унинг ҳолати ва ривожланиш тенденцияларини узлуксиз мониторингини олиб бориш ва ўқувчиларнинг ўқув ютуқларини объектив ва адекват баҳолашни амалга ошириш зарур. Бу айниқса, ўқувчиларнинг кейинги шахсий ва фуқаролик ривожланиши учун замин яратадиган умумий ўрта таълим даражасида муҳим аҳамиятга эга. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 декабрдаги 997-сон “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори билан халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш, халқаро алоқаларни ўрнатиш, ўқувчи ёшларнинг илмий-тадқиқот ва инновация фаолиятини, энг аввало, ёш авлоднинг ижодий ғоялари ва ижодкорлигини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ҳамда рағбатлантириш мақсадида қабул қилинди.

PISA (Programme for International Student Assessment) Ўқувчилар билимини баҳолаш халқаро дастури, 15 ёшли болаларнинг математика, табиий фанлар ва она тилидан ҳаётий кўникмаларни эгаллаганлигини ўрганишга қаратилган тадқиқот, TIMSS математика ва табиий фанлар бўйича 4- ва 8- синф ўқувчилари ўқув ютуқларини баҳолаш, STEAM - фанлараро интеграция ёндашувга асосланган ўқитувчи ва ўқувчининг ҳамкорликдаги фаолияти каби халқаро баҳолаш дастурлари асосида математика фанига оид билимларни баҳолашни йўлга қўйилган.

МУҲОКАМА

Ҳозирги кунда мутахассисларимиз томонидан халқаро баҳолаш дастурларини таълим жараёнига жорий этиш бўйича тизимли мониторинг олиб бориш учун, ушбу соҳадаги илғор тажрибани оммалаштириш ва унинг асосида таълим муассасалари учун тавсиялар ва қўлланмалар ишлаб чиқишда иштирок этишмоқда. Ўқитишнинг инновацион усулларидан фойдаланган ҳолда математика

ва табиий йўналишдаги фанлар бўйича педагог кадрларнинг малакасини ошириш бўйича ўқув-услубий тавсиялар тайёрлашмоқда.

Юқоридаги талабларнинг таълим тизими учун жуда муҳим эканлиги, аксарият хорижий давлатлардаги каби таълим ва фан соҳалари ривожланишини баҳолаш ва мониторинг қилиш орқали таълим сифатини оширишга қаратилган илғор тажрибаларни соҳага жалб қилиш кераклигини англатади. Математик усул ва моделлар амалий ҳаётнинг барча жабҳаларига ҳар қачонгидан ҳам кўпроқ тадбиқ этилиб, аниқ математик ечимлар асносида тараққиётнинг турлича эҳтимолий кўринишлари синовдан ўтказилмоқда. Натижада математиканинг бошқа фанлар билан ўзаро алоқадорлиги ўсиб, математик моделлаш асосида фанлараро ёндашув замонавий таълимнинг барқарор хусусиятларидан бирига айланиб қолди.

Таълим сифатини ошириш учун унинг ҳолати ва ривожланиш тенденцияларини узлуксиз мониторингини олиб бориш ва ўқувчиларнинг ўқув ютуқларини объектив ва адекват баҳолашни амалга ошириш зарур. Бу айниқса, ўқувчиларнинг кейинги шахсий ва фуқаролик ривожланиши учун замин яратадиган умумий ўрта таълим даражасида муҳим аҳамиятга эга. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 декабрдаги 997-сон “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори билан халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш, халқаро алоқаларни ўрнатиш, ўқувчи ёшларнинг илмий-тадқиқот ва инновация фаолиятини, энг аввало, ёш авлоднинг ижодий ғоялари ва ижодкорлигини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ҳамда рағбатлантириш мақсадида қабул қилинди.

НАТИЖА

Амалиёт шуни кўрсатадики, ўқувчилар қуйи синфларда математика фанини ўргана бошлаганларида дарсда ўргатиладиган дастлабки мавзуларга қизиқиш кўрсатадилар, ўқитувчининг саволларини муҳокама қилишда фаол иштирок этишади. Бироқ, вақт ўтган сари математикага ҳали ҳам иштиёкли бўлган 1-2-гина ўқувчи қолади. Ўқитувчиларнинг иш услубларининг бир хиллиги ўқувчилар орасида қизиқишнинг пасайишига олиб келади. Халқаро тадқиқотлар натижалари ва таҳлилларидан келиб чиқиб, ўқувчиларнинг математик саводхонлигини ривожлантириш учун уларнинг билим ва кўникмаларига қуйидаги талабларни қўйиш мумкин:

- ✓ математикага оид таърифлар, формулалар ва бошқа фактларни ўқув ва маълумотномалардан қидириш ва фойдаланиш;
- ✓ маълумотларни тўплаш, таҳлил қилиш, қайта ишлаш, синтез қилиш;

✓ математик формуладан фойдаланиш, муайян хусусий ҳолларни умумлаштириш асосида миқдорлар орасидаги боғлиқликни ифодаловчи формулаларини мустақил равишда тузиш;

✓ математик матн билан ишлаш (таҳлилқилиш ва керакли маълумотларни чиҳариб олиш), ўз фикрини математик атамалар, тимсоллар ва рамзлар ёрдамида аниқ ва тўғри ёзиш ҳамда оғзаки ва ёзма изҳор қила олиш;

✓ амалий характердаги ҳаётий масалаларни ечиш, зарур ҳолларда уларни ечишда керакли маълумотномалар ва ҳисоблаш воситаларини қўллай олишда фойдаланиш мумкин. Илмда замонавий математика, шунингдек, минг йиллардан буён ечимини кутиб турган муаммоларимиз жуда кўп. Уларни ечиш учун биз етук математик кадрларни мунтазам тайёрлашимиз керак.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида шуни айтиш лозимки, мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотлар натижасида улкан иқтисодий ўсиш кўрсаткичларига эришилаётганлиги барча соҳаларда малакали кадрлар ва етук мутахассиларга бўлган талабни янада оширмоқда. Бу ўз-ўзидан ўқувчиларимизнинг дарсларга қизиқиш хусусиятини ошириш ва ўқитувчиларнинг ҳар томонлама таълим тарбияга эътиборини кучайтиришни талаб этади.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7-февралдаги “2017-2021 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ 4947- сонли фармони.
2. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 декабрдаги “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 997-сонли қарори.
3. uzedu.uz – Халқ таълими вазирлигининг расмий веб сайти.
4. ziyonet.uz – Таълим тармоғи портали.

EKSTREMAL VAZIYATLARDA AHOLIGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING IJTIMOIIY – PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Shavkatova Shahnoza Po'lot qizi

Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakulteti talabasi

Shahnozashavkatova20@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola bugungi kunda va kelgusida ekstremal vaziyatlarda aholiga psixologik xizmat ko'rsatishning ijtimoiy - psixologik xususiyatlari to'g'risida fikr yuritiladi. Favqulotda vaziyatlar yuzaga kelganda, xavotirlanish va stress holatlarida to'g'ri psixologik xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish, shaxsdagi keragidan ortiq asabiylashish, bezovtalik, qo'rquv kabi ruhiy kechinmalarni oldindan bartaraf etish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ekstremal psixologiya insonning muhit o'zgargan shart- sharoitlarda psixik faoliyatning kechishi qonuniyatlarini o'rganadi hamda ekstremal sharoitlarda insonga bir qancha ta'sir ko'rsatadigan omillar masala; monotoniya, makon o'zgarishi, xavf omillar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: ekstremal, monotoniya, xavf, izolatsiya, ruhiy stress, ruhiy reaksiya, aqliy reaptaptatsiya, ontogenez, analizator, kompensator, psixogen omillar, streotip, alkaloz.

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN EXTREME SITUATIONS

Shavkatova Shahnoza Po'lot kizi

Student of Bukhara State University, Faculty of Pedagogy

Shahnozashavkatova20@gmail.com

ABSTRACT

This article discusses the socio-psychological features of psychological services to the population in today's and future extreme situations. Information on how to provide proper psychological care in case of emergencies, anxiety and stress, and how to prevent mental experiences such as excessive nervousness, anxiety, and fear in a person. listed. Extreme psychology studies the laws of mental activity in a changing environment, and a number of factors that affect a person in extreme conditions; monotony, spatial change, risk factors are studied.

Keywords: extreme, monotony, danger, isolation, mental stress, mental reaction, mental rehabilitation, ontogeny, analyzer, compensator, psychogenic factors, stereotype, alkalosis

KIRISH

Ma'lumki, yangi jamiyatni qurish jarayonida uning barcha tashkil qiluvchi tomonlarini birdek o'rganib, yagona maqsad sari harakat qilishimiz mamlakatimizga nisbatan yuksak e'tirofimizni namoyon qiladi. Bugungi tez o'zgaruvchan ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotda inson turli vaziyatlarga duch keladi. Umrimiz davomida qiyinchiliklar, tashqi va ichki to'siqlar va zo'riqish, og'ir ruhiy zarbalar kabi dolzarb muammolarga ko'p duch kelamiz. Bunday vaziyatlarda insonlar tushkunlikka tushishi, asabiylashishi, stress, depressiya holatlariga tushib qolish ehtimoli yuqori. Ekstremal vaziyatlarni o'rganish va ularga yechim izlashning muhimlik darajasi juda yuqori. Bu holat ayniqsa, yoshlar orasida avjli pallaga aylanib bormoqda. Mana shunday holatning oldini olish, aholiga ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat ko'rsatishning ahamiyati salmoqlikdir. Sababi ruhiyati sog'lom bo'lgan inson ham jismonan ham ma'nau barkamol inson bo'lib yetishadi.

EKSTREMAL PSIXOLOGIYA - bu insonning muhit o'zgargan shart- sharoitlarda psixik faoliyatning kechishi qonuniyatlarini o'rganadi. Ekstremal sharoitlarda insonga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, monotoniya, makon o'zgarishi, xavf omilari, vaqt, shaxsiy ahamiyatga molik axborotning o'zgarishi, yolg'izlik, guruhiy izolatsiya va hayotiy xavf. Bunday ekstremal sharoitga inson moslashuvining biologik vazifasi, ekstremal sharoitda *kuzatiladi (kosmos, arktika, yong'in sharoitlar uchun va hokazo)*.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Muvaffaqiyatli psixologik himoya shaxsdagi keragidan ortiq asabiylilik, hissiy zo'riqish va bezovtalik bilan bog'liq barcha kechinmalarni oldindan bartaraf etishga erishishi tushnilsa, muvaffaqiyatsiz psixologik himoyada esa mazkur kechinmalarning shaxs faoliyatiga ya'ni faolligiga mudom salbiy ta'siri tugallanmaganligi” (SH.R.BAROTOV) Ilm fan tarqqiy etib borayotgan bir davrda insonlar ongining rivojlanish ko'lamini ham ortib bormoqda. Lekin bu bilan aholi o'rtasida muammoli vaziyatlar uchramayapti degani emas. Aksincha, davrning zamonaviylashishi, inson turmush tarzining yangilanishi ruhiy holatlarda ham keskin ijobiy va salbiy o'zgarishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Shu sababli bugungi kunda zamonaviy psixologiyaning bir bo'laki bo'lmish ekstremal psixologiya sohasi va uning ahamiyati to'g'risida mulohaza chiqarish muhim hisoblanadi. Ekstremal vaziyatlarni o'rganish va bunda aholiga to'g'ri psixologik xizmat ko'rsatishda bir qancha ilmiy izlanishlar va

amaliy ko'nikmalar amalga oshirilmoqda. Ekstremal psixologiya sohasida Drujinin "eksperimentalnaya psixologiya" asarida, Zigmon Freyd ham o'z asarlarida eksperimental psixologiyasi sohasini o'rganib, ilmiy nuqtai nazardan tadqiq qilganlar. Ularning asarlari bugungi kunda ham bu sohani o'rganishda asosiy poydevor hisoblanadi. Taniqli psixolog olim ZIGMUND FREYD quyifagicha fikr bildirgan: "Insoniyat mavjudligi turli vaziyatlarda vujudga kelgan qo'rquv va xavotirlar bilan kurashishi orqali xarakterlanadi". Ekstremal vaziyatlarda aholiga psixologik xizmat ko'rsatishda bir qancha metodikalardan foydalanilmoqda. Bulardan Agressiya shakllari va ularning ko'rsatkichlarini diagnostika qilish metodikasi (A. Bass va I. Dark), Agressiyani diagnostika qilish (A. Asinger) metodikasi, Bezovtalikni aniqlash darajasi (Teylor, T.A. Nemchinov) metodikasi, Depressiv holatlarni differensial diagnostika qilish (V. Zunga) metodikasi, Reaktiv va shaxsiy xavotirlik shkalasini o'rganuvchi (CH.D. Spilberg va Yu. L. Xanin) metodikalari bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan.

Ekstremal vaziyatlarda yordam ko'rsatishda va ularning darajalarini aniqlashda bu metodikalar samaralidir.

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqotlarni o'rganish natijasida shaxslarning emotsional-motivatsion sohasi va funksional holatlari psixodinamikasi o'rganildi hamda aholiga nazarda tutilgan to'g'ri psixologik xizmat ko'rsatildi. Spilberg va Xanin tomonidan ishlab chiqilgan xavotirlanish darajasining va shaxslik xavotirlanish darajasini o'z-o'zini baholash orqali aniqlashga qaratilgan mukammal testlardan foydalanildi. Bunda o'z-o'zini baholash shkalasi 2 qismdan iborat, vaziyat (reaktiv, Rx-1-20) va shaxslilik (SHx-21-40 gacha bo'lgan savollar) xavotirlanishni aniqlashga qaratiladi. Natijalarni tahlil qilish tartibi quyidagi formula orqali hisoblanadi.

$$RX = E1 - E2 + 35$$

E1 javob varaqasida 3,4,6,7,9,12,13,14,17,18-belgilangan bandlar,

E2 javob varaqasida 1,2,5,8,10,11,15,16,19,20-belgilangan umumiy bandlar

$$SHX = E1 - E2 + 35$$

E1 javob varaqasidagi 22, 23, 24, 25, 28, 29, 31, 32, 34, 35, 37, 38, 40 – belgilangan bandlar

E2 javob varaqasidagi 21,26,27, 30, 33, 36, 39- belgilangan bandlar soni.

Ballar: Yo'q bunday emas -1 ball. Shunday bo'lsa kerak- 2ball. To'g'ri - 3ball. Juda to'g'ri- 4ball. Natijalarni ballarda baholash: 30 ballgacha - Past 31-45 ballgacha - O'rtacha 46 ballgacha va undan yuqori – Kuchli xavotirli daraja

Ekstremal sharoitlarda odamning asosiy psixologik reaksiyalari ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin.

Ijobiy	Salbiy
Psixologik imkoniyatlarni safarbar qilish	Xavotir, ishonchsizlik, xavotirning namoyon bo'lishi
Ishbilarmonlik motivlari, burch, mas'uliyatni faollashtirish	O'zini himoya qilish hissiyotlarini keskinlashtirish
Ishbilarmonlik hayajonining paydo bo'lishi	Qo'rquvning paydo bo'lishi, sabab va o'zi uchun qo'rquv
Hayajonlanish, quvonch yoki nafrat paydo bo'lishi	Chalkashlikning namoyon bo'lishi (ko'ngilsizlik, uyqusizlik, ahmoqlik)
Kognitiv faoliyatni faollashtirish va optimallashtirish	Nima bo'layotganini noto'g'ri tushunish, kognitiv faoliyatni tashkil qilish
Ijodiy imkoniyatlarni aktuallashtirish	Amaliy ko'nikmalarni yo'q qilish, ishdagi xatolarning paydo bo'lishi
Qat'iy va dadil harakatlarga tayyorgarlikni oshirish	Safarbarlikning etishmasligi, harakatlardagi nomuvofiqlik namoyishi
Chidamlilik, oddiylilik	O'z-o'zini boshqarishni yo'qotish, vahima harakatlari
Sensatsiyalar chegaralarini pasaytirish, reaksiyalarni tezlashtirish	Zaiflik, charchoq, haddan tashqari charchoq hissi
Charchoqning pasayishi, charchoq hissi yo'qolishi	O'tkir psixozlar

Ekstremal sharoitlarga moslashish jarayonida hissiy holatlarning o'zgarishi va g'ayritabiiy ruhiy hodisalarning paydo bo'lishi bilan tavsiflangan quyidagi bosqichlarni ajratish odatiy holdir: tayyorgarlik, boshlang'ich ruhiy stress, kirishning o'tkir ruhiy reaksiyalari, aqliy reaptaptatsiya, yakuniy ruhiy stress, chiqish va qayta moslashishning o'tkir ruhiy reaksiyalari. G'ayrioddiy ruhiy holatlarning genezisida oldindan aniq ma'lumot noaniqligi holatida (ruhiy stressni boshlash bosqichi va yakuniy bosqich) aniqlanadi; ontogenez jarayonida hosil bo'lgan analizatorlarning funktsional tizimlarini buzish yoki ekstremal sharoitlarda uzoq vaqt qolish, ruhiy jarayonlar buzilishi va munosabatlar va munosabatlar tizimidagi o'zgarishlar (kirish va chiqishning o'tkir ruhiy

reaktsiyalari bosqichi), shaxsning ta'siriga javoban himoya (kompensator) reaksiyalarni ishlab chiqish bo'yicha faol faoliyati psixogen omillar (o'qishga moslashish bosqichi) yoki javobning avvalgi stereotiplarini tiklash (o'qish bosqichi).

NATIJA

Favqulotda vaziyatlar yuzaga kelganda tabiiyki, insonda xavotirlanish va stress holatlari kuzatiladi. Xavotirda sezgi bir tomondan qaraganda bizni xavfdan ogohlantiruvchi signaldir. Boshqa tomondan xavotirlanish bizni o'ylantirib, mehnat foliyatimizga halal berib, faoliyatdan mahrum qilishi ham mumkin. Qo'rquv holati. Quyidagi omillar qo'rquv paydo bo'lishining eng keng tarqalgan sabablari deb hisoblanadi: sub'ektning o'zi va yaqinlari uchun engib bo'lmaydigan xavfni his qilishi, yaqinlashib kelayotgan qobiliyatsizlik hissi, o'zining ojizligi hissi, uning oldida himoyasizligi. Odanda qo'rquvni keltirib chiqaradigan umumiy sabablardan biri bu ham jismoniy og'riq va uning hayoti va sog'lig'i uchun u bilan bog'liq bo'lgan salbiy oqibatlaridir. Og'riq sabab bo'lishi mumkin jismoniy azob ularni qo'rquv yanada kuchaytiradi. Og'riq, azob-uqubat, qo'rquv, shu bilan ma'lum bir barqaror hissiy simptom majmuasini yaratadi. Aynan shu omillar ekstremal vaziyatlarga hamroh bo'ladi. Tashqi, xulq-atvor namoyon bo'lishi, kuchli qo'rquvning o'ziga xos ko'rsatkichlari quyidagilardir: qo'rqinchli yuz ifodasi (keng ochilgan ko'zlar, qoshlar ko'tarilgan, qoshlarning ichki burchaklari siljigan, peshonadagi gorizont al ajinlar, ochiq, elliptik og'iz, tarang lablar). Xavotirdagi eng azob beradigan narsa bu , o'zini erkin tuta olmaslik, osoyishtalik yo'qligi , muskullarning taranglashishi, bir fikrning miyada tinmay aylanaverishidir. Xavotirlanishda qon bosimi va tana harorati pasayadi, kapillarlarning qon bilan to'lishi va alkaloz kuzatiladi, oshqozon - ichak sistemasida funksional o'zgarishlar paydo bo'ladi, qonda qand miqdori kamayadi. Aslida mavjud bo'lmagan vahimali allaqanday nimadandir qo'rqib yashashlik insonni mutlaqo juda qiyin ahvolga solib qo'yadi. Har narsaga shubha bilan qaraydigan, yo'q joydan o'zi uchun muammo o'ylab chiqaradigan qilib qo'yadi. **“Qo'rqyapsanmi - bajarma , bajaryapsanmi - qo'rqma, bajarib bo'dingmi afsuslanma”** (CHINGIZXON) STRESS: inson organizmining haddan tashqari zo'riqishi , salbiy emotsiyalar yoki oddiygina zerikishga bo'lgan javob reaksiyasidir. Kichik miqdordagi stress hamma uchun kerak, chunki bu kishini fikrlashga, muammodan chiqish yo'lini topishga undaydi. Agar stress juda ko'p bo'lsa , tana zaiflashadi , kuchsizlashadi va muammolarni hal qilish qobiliyatini yo'qotadi. **“Jamiyatimizning qiyofasi o'zgarib bormoqda . Demokratik va ma'naviy qadriyatlar mustahkamlanmoqda. Tabiiyki, odamlar ham o'zgarmoqda. Respublika fuqarolari mustabid tuzum merosidan, boqimandalikning ruhiy kishandalaridan xalos bo'lib, ularda xo'jayinlik va mulkdorlik tuyg'usi , ozod va fundamentalism va radikalizmni tamomila rad etish**

ishtiyiqi tobora yaqqol namoyon qiladi”. (ISLOM ABDUG’ANIYEVICH KARIMOV). Stressni o’rganadigan bo’lsak, stress holatlarini kamaytirishda bir qancha usullar mavjud. Avvalo inson stress holatiga berilib ketmasligimiz, unga bo’ysinib qolmasligi kerak. Inson stress holatiga tushganini sezganda fiziologik jarayonlarini nazorat qilishi lozim. Qon aylanish sistemasi faoliyati va nafas olish sistemasi ishini normallashtirish uchun chuqur va to’laqonli nafas harakatlarini amalga oshirishimiz lozim, bu bilan organizmga kislorod almashinuvini yaxshilab yurakka kislorodning to’g’ri yetib borishini ta’minlaymiz, qolgan a’zolarimizdagi vaziyatlar ham o’z o’rniga qaytadi. Burun bilan chuqur nafas olib, chiqarishda esa og’iz orqali sekinlik bilan chiqarish lozim. Bundan tashqari ovqatlanayotganimizda yegulikni sekin va kam-kamda iste’mol qilishimiz lozim. Tabobatda esa zo’riqish, charchoq va tashvishlanishga qarshi vosita melissadan tayyorlangan choydan iste’mol qilish tavsiya etiladi. Ushbu choy uyqusizlik va depressiyada ham foydalaniladi.

XULOSA

Shunday qilib, ekstremal va favqulodda vaziyatlar inson hayotining barcha sohalarida sodir bo’ladi. Har bir inson hayoti davomida o’zi uchun o’ta og’ir bo’lgan bir qator vaziyatlarga ega. Shuning uchun har kim favqulodda vaziyatda zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va ko’nikmalarga muhtoj. Mamlakatimizning yuksalishi yoshlarning qo’lida ekan, biz ularning ham jismonan ham ruhan sog’lom bo’lib kamolga yetishlariga alohida e’tibor berishimiz kerak. Nafaqat yoshlarga balki, barcha aholiga ekstremal vaziyatlarda muammoning to’g’ri yechimini topishlarida ko’maklashishimiz va ularni ruhan pok inson bo’lishlarida bir vosita bo’lmog’imiz lozim. Bizning izlanishlarimiz va tadqiqodlarimizning negizida ham shu maqsad yotadi.

REFERENCES

1. Drujinin V.M “Eksperimentalnaya psixologiya”. Piter. 2001y.
2. Barotov Sh.R. “ Mehnat jarayoni va ijtimoiy ruhiy jihatlar ” // Iqtisod va hisobot. – Toshkent, 1997.
3. Karimov.I.A. “Barkamol avlod orzusi. – T”. : “O’zbekiston “- 2000
4. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” - Karimov.I.A - 2008
- 5."Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak" Sh.Mirziyoyev . 2017-yil 31-yanvar.T:2017
6. Yoshlarning ijtimoiy psixologik muammolari, sabab va yechimlari. Maqolalar to’plami. Toshkent 2020
7. <http://www.Psixologiya.uz>

ABDURAHMON TAMKINNING ADABIY MEROSI VA ILMIY ASARLARI**Choriyeva Mehninoz Qiyomiddinovna**

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab, ijod etgan sermahsul ijod namoyandasi, zabardast shoir va zamonasining peshqadam olimlaridan biri Abdurahmon Tamkinning hayoti hamda adabiy merosi haqidadir A.Tamkindan juda boy adabiy meros qolgan. Bular: “Devoni qasoid-u g’azaliyot”, “Ganji shoygon”, “Ruboiyot”, “Jaroid”, “Mo’liston”, “Matole’ ul-foxira va matolib uz-zahira”. Yana shoirning ayrim she’rlari o’sha davrda yaratilgan tazkira va bayozlardan o’rin olgan.

Kalit so'zlar: Abdurahmon Tamkin, XIX asr oxiri, XX asr boshlari, tazkiralari, Mulla Abduxoliq, “Devoni qasoid-u g’azaliyot”, “Ganji shoygon”, “Ruboiyot”, “Jaroid”, “Mo’liston”.

LITERARY HERITAGE AND SCIENTIFIC WORKS OF ABDURAHMAN TAMKIN**Chorieva Mehninoz Kiyomiddinovna**

Independent researcher at Bukhara State University

ABSTRACT

This article is about a prolific writer, poet and pioneer of the late 19th and early 20th centuries. One of the scholars is about the life and literary heritage of Abdurahmon Tamkin. A. Tamkin left a very rich literary heritage. These are: "Devoni Qasoid-u Ghazaliyot", "Ganji Shoygon", "Ruboiyot", "Jaroid", "Moliston", "Matole 'ul-fohira and matolib uz-zahira". Some of the poet's poems are from tazkira and bayoz created at that time.

Keywords: Abdurahmon Tamkin, end of XIX century, beginning of XX century, Mulla Abdukholiq, “Devoni qasoid-u ghazaliyot”, “Ganji shoygon”, “Ruboiyot”, “Jaroid”, “Moliston”.

KIRISH

Tamkinning adabiy merosi boy va sermahsuldir. U barcha janrlarda ijod qilgan. Chunonchi, qasida, g’azal, muxammas, qit’a, fard, chiston, muammo va hajv kabi janrlarda barakali ijod qilgan. Uning aksariyat asarlari tojik tilida yozilgan, biroq uning

o'zbek va arab tillarida yozilgan ayrim she'rlari ham borki, bular Tamkin har uchala tilni ham mukammal bilganligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bu tojik olimi Aqar Jon Fidoning ilmiy izlanishlarida ham matn asosidagi ma'lumotlar sifatida berilgan: "Tamkin Abdurrahmon (1851, dehai Buryobofi Bukhoro—4915, Bukhoro), shoiri tojik. Pas az tahsil mudarrisi madrasai «Dorushshifo»-i Bukhoro tain shud. Muddate dar khizmati darbor bud, vale muhiti on jo ba tabiati shoir muvofiq naomad va u tarki khidmat kard. Tamkin az khud merosi ziyode boqi guzoshtaast:

1. Devoni qasoid va gazaliyot, ki az 184 bayt qasoid va 3204 bayt gazalhoi gunogunmavzu faroham omadaast.

2. «Ganji shoygon» — masnaviest shomili 18 fasl va 14 bob, ki dar mazammati bukhlu hasad va kibru gurur gufta shudaast.

3. Majmui «Ruboiyot», ki 488 ruboi, 1468 mufradot, 7 chiston, 6 muammo. 15 bayti parokandaro dar bar megirad. Dar ruboiyoti shoir janbai tanqidi beshtar ba nazar merasad.

4. «Jaroid», ki az 305 qitai pandomez iborat ast.

5. «Guliston» — asari pandu akhloqi dar payravii «Guliston»-i Sadi, 4 qitai manzum va 76 hikoyat dorad. Khulosai har yak hikoya bo qitae jambast tardidaast.

6. «Matole-ul-fokhira va matolib-uz-zohira» — asarest notamom, ki az 44 matla, 1 tajalli, 1 shashaa va 4 numoya iborat buda, goho bo qitaho zinat yoftaast.

In kitob, ki manbai muhimmi adabi va tarikhist, kushishe baroi navishtani tarikhi mufassali Bukhoro budaast. Ilova bar in asarho ashori parokandai shoir dar tazkiravu bayozhoi asri 19—ibtidoi asri 20 darj yoftaand. Hamchunin, dar «Tazkirat-ush-shuaro»-i Muhtaram az «Junaydi laoli» nom asari Tamkin yodovari meshavad, ki hanuz dastras nagardidaast.”¹

MUHOKAMA

A.Tamkindan juda boy adabiy meros qolgan. Bular: “Devoni qasoid-u g'azaliyot”, “Ganji shoygon”, “Ruboiyot”, “Jaroid”, “Mo'liston”, “Matole' ul-foxira va matolib uz-zahira”. Yana shoirning ayrim she'rlari o'sha davrda yaratilgan tazkira va bayozlardan o'rin olgan.

Shuningdek, “Tazkirat ush-shuaro” asarining muallifi Hoji Ne'matulloh Muhtaramning xabar berishicha Tamkinning “Junaydi laoli” degan asari ham bo'lgan. Lekin bu kitob va u haqdagi aniq ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan.

¹ A. Jon Fido. Matnro dar xatti asli xondan.

Tamkin devoni 6764 misra bo'lib, shundan 356 misrasi qasida va 6408 misrasi g'azaldir. "Ruboiyot" asarida esa 488 ruboiy, 1468 mufradod, 7 chiston va 6 muammo bor.

Shoir g'azallarini mazmun jihatidan 3 qismga bo'lish mumkin:

- 1) an'anaviy g'azallar;
- 2) amaldorlarni tanqid qilgan, hasad, kibr-g'urur, zararli xislatlar haqidagi g'azallar;
- 3) pand-u nasihat mavzusidagi g'azallar.

Shoirning "Jaroid" asari 1168 misra bo'lib, 305 qit'adan iborat. Bu asarning mavzusi pand-u nasihatdan iboratdir. Shoirning diqqat markazida muhim hayotiy masalalar turadi.

NATIJA

"Mo'liston" Sa'diyning "Guliston" iga payrov tarzida nazm-u nasrda bo'lib, maxsus boblarga bo'linmagan. Bu asar 4 qit'a va 76 hikoyatdan iborat. Qit'a va hikoyatlar bir-biri bilan chambarchas bog'lanib, bir-birini to'ldirib boradi.

"Ma'ole'-ul-foxira va matolib -uz zohira" asari shoir umrining oxirgi yillarida yozilgan. Ushbu asar: ham adabiy, ham tarixiy manba hisoblanadi. Tamkin biror bir shoir yoki olim haqida gapirar ekan u yashagan sharoit va geografik hayot haqida keng ma'lumot beradi. Bu asarda u Buxoro tarixi haqida, me'morlik san'ati haqida, madaniy yodgorliklari haqida keng to'xtaydi. Chunonchi, masjid, xonaqoh, ark, madrasalar va boshqa imoratlar haqida batafsil tasvir beradi.

Shuningdek, unda sayyoralarning harakati va ularning odamlarga ta'siri tabiatning o'zgarishi, daryolardagi iqlim, nabotot olamining xususiyatlari haqidagi sharhlarni ham uchratish mumkin.

XULOSA

Xoji Ne'matulloh Muhtaram tazkirasida Tamkin vafotini hijriy 1334 (melodiy 1915) deb qayd qilgan. Professor A.A.Semyonov esa Tamkin vafotini 1917-1918-yillar deb ko'rsatadi². Tamkin vafoti to'g'risidagi bu har xillikka ham shoirning shogirdi Ja'farov aniqlik kiritadi:

"Dar soli 1915 dar Buxoro bo domullo Tamkin az nav muloqot kardam. Vay az davrai piriash zaboni shikoyat kushoda guft: "Piri ham monandi davrai tufuliyat ast. Aknun qarib ba 63 daromadnam, sihat va salomatiam az dast rafta, kasali tobu tavonamro rabuda, imkoni tavonash roh raftanam namondaast"... Poho domullo minavisad, Ja'farov, varam karda bud, hatto agar ba devor takya namekard, ba no xestan nametavonist"³. Ana shu fikrlar ko'rsatadiki, Ne'matulloh Muhtaramning xulosasi

² Sobraniye vostochnix rukopisiy AN A.A.Semyonova T. 1954.str.366

³ Ja'farov. Shaxsiy xotiralari, o'sha kitob

haqiqatga yaqindir. Zero, shoirning shogirdi Ja'farovning ko'rsatmasi ham shuni tasdiqlaydi. Demak, Tamkin 1915-yil dunyodan ko'z yumgan.

REFERENCES

1. A. Jon Fido. Matnro dar xatti asli xondan
2. Sobraniye vostochnix rukopisii AN A.A.Semyonova T. 1954.str.366
3. Ja'farov. Shaxsiy xotiralari, o'sha kitob
4. Internet ma'lumoti. Buxoro tarixi. Abdulahadxon davri.
5. A.S. Olimxon. Bux. x. hasratli tarixi. O'z.SSJ. "Fan" nashriyoti. T.1991-yil, 27-bet
6. Tamkin. "Mo'liston". Dastxati tahti raqami 337. И Ш. O'z-n. varaq 8-9. (8-9-betlar)
7. Tamkin. Devon. Qo'lyozma nomeri. 111. 39-bet.
8. Бекова С. К. Академическое самоубийство: сценарии отсева в российской аспирантуре //Вопросы образования. – 2020. – №. 2.
9. Бекова Н. Ж., Сайлиева З. Р. " Девони Фони": издания и исследования //Филология и лингвистика в современном обществе. – 2014. – С. 20-22.
10. Sohibova Z., Quvvatova D. Symbolic description of the year seasons in Uzbek poetry. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, Volume-8 Issue-9S3, July 2019, 363-367. ISSN: 2278-3075 Website. – 2019.

IQTISODIYOTDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Nabijonov Otabek Ganiyevich

Toshkent davlat transport universiteti Iqtisodiyot fakulteti Iqtisod yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Raqobat – ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha sub'yektlari o'rtasidagi murakkab munosabatni ifodalaydi. Raqobat – bozor sub'yektlari iqtisodiy manfaatlarning to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq nafillikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi. Raqobat mavjud bo'lishining boshqa shartlaridan biri tovar-pul munosabatlari ma'lum darajada rivojlangan bozor tizimida amal qilishidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: Raqobat, Tovar, bozor konyukturasi, monopoliya, texnik taraqqiyot, xususiylashtirish, resurslar, innovatsion vazifa.

THEORETICAL FUNDAMENTALS OF INCREASING COMPETITIVENESS IN THE ECONOMY

Nabijonov Otabek Ganievich

Tashkent State Transport University, Faculty of Economics, 3rd year student of Economics

ABSTRACT

Competition is a multifaceted economic phenomenon that represents a complex relationship between all market participants. Competition is a conflict of economic interests between market participants, which means the struggle between them for higher profits and greater profitability. Another condition for the existence of competition is that the commodity-money relationship operates in a more developed market system.

Keywords: Competition, Brand, market conditions, monopoly, technical development, privatization, resources, innovative task.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti o'zining yetuklik darajasi va rivojlanish xususiyatlaridan qat'i nazar, raqobatning mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o'z shakllarini

o'zgartirib boradi. Muhtaram birinchi prezidentimiz I.A. Karimov raqobatning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyatini ko'rsatib: "Raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat – raqobat bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir", deb ta'kidlaydi. Raqobat – bozor sub'yektlari iqtisodiy manfaatlarning to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq nafillikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi. Aksariyat hollarda raqobatning bevosita tovarlar yoki tarmoqlar o'rtasidagi kurash sifatida ta'riflaydilar: "Tovarlar hamda ularning ishlab chiqaruvchilari – firmalar, tarmoqlar, mamlakatlar o'zaro raqobatlashadilar. Shunga ko'ra, raqobat va raqobatbardoshlikni ham tovarlar, ham tovar ishlab chiqaruvchilarga nisbatan ko'rib chiqish mumkin".

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshlikni oshirish yo'lida ma'lumki, bugun jahon bozori konyukturasi keskin o'zgargan, globallashuv sharoitida raqobat kuchaygan davrda yashayapmiz. Bunday murakkab sharoitda respublikamizda ham makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, rivojlanishning yuqori o'sish darajasini ushlab turish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan milliy mahsulotlar xaridorligiga erishish, milliy valyuta tushumini ko'paytirish kabi muhim vazifalar amalga oshirilib kelinmoqda. Ma'lumki, kurash – bu o'z manfaatini himoya qilish, raqibni yengib chiqish hamda g'olib bo'lish uchun harakat, turli vosita va usullarni ishga solish demakdir. Tovarlar esa, raqobat jarayonida o'zlarining raqobatbardoshlik xususiyatlarini bevosita o'zgartira olmaydilar, ya'ni kurasholmaydilar. Ularning bu jarayondagi ishtiroki passiv hisoblanadi. Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) tartibga solish vazifasi;
- 2) resurslarni joylashtirish vazifasi;
- 3) innovatsion vazifa;
- 4) moslashtirish vazifasi;
- 5) taqsimlash vazifasi;
- 6) nazorat qilish vazifasi;

MUHOKAMA

O'zbekistonda samarali raqobat muhitini yaratish uchun quyidagilar bo'yicha chora – tadbirlarning amalga oshirilishi taqozo etiladi:

a) Iqtisodiyotda davlat monopolizmining har qanday namoyon bo'lishini maksimal darajada bartaraf etish. Buning uchun tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish tizimini takomillashtirish uchun nisbatan qulay shart – sharoitlarni yaratishga qaratilgan chuqur institutsional islohotlar zarur;

b) Bozor sharoitida vujudga kelayotgan monopoliyalarning bozordagi o‘z ustunlik mavqeyilarini suviste’mol qilish imkoniyatlarining oldini olish. Davlat muassalari raqobatning rivojlanishini ta’minlashlari lozim. Busiz samarali innovatsiyalar, past xarajatlar va narxlar, mahsulotning yuqori sifatiga erishish, boshqacha qilib aytganda, butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin emas.

NATIJA

O‘zbekistonda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o‘rin tutadi. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan, mulk o‘z egalarning qo‘liga topshirilsa, ikkinchidan, ko‘p ukladli iqtisodiyod va raqobatchilik muhitini vujudga keltiradi. O‘zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning asosiy yo‘li, bu raqobatni inkor qiluvchi davlat monopoliyasidan nodavlat, turli xo‘jalik shakllarining mavjudligiga asoslangan va iloji boricha erkin raqobatni taqozo etuvchi bozor iqtisodiga o‘tishdir. Bu yerda esa raqobatchilik munosabatlarini shakllantirish, mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilarning paydo bo‘lishini taqozo qiladi, chunki raqobatning asosiy sharti alohidalashgan, mulkiy mas’uliyat asosida o‘z manfaatiga ega bo‘lgan va tadbirkorlik tahlikasini zimmasiga oluvchi erkin xo‘jalik sub’yektlari mavjudligi, ularning bozor orqali aloqa qilishidir. Dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining qaysi modelini tanlamasin milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jaligidagi mavqeyi uning raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Xalqaro raqobat texnik taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi va uning ta’sirida ishlab chiqarish, boshqaruv texnologiyalarining doimiy yangilanib borish davom etadi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotb turlari yangilanadi va sifati oshib boradi.

XULOSA

O‘zbekistonda tashqi va ichki mahsulot hamda xizmatlar bozorlarida o‘zbekistonlik ishlab chiqaruvchilarning raqobarbardoshlikni oshirish masalalari bo‘yicha xalqaro ilmiy–amaliy seminar bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish strategiyasiga ko‘ra “Iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma – bosqich kamaytirish; prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zgartirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta’minlash” ga kengroq e’tibor berilmoqda.

REFERENCES

1. Iqtisodiyot nazariyasi. Sh.Sh. Shodmonov, U.V. G‘afurov.

2. Iqtisodiyot nazariyasi. B.Y.Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov; Toshkent-2017.
3. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev; Toshkent-2015.

“O‘ZTEMIRYO‘LMASHTA‘MIR” KORXONASI SHAROITIDA ELEKTR MASHINALARINING IZOLYATSIYANI DIELEKTRIK XUSUSIYATLARINI TIKLASH

Shuhrat Jamilov

Toshkent davlat transport universiteti

shuhratjamilov@mail.ru

Asror Shoimkulov

Toshkent davlat transport universiteti

Asrorbek.shoimkulov@mail.ru

ANNOTATSIYA

Bu maqolada lokomotiv elektr mashinalar izolyatsiyalarning holatini yaxshilash chidamliyilgini oshirish uchun tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Elektr mashinalar, izolyatsiya, chulg‘am, kompaund, yakor, elektr izoltsiya lentasi, singdirish, tortish dvigatli

RESTORATION OF DIELECTRICAL PROPERTIES OF INSULATION OF ELECTRICAL VEHICLES IN THE CONTEXT OF “UZTEMIRYOLMASHTAMIR” ENTERPRISE

Shuhrat Jamilov

Tashkent State Transport University

shuhratjamilov@mail.ru

Asror Shoimkulov

Tashkent State Transport University

Asrorbek.shoimkulov@mail.ru

ABSTRACT

This article presents recommendations for improving the durability of locomotive electric machines by improving their insulation.

Keywords: Electric machines, insulation, wrap, compound, armature, electrical insulation tape, absorber, traction motor.

KIRISH

Hozirgi davrda lokomotivlarning elektr mashinalarini ishonchli ishlashi ko‘p jihatdan ularning izolyatsiyasi holatiga bog‘liq. Elektr mashinasining ishlashi paytida izolyatsiya eskiradi, uning xususiyatlari yomonlashadi va elektr quvvati pasayadi. To‘satdan harorat o‘zgarishi va atrofdagi havo namligining o‘zgarishi ko‘pincha izolyatsiya yuzasida namlik kondensatsiyasi bilan birga keladi. Bularning barchasi izolyatsiya xususiyatlarining yomonlashishiga olib keladi.

Elektr harakat tarkibidagi elektr transport vositalarini izolyatsiyasini ishlash muddatini uzaytirish murakkab vazifadir, chunki uni hal qilish uchun yangi elektr

izolyatsiya materiallari yaratilishi, o'ramlarni singdirish texnologiyasi takomillashtirilishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zavodga ta'mirlash uchun kelgan tortish elektr dvigatel yakorlarining izolatsiyasi buzilishini sabablarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, izolyatsiyaning "yonishi" elektr buzilishining issiqlik bilan birikmasidir va ular aksariyat hollarda shamollatish kanallarida changlar bilan tiqilib qolgan joylarda paydo bo'ladi, yoriqlar va mayda yoriqlar chulg'amlarning izolyatsiyasida shchytoklardan grafit changini o'z ichiga oladi.

Izolyatsiya parametrlarining eng yuqori sifat ko'rsatkichlarini olish uchun uni samarali singdirishni ta'minlaydigan va kelajakda harakat xavfsizligini ta'minlaydigan ko'plab singdirish usullari ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, izolyatsiyaning dielektrik xususiyatlarini to'liq tiklashga uni kompaund bilan singdirish orqali erishiladi, bu esa izolyatsiyaning hosil bo'lgan yoriqlari va bo'shliqlariga kirib, mustahkamlikni tiklaydi, bu esa elektr va mexanik quvvat, namlikka chidamlilik va issiqlik o'tkazuvchanligini oshirishga yordam beradi. Singdirishning maqsadi quritish bilan tiklangan izolyatsiyaning dielektrik xususiyatlarini uzoqroq saqlashni ta'minlashdir. Amaldagi singdirish materiallari va texnologiyasiga qarab, izolyatsiya mahalliy qoplama, to'liq singdirish yoki aralashtirish yo'li bilan tiklanadi.

MUHOKAMA

Ushbu ishda ultratovush yordamida chulg'amlarni olib tashlamasdan tortish elektr motorlarining asoslarini yuvish va tortish elektr dvigatel chulg'amlarini KPI-303H kompaundi bilan singdirish. Ish paytida o'rash izolyatsiyasiga harorat, tebranish, elektr maydoni va atrof-muhit ta'sirlari (chang, namlik) ta'sir qiladi, bu esa asta-sekin eskirishga va uning elektr va mexanik xususiyatlarini yo'qotishiga olib keladi.

Eng xavfli suv va elektr tokini o'tkazuvchi changlar to'planishi mumkin bo'lgan yoriqlardir. Mashinalarning ishonchliligi va chidamliligini oshirish uchun vaqti-vaqti bilan kompaundlar yoki aralashmalar bilan tozalash, quritish va singdirish orqali izolyatsiyaning xususiyatlarini tiklash kerak.

Quritishning maqsadi sirtga tushgan va chulg'amlarga singib ketgan namlikni yo'qotish va shu bilan mashina izolyatsiyasining sifatini tiklashdir. Buning uchun siz maxsus isitgichlardan foydalanishingiz mumkin. Korxonadagi tortish dvigatel yakorlarining izolatsiyasi elektr toki bilan quritish orqali tiklanadi. Shu bilan birga, kichik nazoratchi pozitsiyalarida korxonada yo'llari bo'ylab harakatlanadigan teplovozning g'ildiraklari biroz muzlaydi. TEDni prokatlash va demontaj qilish bilan ta'mirlash paytida (KR-1 va zavod ta'mirlarida) chulg'amlarni quritish yoki vakuumli pechlarda

quritadi, chunki Turli xil mashina bo'linmalarining quritish rejimlari ularning izolyatsiyasi va konstruktiv xususiyatlarining turiga bog'liq, keyin quritish pechiga bir vaqtning o'zida faqat bir xil turdagi elementlar yuklanishi mumkin. Parchalar temir yo'llar bo'ylab maxsus aravalarda avtoklavlariga beriladi va quritish 100-110 °C haroratda va taxminan 280 kPa vakuumda amalga oshiriladi. Dvigatel dvigatellarining katta qismlari, masalan, o'ralgan asoslari, eski yakorlari, taxminan bir xil haroratda 170-180 °C haroratda 10 soat ushlab turiladi.

Chulg'amlarning belgilangan quritish muddati tugagandan so'ng, izolyatsiya qarshiligi megommetr bilan tekshiriladi. 170-180 °C haroratda o'lchanadigan KPI-303H kompaundi undan keyin quritilishini inobatga olgan holda, yakor chulg'amlari, qutb g'altaklari va kompensatsiya chulg'ami (ramkaga o'rnatilgan) minimal izolyatsiya qarshiligi kamida 1 MΩ bo'lishi kerak. Izolyatsiyaning pastroq qarshiligida quritish davom ettiriladi.

Shu bilan birga, izolyatsiyaning elektr xususiyatlarini to'liq tiklash, ularni kompaund bilan singdirish orqali hosil bo'ladi, bu esa izolyatsiyada hosil bo'lgan yoriqlari va bo'shliqlariga kirib, mustahkamlikni tiklaydi, bu esa elektr va mexanik quvvat, namlikka chidamliligi va issiqlik o'tkazuvchanligini oshiradi. Singdirishning maqsadi quritish bilan tiklangan izolyatsiyaning dielektrik xususiyatlarini uzoqroq saqlashni ta'minlashdir. Amaldagi singdirish materiallari va texnologiyasiga qarab, izolyatsiya mahalliy qoplama, to'liq singdirish yoki aralashtirish yo'li bilan tiklanadi.

Kompaundlar bilan qoplanadigan mahalliy qoplama faqat butun qalinligi davomida izolyatsiyaning yetarlicha dielektrik kuchiga to'liq ishonch bo'lganda, keyin belgilangan haroratda pechda 4-5 soat davomida quritilgandan keyingina qo'llaniladi.

Singdirish quruq kompaund to'planmasdan o'tishi kerak va singdirilgan yakorlarda havo yostig'i bo'lmasligi kerak. Yakorlarni singdirish vertikal holatda va qizigan holatda botirish yo'li bilan amalga oshiriladi va kompaund yuzasida gaz pufakchalari chiqishi to'xtaganda tugaydi. Suvga cho'milganda, kompaund darajasi 10-15 mm gacha bo'lgan kollektorgacha etib bormasligi kerak.

Elektr mashinalarining chulg'amlarini izolyatsiyalashning texnologik jarayonlarida ultratovushdan foydalanish istiqbolli hisoblanadi. Yuqori chastotali ultratovush to'lqinlari singdiruvchi kompaundka ta'sir qiladi va uning tor kanallarga, bo'shliqlarga va mikro yoriqlarga kirib borishini osonlashtiradi va kapillyar ta'sirini ko'paytiradi. Lokomotivlarni ta'mirlash zavodlarida magnetostriktiv emitrli ultratovushli qurilmalar qo'llaniladi. To'plam gorizontol qatorlarda ishlaydigan idishga o'rnatilgan 18 ta piezoseramik ultratovushli emitrlardan, masofadan boshqarish pultidan, boshqaruv bloki bo'lgan rack va generator bloki bilan qo'shni portlashga qarshi xonada joylashgan. Yangi ultratovush qurilmasi vakumli-so'rgich moslamasiga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Bir vaqtning o'zida singdiruvchi idishga o'rnatilgan to'rtta tortish

dvigatel yakorini va barcha turdagi elektr mashinalarining bitta yakorlarini singdirishda ham yaxshi sifat ta'minlanadi.

Ultratovushli singdirish va quritishdan keyin yakorlarni tekshirish shuni ko'rsatdiki, kompaund chulg'amlar bilan yopilgan o'rash bo'shliqlariga kirib, yakor frontal qismlari va tirqishlarida o'ramlarni teng ravishda qoplaydi.

Qutb va kompensatsiya o'ramlari, shuningdek, isitilgan holatda aralashmalar yoki kompaund bilan singdiriladi. Dvigatel tirgaklarining olib tashlanmagan o'ramlari asos bilan birga singdirilib, uni kompaund bilan to'ldiradi, uning darajasi o'ramlardan yuqori bo'lishi kerak. Idishda ushlab turish vaqti 30-50 minut bo'lishi kerak. Singdirish tugatgandan so'ng, ortiqcha kompaundning sirtidan chiqib ketishiga yo'l qo'yiladi, shundan so'ng yig'ish quritadigan pechga yuklanadi va 10 soat davomida 170-180 °C haroratda quritiladi.

NATIJA

Issiqlikka chidamlilik darajasi va ishonchliligining 80-90% ni aniqlaydigan barcha izolyatsiya tizimlarining asosini korpus izolyatsiyasi uchun slyuda o'z ichiga olgan lentalar va singdiruvchi birikma tashkil etadi. Zavodda mavjud va vakumli so'rgich singdirish texnologiyalari uchun ishlatiladigan mahalliy elektr izolyatsiya lentalari va birikmalarini tanlash juda cheklangan. Ular qatoriga LSKN-160TT, LSKN-135Tpl, LSKO-180 markalari singdirilmagan slyuda lentalari va singdiruvchi birikma Pk-11 kiradi, ular qalinligi ortishi, ish paytida "changlanish", issiqlikka chidamliligi cheklangan (155 °C). ...

Izolyatsiya tizimlarining texnik ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun yangi slyuda lentalari va singdiruvchi birikma ishlab chiqarilib, ishlab chiqarishga joriy etildi. Issiqlikka chidamlilik sinfi H (eng yuqori) bo'lgan kompaund KP-99 ID aralashmasi - epoksid qatronining to'yinmagan eritmasi. Ushbu material yuqori dielektrik xarakteristikaga va 35 va 30 °C haroratda past yopishqoqlikka ega. Murakkab LSNE va LSKN -160TT singdirilmagan slyuda tasmalariga, polimer PM plyonkasiga yaxshi mos keladi. U vakumli so'rgichli singdirish uchun mo'ljallangan va ikkita modifikatsiyaga ega: bitta va ikkita komponentli tizim. Bir tomonlama singdirilmagan LSNE slyuda tasmasi - bu epoksi modifikatsiyalangan biriktiruvchi bilan yopishtirilgan mika qog'ozi va shisha tolali mato.

Asosiy va yordamchi qutblarning chulg'amlari, shuningdek, ba'zi turdagi motorlarning kompensatsion chulg'amlari (masalan, TL-2K1) "Monolit-2" izolatsiyasi asosida tayyorlanadi, ularning tanasi izolyatsiyasi qutb chulg'amlari uchun shisha-mika lentalari, kompensatsiya va anker chulg'amlari ham epoksi birikma bilan singdirilgan. Qo'shimcha qutblarning chulg'amlari bilan birga singdiriladi va shu bilan bitta bo'kompaundli monoblok olinadi. Kompaund bilan singdirilgandan va emal bilan

qoplangandan so'ng, izolyatsiyani yakuniy quritilishi tabiiy atmosfera bosimida aylanishi va toza havo oqimi bilan amalga oshiriladi.

Haftada kamida bir marta aralashmalarning singdirish qobiliyatini va singdiruvchi kompaund tarkibidagi asos miqdorini tekshirish kerak va kompaundlar va birikmalarning nazorat sinovlari oyiga kamida bir marta standartlar va ko'rsatmalar talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, ushbu tadqiqot ishida elektr mashinalarining chulg'amlarini izolyatsiyalashning turli usullari ko'rib chiqilgan va bu yangi usullarning eng samarali ekanligini aniq tasdiqlaydi. Buning uchun vakumli-so'rgich usuli bilan singdirilgan elektrovozlarning yakor chulg'amlarini taqqoslash sinovlarini o'tkazish, shuningdek, yuqoridagi singdirish texnikasining texnik-iqtisodiy xususiyatlarini baholash kifoya.

REFERENCES

1. Egamberdiyev A.T., Fayziyev B.T. Lokomotivlarni ta'mirlash texnologiyasi T.: Toshkent 2005. – 98 б.
2. Находкин И.М. Ремонт электроподвижного состава. М., Транспорт-1989.
3. Петропавлов, Юрий Петрович. Технология ремонта электроподвижного состава: учебник для студентов техникумов и колледжей железнодорожного транспорта / Ю. П. Петропавлов. - М. : Маршрут, 2006. - 432 с. : рис., табл. - (Среднее профессиональное образование). - Библиогр.: с. 427-428. - 5000 экз. - ISBN 5-89035-348-9(110) Рек. Упр. кадров, учеб.

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA “VENA KLASSIK MAKTABI” NAMOYONDALARI HAYOTI VA IJODIYIY FAOLIYATI BILAN TANISHTIRISH USHLUBLARI

Umurova Ma’rifat Yoshiyevna

Buxoro davlat universiteti

San’atshunoslik fakulteti

Musiqa ta’limi kafedrası o’qituvchisi

marifat_umurova@mail.ru

Raximov Abdurasul Ravshan o’g’li

Buxoro davlat universiteti

San’atshunoslik fakulteti

Musiqa ta’limi yo’nalishi talabasi

abdurasulraximov18@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada musiqa madaniyati darslarida o’quvchilarga xorij musiqa san’ati tarixida shakllangan ijodiy yo’nalish – Vena klassik maktabi faoliyatini tanishtirish uslubiyoti haqida fikr yuritilgan. Ushbu yo’nalish vakillari Yozef Gaydn, Volfgang Amadey Motsart, Lyudvig van Betxovenlarning hayoti va ijodiy faoliyati keng yoritilgan.

Kalit so’zlar: Vena, raqs, vals, Fransuz burjua revolutsiyasi, simfonik musiqa, polifoniya, faktura, kadans, xalq qo’shiqlari.

METHODS OF INTRODUCTION TO THE LIFE AND CREATIVE ACTIVITIES OF THE REPRESENTATIVES OF THE VENIAN CLASSICAL SCHOOL IN MUSIC CULTURE CLASSES

Umurova Ma’rifat Yoshiyevna

Bukhara State University, Faculty of Art

History, Lecturer at the Department of

Music Education

marifat_umurova@mail.ru

Rakhimov Abdurasul Ravshan ugli

Bukhara State University

Faculty of Art History

Student of music education

abdurasulraximov18@gmail.com

ABSTRACT

This article discusses the creative direction in the history of foreign music art in music culture classes - the method of introducing the activities of the Viennese Classical School. The life and work of Joseph Haydn, Wolfgang Amadeus Mozart, Ludwig van Beethoven are widely covered.

Keywords: Vienna, dance, waltz, French bourgeois revolution, symphonic music, polyphony, texture, cadence, folk songs.

KIRISH

Vena klassik maktabi Avstriyada XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi choragida shakllangan musiqa san'atida ijodiy yo'nalishdir. Uch buyuk kompozitor — Y. Gaydn, V.A. Motsart va L. Betxoven ana shu yo'nalish vakillaridir.

Vena — Gabsburglar monarxiyasi feodal-mustabid hokimiyatining poytaxti edi. Bu ko'p millatli monarxiya tarkibiga Avstriya, Vengriya, Chexiya, Moraviya, Slovakiya, Xorvatiya, Sloveniya, Bosniya, Gersegovina, Tirol, Polsha va Ukrainaning ayrim viloyatlari kirgan.

Vena Yevropaning eng yirik musiqiy shaharlaridan edi. Venaga ko'p saltanatning barcha burchaklaridan qo'shiq va raqslarini ko'chalarda, bog' va xiyobonlarda ijro etuvchi xalq musiqachilari oqib kelardi. Avstriyaning uch hissali lendler — dehqoncha raqsi eng sevimli raqs bo'lib, keyinchalik shu raqs asosida vals rivojlandi. Nemis, venger, italyan, slavyan va tirol kuy-qo'shiqlarining tabiiy tarzda uyg'unlashuvi Vena klassiklari ijodi uchun ohang manbasi bo'ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Vena klassiklarining san'ati Ma'rifat asri g'oyalarini aks ettirdi, bu g'oyalar ongning hukmronligiga, cherkov tomonidan joriy etilgan jaholat bilan kurashga chaqirardi. Vena klassik maktabi vakillari musiqasida xalq turmushi, atrof-muhit manzaralari, quvonchii va g'amgin o'ylar, tabiat hodisalari hamda ruhiy kechinmalar o'zining yorqin ifodasini topdi. Bu davrda nemis she'riyati gullab-yashnadi, badiiy tanqidchilik paydo bo'ldi, falsafa yuksak rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Davrning eng yirik san'atkorlari va mutafakkirlari — Gyote, Shiller, Lessing, Kant, Gegellar yangi insonparvarlik g'oyalarini ilgari surishdi. Russo tomonidan ilgari surilgan ozodlik va tabiiylik shiori Vena klassik maktabi kompozitorlari ijodida o'z talqinini topdi. Fransuz burjua revolutsiyasi g'oyalari Betxoven ijodiga zo'r ta'sir o'tkazdi.

Gaydn va Motsartning deyarli barcha yirik asarlari sonatasimfonik turkumlardan iboratdir. O'zidan oldin o'tgan ijodkorlarning yutuqlarini o'zlashtirgan holda Gaydn va Motsart simfonik musiqaning yuksak namunalarini yaratdilar. Ana shu asarlarda timsollar doirasi va mazmun boyligi mukammal badiiy shaklda talqin etilgan. Bu vaqtga kelib, sonata-simfonik turkumning tarkibi o'zining uch yoki to'rtta qismlari, shuningdek, bar bir qismning qonuniyatlari bilan tugal shakllandi. Gaydn va Motsartning simfoniylari, sonatalari, konsert hamda kvartetlarida mazmun doimo hal qiluvchi ibtido bo'lgan. Shakl esa har doim mazmunga to'liq muvofiq tarzda yaratilgan. Gaydn va Motsartning asarlarida mavzu material! obrazlar yorqinligi va bo'rttirilganligi bilan ajralib turibdi. Har doim kompozitorning takrorlanmas, o'ziga xos ijodiy xususiyati aks etadi. Gaydn va Motsart mavzu rivojlanishining yangi usullari hamda vositalarini kiritgani, ularning asarlarini nihoyatda boyitdi.

Vena klassiklari musiqasi, asosan, polifonik rivojlanish bilan uyg'unlashgan gomofon garmonik tafakkurga asoslangan. Bu sohada Motsartning polifonik mahorati eng yuksak yutuqlardan biridir.

Vena klassiklari tonika, subdominanta va dominantaning garmonik funksiyalarini major va minor ladlari chegarasida keng tarzda ishlatadilar, dissonanslar va xromatizmlardan erkin foydalanadilar, ular ijodida modulatsiya uslublari yuqori rivojlanadi. Ular mavzu, lad va tonalliklarga oid qarama-qarshiliklardan, melodika, fakturadagi qarama-qarshiliklardan ustalik bilan foydalanishadi.

Vena klassik maktabi kompozitorlari mavzuni rivojlantirish, asarning rivojlov bo'limlarida yuksak mahoratga erishib, turli uslublar — tonallikni, garmoniyalashtirishni, ritmni, kuy unsurlarini o'zgartirishdan foydalanishdi. Shakl sohasida Gaydn va Motsart musiqasi uchun kuy va ritmik tarkibning davriyligi hamda simmetriyaliligi xosdir. Ular kadans bilan yakunlanuvchi sakkiz yoki o'n olti taktlik tuzilmalardan iborat. Ushbu simmetriyalilik nemis va Avstriya xalq qo'shiqlari xarakteri bilan belgilanadi. Shaklning rivojlantiriluvchi bo'linmalari uchun ko'proq to'xtovsiz rivojlanish xos. Slavyan xalq qo'shiqchiligining ta'siri shaklning ekspozitsiya bo'limlaridagi toq sonli taktlardan tashkil topgan kuy-ritm tuzilmalarida namoyon bo'ladi.



YOZEF GAYDN

(1732-1809)

Frans Yozef Gaydnni torn ma'noda simfoniya va kvartet janrining otasi, klassik cholg'u musiqasining buyuk asoschisi, zamonaviy orkestrning birinchi tashkilotchisi, deb hisoblanadi.

Frans Yozef Gaydn 1732-yil 31-martda Quyi Avstriyaning Vengriya bilan chegaradosh bo'lgan Rorau qishlog'ida tug'ildi. Gaydnning ajdodlari avstro-nemis hunarmand-dehqonlaridan bo'lishgan. Kompozitorning otasi Matias kareta (faytun arava) ustasi bo'lgan. Onasi — qizlik ismi Anna Mariya Koller — oshpaz bo'lib xizmat qilgan.

Otasining musiqiy qobiliyati va musiqaga bo'lgan muhabbati farzandlariga meros bo'lib qoldi. Kichkina Yozef besh yoshligidayoq musiqachi san'atkorlar diqqatini o'ziga jalb qildi. U ajoyib eshitish, eslab qolish, ritmni sezish qobiliyatiga ega edi.

ASARLARI RO'YXATI

Simfoniylar

- Jami 104 simfoniya.
- «Xayrlashuv» (1772).
- Oltita «Parij» simfoniylari (1786).
- O'n ikkita «London simfoniylari» (1791—1795).
- Oksford simfoniyasi.

Konsertlar

- Fortepiano va orkestr uchun 20 ta konsert.
- Skripka va orkestr uchun 9 ta konsert.
- Violonchel va orkestr uchun 6 ta konsert.
- Boshqa cholg'ular (kontrabas, bariton, fleyta, valtorna) uchun 16 ta konsert.

Kamer ansambllar

- 77 ta torli kvartetlar.
- Fortepiano, skripka va violonchel uchun 35 ta trio.
- Torli cholg'ular uchun 30 ta trio.
- Skripka va fortepiano uchun 12 ta sonata.
- Skripka va alt uchun 6 ta duet.
- Fortepiano asarlari.
- Fortepiano uchun 33 ta sonata.
- Variatsiyalar, fantaziyalar.

Oratoriyalar

- «Dunyoning yaratilishi» (1798).
- «Yil fasllari» (1800).
- 14 ta messalar, Nelsonga bag'ishlangan messa.

Operalar

- «Asmodey yoki Yangi maymoq jin» (1751).
- «Aptekachi» (1768).
- «Kutilmaganda uchrashuv» (1775).
- «Asl doimiylik» (1776).
- «Oy dunyosi» (1777).
- «Orfey va Evridika» (1791).
- Jami 24 ta opera.

**VOLFGANG AMADEY MOTSART***(1756-1791)*

Buyuk kompozitor Wolfgang Amadey Motsart o'zining qisqa, ammo ajoyib hayoti davomida turli janrlarda 600 ga yaqin musiqa asarlari yaratdi. Ular ichidan eng ommalashib ketganlarini aniq nomlarini bilmasak ham, turli parchalarni ko'p marta tinglaganmiz va hammamiz yaxshi bilamiz. Bular: «Figaroning uylanishi», «Sehrli nay» operalari va o'zining betakrorligi bilan ajralib turuvchi — «Rekviyem»dir.

Wolfgang Amadey Motsart 1756-yil 27-yanvarda Alp o'lkasida joylashgan, san'at asarlariga o'xshash daryolar, bog' va o'rmonlar bilan o'ralgan Zalsburg shaharchasida dunyoga keladi.

ASARLARI RO'YXATI

Operalar

- | | |
|----------------------------------|-------------------------------------|
| — «Appolon va Giatsint» (1767). | — «Bastyen va Bastyenna» (1768). |
| — «Soxta laqma» (1768). | — «Mitridat, Pontiy qiroli» (1770). |
| — «Lutsiy Sulla» (1772). | — «Soxta bog'bon qiz» (1775). |
| — «Idomeney, Krit shohi» (1780). | — «Saroydagi o'g'rilik» (1782). |
| — «Teatr direktori» (1782). | — «Figaroning uylanishi» (1786). |
| — «Don Juan» (1787). | — «Hamma shunday qiladi» (1790). |
| — «Titning rahmdilligi» (1790). | — «Sehrli nay» (1791). |

Kantatali-oratorial asarlar

- | | |
|--|----------------|
| — Rekviyem (.1791). | — 15 ta messa. |
| — 5 ta mason kantatalari. | — Motetlar. |
| — Ovoz va fortepiano uchun qo'shiqlar. | |

Simfoniylar

- | | |
|--|-----------------------------|
| — «Xafner simfoniyasi» D-dur (1782). | |
| — C-dur simfoniyasi (1783). | |
| — Praga simfoniyasi D-dur (1786). | |
| — Es-dur simfoniyasi (1788). | |
| — g-moll simfoniyasi (1788). | |
| — C-dur «Yupiter» simfoniyasi (1788). Jami 41 simfoniya. | |
| — Divertimentlar, kassatsiyalar, serenadalar. Jami 30 dan ort. | |
| — 15 ta variatsiyali sikl. | — Menuet. |
| — Orkestr uchun 9 ta marsh. | — Orkestr uchun 25 ta raqs. |

Konsertlar

- Skripka va orkestr uchun 7 ta konsert.
- Forteplano va orkestr uchun 27 ta konsert.
- Turli cholg'ular va orkestr (fleyta, fagot, valtorna, fleyta va arfa) uchun konsertlar.

Kamer ansambllari

- | | |
|-----------------------------|---|
| — 26 ta torli kvartetlar. | — 7 ta torli kvintetlar. |
| — 2 ta forteplano kvarteti. | — 8 ta forteplano triosi. |
| — 42 ta skripka sonatalari. | — Torli va puflama cholg'ular uchun kvintetlar. |

Forteplano asarlari

- | | |
|------------------------------|-------------------|
| — 19 ta forteplano sonatasi. | — 4 ta fantaziya. |
|------------------------------|-------------------|

— 15 ta variatsiyali sikl.

— Menuet.



LYUDVIG VAN BETHOVEN

(1770-1827)

Yevropa madaniyati tarixida 1789-yildagi fransuz burjua inqilobi yangi davr boshlanganini bildirar edi. U millionlab insonlarga qaratilgan yangi davr musiqa madaniyatini boshlab bergan marra vazifasini o'tadi.

Buyuk nemis kompozitori Ludvig van Betxoven Bonn shahrida 1770-yil dekabr oyida dunyoga keldi. Betxovenning onasi saroy oshpazining qizi bo'lgan. Otasi — saroy xonandasi (tenori) bo'lib, ashula, musiqa nazariyasi va klavesindan dars berardi.

ASARLARI RO'YXATI

Simfoniylar

- Birinchi C-dur op.21 (1800). — Ikkinchi D-dur op.36 (1802).
- Uchinchi Es-dur («Qahramonnoma») op.55 (1804). —
- To'rtinchi B-dur op.60 (1806). — Beshinchi c-moll op.67 (1808).
- Oltinchi F-dur «Pastoral» op.68 (1808). — Yettinchi A-dur op.92
- Sakkizinchi F-dur op.93 (1812). - To'qqizinchi d-moll op.125 xor

Uverturalar

- «Prometey» op. 43 (1800). — «Koriolan» op. 62 (1806).
- «Leonora» 1 op. 138 (1805). — «Leonora» 2 op.72 (1805).
- «Leonora» 3 op.72a (1806). — «Fidelio» op.72 b (1814).
- «Egmont» op. 84 (1810). — «Afma xarobalari» op.113(1811).
- «Qirol Stefan» op.117 (1811). — «Tavallud kuniga» op.115(1814)

Simfonik va puflama cholg'ular orkestri uchun 40 dan ortiq raqslar hamda marshlar.

Konsertlar

- Birinchi C-dur (1796)
- Ikkinchi B-dur (1795)
- Uchinchi c-moll (1800)
- To'rtinchi C-dur (1805)
- Beshinchi Es-dur (1809)

Kamer-cholg'u asarlar

- 16 ta kvartetlar.
- Skripka va fortepiano uchun 10 ta sonata.
- Violonchel va fortepiano uchun 5 ta sonata.

— Fortepiano uchun trio.

Fortepiano uchun asarlar

— Fortepiano uchun 32 ta sonata.

— Fortepiano uchun 20 dan ortiq turkum variatsiyalar.

— Fortepiano uchun 60 ga yaqin kichik pyesalar.

Sahna asarlari

— «Fidelio» — uch pardali opera (1807).

— «Prometeyning yaratmalari» — balet (1800—1801).

— «Egmont» — Gyote dramasiqa musiqa.

Xor uchun asarlar

— Messa op.88 (1807).

— «Tantanali messa» op. 123 (1823).

— «Iso zaytun tog'ida» (1800).

— Bir nechta sonata va xorlar.

Vokal lirikasi

— 150 ga yaqin qayta ishlangan xalq (shotland, irland, ingliz, uelscha, italyancha) qo'shiqlari.

— Fortepiano jo'rligida 80 ga yaqin qo'shiqlar, kanonlar, ariyalar, ansambllar, shu jumladan, «Olisdagi mahbubaga» turkumi;

Gyote she'rlariga qo'shiqlar, Gellert she'riga 6 ta qo'shiq.

XULOSA

Vena klassik maktabi kompozitorlari ijodi jahon musiqa san'ati cho'qqilaridan birini tashkil qiladi. U musiqa san'atining keying rivojlanishiga o'zining ulkan ta'sirini o'tkazgani bois, hozirgi kunda ham ko'plab avlodlar uchun tengi yo'q namuna bo'lib kelmoqda.

REFERENCES

1. Миршаев Улугбек Музафарович МУЗЫКАЛЬНО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К УЧИТЕЛЮ МУЗЫКИ // Вестник науки и образования. 2020. №21-2 (99). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/muzykalno-esteticheskoe-vozpitanie-i-sovremennye;rebova>
2. Норова Шойра Умрзаковна, Наимов Темур Джахонгир Оглы Воспитательное значение классических музыкальных произведений в образовании студентов // Academy. 2020. №5 (56). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vozpitatelnoe-znachenie-klassicheskikh-muzykalnyh-proizvedeniy-v-obrazovanii-studentov> (дата обращения: 15.01.2021);
3. Нуриллаев Фаррух Гайбуллаевич, Нурилаева Нозима Кудратовна Роль фольклорных песен в воспитании учащихся // Проблемы педагогики. 2020. №3

- (48). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-folklornyh-pesen-v-vospitanii-uchaschihsya> (дата обращения: 15.01.2021).
4. JT Yarashev - European Journal of Research and Reflection in ..., 2019
<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=1424390814270496977&btnI=1&hl=ru>;
5. Trigulova A. X. Xorijiy musiqa adabiyoti. T.: “ILM ZIYO” – 2016;
6. Ibrohimov O. A., Xudoyev G'. M. . Musiqa tarixi – o'quv qo'llanma. T.: “Barkamol fayz media”, 2018.
7. Madrimov B. X. Musiqa tarixi (Chet el musiqasi tarixi) o'quv qo'llanma/ Buxoro: “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2019.

ЎЗБЕКИСТОН ВА АРАБ ДАВЛАТЛАРИНИНГ ЎЗАРО МУНОСАБАТЛАРИ ДИНАМИКАСИ

Рахматов Хуршид
Мустақил тадқиқотчи

АННОТАЦИЯ

Сўнги икки йилда Ўзбекистон Республикасининг араб мамлакатлари билан муносабатлари сезиларли даражада фаоллашди. Ушбу йўналиш Ўзбекистон ташқи сиёсатида янги йўналиш сифатида шалланмоқда. Араб-ўзбек ҳамкорлигининг аввалги ва ҳозирги жиҳатлари нималардан устувор, Жаҳонда ва МО минтақасидаги мураккаб геосиёсий вазиятни ҳисобга олганда, мазкур тенденция нечоғлик истиқболли каби саволларга мазкур мақолада жавоб қидирилади. Шунингдек, мақолада Ўзбекистоннинг Саудия Арабистони ва Бирлашган Араб Амирликлари билан ҳамкорлоик алоқлари ва савдо сармоявий келишувлар ҳақида ҳам маълумотлар берилди.

Таянч сўз ва иборалар: Ҳамкорликнинг янги босқичи, савдо-сармоявий имкониятлар, Masdar ва Mubadala Development компаниялари.

DYNAMICS OF RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND THE ARAB STATES

Rakhmatov Khurshid
Independent researcher

ABSTRACT

Over the past two years, the Republic of Uzbekistan's relations with Arab countries have significantly intensified. This direction is emerging as a new direction in Uzbekistan's foreign policy. Given the strengths of the past and present aspects of Arab-Uzbek cooperation, and the complex geopolitical situation in the world and in the CIS region, this article seeks answers to questions such as how promising this trend is. The article also provides information on Uzbekistan's cooperation with Saudi Arabia and the United Arab Emirates, as well as trade and investment agreements.

Keywords: A new stage of cooperation, trade and investment opportunities, Masdar and Mubadala Development.

КИРИШ

Форс кўрфаз араб давлатлари, хусусан, Саудия Арабситони ва Бирлашган араб амирликлари узок кузатувдан кейин минтақа давлатларига катта миқдордаги сармояларни йўналтира бошлади. Бирлашган Араб Амирликлари ва Саудия Арабистони асосан энергетика секторига сармоя киритаётган бўлса, Уммон Султонлиги минтақанинг транспорт соҳасига қизиқиш билдирган, Тожикистон ва Қирғизистонда масжидлар қуришга маблағ ажратаётган Қатар давлатининг асосий мақсади эса ҳозирча аниқ эмас.

Яқин Шарқ ва Марказий Осиё бўйича эксперт Теодор Карасикнинг фикрича, Араб давлатларининг Марказий Осиёга йўналтирилган сармоявий сиёсатида асосий эътибор энергетика соҳасига қаратилган. Ҳақиқатдан ҳам, сўнги 3 йил давомида БАА ва Саудия Арабистони минтақадаги энергетика тармоқларини ривожлантириш ҳамда инфратузилмани такомиллаштиришда бир қатор шартномаларни имзолади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Жумладан, БААнинг Masdar ва Mubadala Development компаниялари 2019 йилда Ўзбекистон ҳукумати билан 10 миллиард АҚШ доллари миқдорида сармоя киритиш тўғрисида шартнома имзолаган бўлса[1], жорий йилнинг март ойида Саудия Арабистонинг ACWA Power компанияси Ўзбекистон Энергетика вазирлиги билан умумий қиймати 2,5 миллиард АҚШ долларига тенг учта келишув имзолади[2]. Дубайнинг Dragon Oil компанияси Туркменистонда нефть қазиб олиш билан шуғулланаётган ягона хорижий компания[3] бўлса, Яқин Шарқ ва Шимолий Африка минтақасида йирик компания ҳисобланадиган DP World Дубай компанияси Қозоғистоннинг Каспий денгизи ҳудудидаги Хоргос иқтисодий зонасининг 51% ҳамда Актау иқтисодий зонасининг 49% акцияларини сотиб олган.[4]

Ўзбекистоннинг Форс кўрфази араб давлатлари билан ҳамкорлик алоқларининг шаклланиш босқичлари

Ўзбекистоннинг араб давлатлари билан муносабатларини шартли равишда икки даврга ажратиш мумкин: 90-йиллардан – 2017 йилгача ва 2017 йилдан бугунги кунгача.

Мамлакатнинг биринчи президенти Ислам Каримовнинг араб мамлакатларидаги ташрифларида эришилган қатор давлатлараро келишувлар Ўзбекистон Республикасининг араб давлатлари билан ҳозирги ўзаро муносабатларини фаоллаштиришда асос бўлиб хизмат қилди. Хусусан, Қувайтга (2004 й.), Мисрга (2007 й.), БААга (2008 й.), Уммонга (2009 й.) ташрифлар шулар жумласидандир.

Умуман олганда, 2007 йилдан бошлаб араб-ўзбек муносабатларида бироз жонланиш кузатилди. 2011 йил июнда Тошкентда Ўзбекистон-Саудия Арабистони ҳукуматлараро комиссиясининг 3-чи йиғилиши бўлиб ўтди. Тадбир доирасида бизнес-форум ташкил этилди ва инвестицияларни ўзаро рағбатлантириш тўғрисида протокол ва битим имзоланди. 2012 йил апрелда Саудия Маслаҳат кенгаши (парламент) раиси Абдулла Ал аш-Шайх бошчилигидаги делегациянинг Ўзбекистонга ташрифи уюштирилди. 2014 йил августда Маскат шаҳрида Ўзбекистон-Туркменистон-Эрон-Уммон транспорт йўлагини тузиш бўйича тўрт томонлама вазирлар учрашуви бўлиб ўтди.

Шундай бўлсада, минтақалар яқинлиги тўғрисидаги дўстона гапларга қарамасдан, томонлар муносабатлари ўртасида жиддий силжишлар кузатилмади. Саудия экспертларининг фикрича, 2000-йилларнинг бошларигача қирол оиласи ва Миср етакчилари Марказий Осиё давлатларининг ўзига хос жиҳатларини ўрганиш билан чекланганлар[5].

Ўзбекистон ва Форс кўрфази мамлакатлари, хусусан, Саудия Арабистони ўртасида имзоланган келишувлар тўла амалга оширилмади. Бу кўп жиҳатдан Яқин Шарқ ва Афғонистонда давом этган беқарорлик, 1999 йилда Тошкентда содир этилган террорчилик ҳаракатлари ва 2001 йил воқеалари шароитида сақланиб қолган давлатлараро ишончсизлик билан боғлиқ эди. Ўз навбатида, Ўзбекистон ҳам араб оламининг барча имкониятлари ва хавфларини синчиклаб ўрганди.

Шу тарзда, 2017 йилгача бўлган биринчи даврни ўзаро ўрганиш, имкониятларни қидириш, чекланган алоқалар ва ишончсизлик босқичи деб таърифлаш мумкин.

2017 йилда халқаро ва ички вазиятнинг кучайиши шароитида мамлакатнинг янги Президенти Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон ташқи сиёсатини ривожлантиришнинг янги стратегиясини[6] қабул қилиш ташаббуси билан чиқади. Унда МО минтақаси ва унинг яқин қўшниларига устувор аҳамият қаратилади. Шундан сўнг 2017 йил май ойида БАА ташқи ишлар ва халқаро ҳамкорлик вазири Шайх Абдулла бин Заид Ал Нахаян, 2018 йилда Миср президенти Абдулфаттоҳ ас Сисининг Тошкентга ташрифлари ва 2019 йил 24-26 март кунлари Президент Ш. Мирзиёевнинг БААга ташрифи араб-ўзбек муносабатлари ривожидида янги босқични бошлаб беради.

МУҲОКАМА

2018 йил 27 мартда Саудия Арабистони ташқи ишлар вазирининг ўринбосари А.С.Мирдад бошчилигидаги делегация “Тинчлик жараёни, хавфсизлик соҳасида ҳамкорлик ва минтақавий шерикли” мавзуида Афғонистон бўйича Тошкент

халқаро конференциясида иштирок этди. 2018 йил 3 декабрда Ар-Риёд шаҳрида, 4 декабрда Ал-Қувейт шаҳрида ва 5 декабрда Абуд-Даби шаҳрида ташқи ишлар вазирлари ўринбосарлари дажасида сиёсий маслаҳатлар ўтказилади.

Шунингдек, араб давлатларининг замонавий иқтисодиёт чақириқларини ва минтақадаги қатор мамлакатларда кузатилаётган ҳозирги инқирозни енгиб ўтиш учун ўз молиявий имкониятларини параллель бирлаштиришга бўлган саъй-ҳаракатларига эътибор қаратиш зарур. Хусусан, Араб давлатлари Лигасининг 4-саммити якуний декларацияси Арабистон рақамли иқтисодиётни ривожлантириш инвестиция жамғармасини ташкил этиш, араб оламида божхона тўсиқларини олиб ташлаш ва эркин савдо зонасини яратиш каби чақириқларни ўз ичига олган эди[7]. Бу каби тенденциялар Араб давлатлари Лигаси мамлакатлари билан минтақалараро иқтисодий ҳамкорлик учун янги имкониятлар эшигини очади, бу эса, Тошкент томонидан ҳисобга олинмаслиги мумкин эмас.

Жорий йил март ойидаги ЎЗР ва БАА музокаралари давомида икки томонлама ҳамкорликни ҳар томонлама кенгайтириш, савдо-иқтисодий, инвестицион, энергетика, банк-молия, қишлоқ хўжалиги, маданий-гуманитар, сайёҳлик ва бошқа соҳалар бўйича амалий ҳамкорликни мустаҳкамлаш масалаларининг муҳокама қилингани, 10 миллиард АҚШ долларига тенг ўзаро манфаатли икки томонлама хужжатлар ва инвестициявий келишувлар имзолангани бежизга эмас[8].

Ундан сўнг 2019 йил 29 мартда ЎЗР Ташқи ишлар вазири Абдулазиз Комилов ва Қувейт давлати Бош вазирининг биринчи ўринбосари, мудофаа вазири Шайх Носир Сабах ал-Аҳмад ас-Сабах билан учрашувлари чоғида Орол бўйи ҳудудидаги кўшма ижтимоий лойиҳалар кўзда тутилмоқда.

Ўзбекистонда муҳим ижтимоий-иқтисодий ва инфратузилмага оид, жумладан “Ўзбекистон – Туркманистон – Эрон – Уммон” транспорт йўлаги каби лойиҳаларни амалга ошириш учун Араб иқтисодий тараққиёти Қувейт жамғармаси ва бошқа сармоядорларнинг маблағларини жалб этишга алоҳида эътибор қаратилди.

Саудия Арабистони ва Бирлашган Араб Амирликларининг Ўзбекистондаги савдо-сармоявий лойиҳалари

Сўнгги йилларда Марказий Осиё мамлакатлари иқтисодиётининг турли соҳаларига сармоя киритишда Форс кўрфази араб давлатлари орасида БАА мутлоқ етакчи, кейинги ўринда эса Саудия Арабистони туради. Уларнинг соғлом рақобати сўнгги 2 йил ичида Ўзбекистонда кўзга ташланади. Ўзбекистондаги анъанавий ва муқобил энергия тармоқларини ривожлантириш учун аввал Амирликнинг Masdar ва Mubadala Development компаниялари 2019 йилда 10 миллиард АҚШ доллари миқдорида сармоя киритган бўлса, 2020 йилда Саудия

Арабистонининг ACWA Power компанияси худди шу соҳага 2,5 миллиард АҚШ долларини ажратди.

Аслида Саудия Арабистонининг сармоявий имкониятлари Амирликнинг имкониятларидан кам эмас, бироқ минтақа республикаларида Саудия Арабистонига нисбатан 90 йилларда шаклланган шубҳа билан қарашлар ҳамон сақланиб қолганлиги боис Саудия Арабистони сармояларига тез йўл очилмайди, деган фикрдаман.

Кўрфаз араб давлатлари орасида катта сармоявий имкониятларга эга давлатлардан яна бири – Қатар давлати ҳисобланади. У ҳозирча катта сармоявий битимлар тузмаётган бўлсада, Саудия Арабистони ва БАА томонидан Эрон билан фаол ҳамкорлик қилишда айбланадиган Қатарнинг Марказий Осиёда фаоллашуви Саудия Арабистонининг ҳам, Амирликнинг ҳам манфаатларига мос келмайди.

2017 йилда Саудия Арабистони бошчилигида бир қанча араб давлатлари Қатарга санкциялар эълон қилиб уни яққалаб қўйган эди. Шундан сўнг у ўзининг ташқи сиёсати йўналишини қайта кўриб чикди. Қатарнинг янгиланган ташқи сиёсатида Марказий Осиё ҳам маълум аҳамиятга эга. Қатар амирлари 2017 йилда Тожикистон, Туркменистон президентларини Доҳага таклиф қилиб бир қанча шартномаларни имзолади, бироқ катта сармоявий шартномалар эмас. Бу рақобат 2017 йил Туркменистон президентининг Қатарга ташрифи давомида ТАПИ газ қувури доирасида (масаласида) кўзга ташланди.

НАТИЖА

Гап шундаки, Доҳага ташрифи давомида Туркменистон президенти Қатар инвесторларига мазкур газ қувури лойиҳасига сармоя киритишни таклиф қилади. Бироқ, тажрибали Қатар инвесторлари ўзларининг энг катта бозори бўлган Жанубий Осиёга газ захираси бўйича Евроосиёда биринчи ўринда турувчи Туркменистон газининг кириб келишини истамади ва ТАПИ доирасида ҳамкорлик қилмади[9]. Қатарнинг Жанубий Осиё бозоридаги манфаатларига реал хавф соладиган мазкур лойиҳани, ҳозирда Саудия Арабистони фаол қўллаб қувватламоқда. Қатар 2014 йилда Марказий Осиё давлатларини очик денгизга олиб чиқувчи “Ашхобод битими” – Туркменистон-Ўзбекистон-Эрон-Уммон транспорт коридори лойиҳасидан ҳам чиқиб кетган эди.

ХУЛОСАЛАР

Араб-ўзбек муносабатларидаги ҳозирги фаоллик қандайдир янги ҳодиса эмас. Бу кўпроқ 90-йилларда араб олами билан кўзда тутилган ўзаро манфаатли ва прагматик муносабатларни янги шароитларда қуришнинг давом эттирилиши ва тезлашишидир.

2017 йилгача бўлган босқичда томонлар бир-бирларининг имкониятлари ва салоҳиятларини чуқур ўрганганлар. Энг аввало сиёсий режимлардаги тафовутлар ва Араб хуудларидан радикал ғояларнинг кириб келиш таҳдиди ушбу муносабатларнинг тўла ривожланишига тўсқинлик қилган.

Яқин Шарқда келишмовчиликлар ва низолар, ички сиёсатдаги мураккабликларнинг сақланиб қолишига қарамасдан, ҳозирги араб-ўзбек ҳамкорлиги олдингига нисбатан анча фаол ва иқтисодий хусусият касб этади, минтақавийлик, прагматизм, рационализм ва давлатлараро манфаатларнинг мутаносиблиги тамойилларидан келиб чиқади. Томонлар бир-бирларини етарлича ўргандилар ва бугунги кунда “юмшоқ сиёсат” сингари воситалардан, иқтисодиёт ва маданият, таълим ва дин соҳалари бўйича ҳамкорлик қилишдан самарали фойдаланмоқдалар.

Шу билан бирга, жаҳонда ва МО минтақаси атрофида кузатилаётган геосиёсий кескин вазият, Яқин Шарқ ва Марказий Осиёдаги беқарорлик ҳам жиддий роль ўйнашда давом этмоқда. Шу муносабат билан кўп нарса Сурия ва Афғонистон барқарорлигига, Яқин Шарқда Эрон-Саудия Арабистони кескинлигини камайтиришга боғлиқдир. Шубҳасиз, Ўзбекистон ўз хавфсизлиги манфаатида дунёнинг етакчи державалари, хусусан араб давлатлари билан ҳам тенг конструктив ҳамкорлик қилишда давом этади. МОда қабул қилинган лойиҳаларни амалга оширишдан олинган иқтисодий фойда ижобий тенденцияларни мустақамлашда муҳим омил бўлиб хизмат қилади, бу минтақавий рақибларни маълум даражада яраштириши ва минтақавий кескинликни камайтириши мумкин.

REFERENCES

1. <https://www.mubadala.com/en/news/mubadala-and-republic-uzbekistan-concluded-strategic-agreements>
2. <https://gulfbusiness.com/saudi-arabias-acwa-power-uzbekistan-sign-2-5bn-energy-agreements/>
3. <https://www.mei.edu/publications/why-gulf-states-are-investing-central-asia-and-south-caucasus>
4. Rauf Mammadov. <https://www.mei.edu/publications/why-gulf-states-are-investing-central-asia-and-south-caucasus>. November 25, 2019
5. Мунавваров, Заҳидулло И. XX асрда халқаро сиёсий ва иқтисодий муносабатларда Арабистон ярим ороли мамлакатлари. Тошкент, 1997, 213б.
6. Why Saudi Arabia will Struggle Draw Investors in 2019. Dec 12, 2018, <https://worldview.stratfor.com/article/why-saudi-arabia-will-struggle-draw-investors-2019>

7. 2018 йил январь-декабрь ойларида Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. ЎзР Статистика давлат қўмитаси, Тошкент, 2019
8. Арафат, Ибрагим. Мисрнинг Марказий Осиё давлатлари ва Монголия билан муносабатлари. – Муҳаммад Саййид Салим, Муҳаммад Сафииддин Харбуш, Абдулазиз Шади. Мисрнинг мустақил давлатлар ҳамдўстлиги мамлакатлари, Албания, Босния ва Герцеговина, Македония ва Монголия билан муносабатлари. Қоҳира университети ҳузуридаги Осиё тадқиқотлари маркази. 2000, 118 б.

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIY ASARLARI MOVARANNAHRNING XV ASR TARIXIGA OID MANBAA SIFATIDA

Bahodirxonov Usmonxon

ToshDShU magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning “Zafarnoma” nomi bilan mashhur tarixiy asarlari XIV–XV asrlarda Temur va Temuriylar hukmronligi davridagi Markaziy Osiyo, Oltin O‘rda xonligi, Ozarbayjon, Eron, Afg‘oniston, Iroq, Suriya, Misr, Turkiya va boshqa mamlakatlar tarixiga oid voqealarni o‘z ichiga olganligi haqida qisqacha ma‘lumot beriladi. Maqolada asosiy e‘tibor har ikki asardagi XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning boshida Movarannahrda sodir bo‘lgan muhim tarixiy jarayonlar tahliliga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Movarannahr, “Zafarnoma”, Buxoro.

NIZAMIDDIN SHAMIY AND SHARAFIDDIN ALI WRITTEN WORKS AS A SOURCE ON THE HISTORY OF XV MOVARANNAHR

Bahodirkhonov Usmonkhon

Master of TSUOS

ABSTRACT

This article deals with the history of Central Asia, the Golden Horde, Azerbaijan, Iran, Afghanistan, Iraq, Syria, Egypt, Turkey and other countries during the reign of Timur and the Timurids in the XIV-XV centuries. a brief description of the events. The article focuses on the analysis of important historical processes that took place in Movarannahr in the second half of the 14th century and the beginning of the 15th century in both works.

Keywords. Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Movarannahr, “Zafarnoma”, Buxoro.

KIRISH

Markaziy Osiyo, ayniqsa, Movarounnahr va Xuroson xalqlari tarixida XIV - XV asrlar, Amir Temur va uning avlodi Temuriylar sulolasi hukmronligi bilan bog‘liq katta siyosiy o‘zgarishlar va ayni bir vaqtda iqtisodiy va madaniy, fan, ma‘naviy hayot xullas jamiyat hayotining barcha sohalariga daxldor rivojlanishlar davri bo‘ldi. Shuning uchun

ham bu davrni dunyo ilmiy tadqiqotlarida Markaziy Osiyo tarixidagi buyuk yuksalish davri deb baholab kelinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi kunlarda bu tadqiqotlar uchun manbaa xizmatini o'tab kelayotgan tarixiy asarlarni yaratish ham o'sha vaqtlardayoq keng rivoj topib, XV asrda va undan keyin xam taniqli muarrixlar tomonidan davom ettirildi. Bu asarlarda sohibqiron Amir Temurning Movarounnahrda markazlashtirilgan davlatni barpo etish uchun olib borgan kurashlari, harbiy yurishlari, davlatchilik siyosati hamda xalqaro diplomatik va savdo aloqalarini mustahkamlashga, dehqonchilik va hunarmandchilikni, madaniy qurilishlarni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlari yozib qoldirilgan. Ana shunday yozma yodgorliklarning eng dastlabkilaridan biri Amir Temurning bevosita topshirig'i bilan mohir adib va tarixnavis Nizomiddin Shomiy tomonidan yozilgan "Zafarnoma" nomli asardir¹.

"Zafarnoma" ning yozilish tarixi haqida shuni ta'kidlash lozimki, Mavlono Shomiyning o'zi bergan ma'lumotga ko'ra, hijriy 804 yili (1401 yil 11 avgustdan 1402 yil 1 avgust oralig'i) Amir Temur uni huzuriga chorlab, o'z yurishlari bitilgan yirik bir asar yaratishga undagan. Sohibqiron o'sha davrga qadar munshiy va kotiblari tarafidan tuzilgan bitiklar uni qoniqtirmaganligini aytgan. Yozilajak asar bir tomondan, avom xalqqa tushunarli, sodda, ravon tidda va ayni paytda ma'rifatli kishilar e'tiboriga ham loyiq tarzda yozilishini uqtirgan. Mavlono Nizomiddin bu mas'uliyatni o'z bo'yniga olgan.²

Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma" asarini yozish uchun qanday manbalardan foydalanganligi xususida, afsuski, na o'zining va na zamondoshlari asarida uchraydi. Lekin "Zafarnoma" asarini tadqiq etish natijasida Shomiy quyidagi manbalardan foydalanganligini taxmin qilish mumkin:

1. Amir Temurning kotiblari nazm, nasrda forsiy, turkiy tillarida yozgan kundaliklar va bitiklar. Bular Nizomiddin Shomiy va undan keyingi mualliflar davrida mavjud bo'lgan bo'lsa ham, bizning davrlarga yetib kelmagan yoki hali topilganicha yo'q;
2. Muallifning o'zi keyingi 2–3 yil davomida Amir Temur yurishlari shohidi bo'lgan va yozib olgan voqealar;
3. Amir Temurning Hindistonga yurishi bilan bog'liq voqealar bayon etilgan G'iyosiddin Alining "Amir Temurning Hindistonga yurish kundaligi" asari³.

¹ Низомиддин Шомий ва унинг "Зафарнома" асари. Форс тилидан угирувчи - Юнусхон Ҳакимжонов. «Ўзбекистон» нашриёти, 1996 й. Б. 3.

² "Zafarnoma", 1-jild, 10–11-betlar.

³ Bo'riev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. T., 1997y

MUHOKAMA

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari o‘zida jamlangan tarixiy ma’lumotlarning ishonchliligi bilan XV - XVI asrlardanoq boshqa asarlar uchun bosh manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla’i sa’dayn va majma’i bahrayn” (“Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo‘shilish joyi”), Fasih Havofiyning “Mujmali Fasihiy”, Muhammad Fazlulloh Musaviyning “Tarixi hayrot”, Xotifiyning nazmda bitilgan “Temurnoma”, Mirxondning “Ravzat us-safo” (“Poklik bog‘i”), Xondamirning “Habib us-siyar” (“Yaxshi xislatlar”) va boshqa bir qator asarlar shular jumlasidandir. Ularning har birida ilgari asarlardagi voqealar har xil tahrirlarda qaytarilishi bilan birga boshqalarida uchramaydigan voqealar tafsiloti ham mavjud.

Shomiy “Zafarnoma”sining faqat ikki qo‘lyozma nusxasigina saqlanib qolgan. Birinchisi, Amir Temurga taqdim etilgan qo‘lyozmadan 1425 yilda qo‘chirilgan nusxasi bo‘lib, u Istanbuldagi “Nuri Usmoniya” masjidi kutubxonasida, 3367-inventar raqami ostida mavjud. Ikkinchisi, muallif Amir Temurning nabirasi Mirzo Umar bahodir ibn Mironshohga taqdim etgan ko‘lyozmadan 1434 yili ko‘chirilgan nusxa bo‘lib, u Londondagi Britaniya muzeyi kutubxonasida, 23980-inventar raqami bilan saqlanadi.

Taniqli matnshunos olim Feliks Tauer mazkur qo‘lyozmalar noqis bo‘lganligi sababli, ularni Hofizi Abruning “Zubdat ut-tavorix” asari bilan solishtirib tadqiq etish asosida “Zafarnoma”ning ikki jildidan iborat ilmiy tanqidiy matnini nashr ettirgan. Birinchi jildiga faqat “Zafarnoma” ilmiy tanqidiy matni kiritilgan. Ikkinchi jildida esa nashrning so‘zboshisi, qo‘shimchalar, nusxalardagi farqlar berilgan.

NATIJA

Asar keyingi vaqtlarda Sharq va G‘arb olimlari tomonidan o‘rganilib, undan qisqartirilgan tarjimalar amalga oshirilgan. Jumladan, 1949 yili Anqarada Nejoti Lug‘ol degan olim F. Tauerning nashri asosida qisqartirib, turk tilida tarjima qilgan. Undan tashqari, sharqshunoslikka oid bir necha kitoblarda bu asardan terma tarjimalar e‘lon qilindi. Bu tarjimalar to‘liq bo‘lmasada noyob bo‘lib qolgan. Shuni nazarga olgan holda keyingi yillarda O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida “Zafarnoma”ning o‘zbek tiliga to‘liq ilmiy izohli tarjimasi Hofizi Abru “Ilova”si bilan birga nashrga tayyorlandi. Unga institutning sobiq ilmiy xodimi, marhum Yunusxon Hakimjonovning F. Tauer nashri bo‘yicha qilingan dastlabki qoralama tarjimasi asos qilib olingan⁴.

Sharq tarixnavisligining eng nodir yodgorliklaridan biri va Amir Temur davri tarixining birlamchi manbalaridan bo‘lgan “Zafarnoma” uzoq vaqtdan buyon

⁴ Bo‘riev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. T., 1997y

sharqshunos tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Daliliy ma'lumotlarning to'liqligi hamda ishonchliligi tufayli u o'sha davr manbalari orasida hanuzgacha muhim o'rin egallaydi.

XV va XVI asrlarda "Zafarnoma" qahramonlik qissasi janrida ikki marta she'riy yo'l bilan o'zbek tilida Lutfiy, fors tilida Abdurahmon Jomiyning jiyani Hotifiy (vafoti – 1521) tomonidan kuylangan edi. XVI asr boshlarida Shayboniylarning dastlabki vakillaridan Kuchkunchixon (1510–1530) topshirig'iga muvofiq Muhammad Ali ibn Darvesh Ali Buxoriy tomonidan "Zafarnoma" o'zbek tiliga tarjima qilingan. Adabiyotlarda Hofiz muhammad ibn Ahmad al-Ajamiy tomonidan asarning turk tiliga tarjima qilinganligi haqida ham ma'lumot bor. Bulardan tashqari "Zafarnoma" 1822–1823 yillarda Xivada Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammad So'fi al-Xivoqiy tomonidan o'zbek tiliga qisqartirib tarjima qilinganligi ham ma'lum.

XVIII asrdan boshlab "Zafarnoma"ning ayrim qismlari fransuz (Peti de la Kroat, 1713), ingliz (J. Darbi, 1723) va rus tiliga ham tarjima qilingan. Asarning forscha matni esa 1887–88 yillarda Kalkuttada (Hindiston), 1958 yili Tehronda (Eron) chop etilgan. Biroq bu nashrlarda asarning "Muqaddima" qismi hamda zaruriy ko'rsatkichlar berilmagan. 1972 yili Toshkentda asarning har ikki qismini qamragan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 4472-raqamli qo'lyozmaning maksimal nashri amalga oshirildi. Bunda tarixiy manbalar ilmiy nashri uchun zaruriy bo'lgan so'zboshi va turli ko'rsatkichlar bilan birga asar matnining har xil nusxalari va nashrlari orasidagi farqlar ham qayd etildi.

1499-yildan boshlab O'rta Osiyoga o'z yurishlarini boshlagan Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) temuriylar ichidagi ichki nizo va noittifoqlikdan foydalanib, Movaraunnahrga nisbatan istilochilik harakatlarini boshladi. Temuriy shahzodalardan, shu vaqtdagi yagona movaraunnahrlik iqtidorli va harbiy sarkardalik mahoratiga ega bo'lgan, keyinchalik buyuk shoir va davlat arbobi darajasiga chiqqan Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530) sa'yi-harakatlari ham o'zining tegishli natijasini beradi. 1505-1506 yillarga kelib Shayboniyxon Xorazm va Movaraunnahrni to'liq egallaydi. Shayboniyxon qarshi kurashish uchun yo'lga chiqqan Xuroson hukmdori Sulton Husayn (1469-1506) 1506-yilning bahorida vafot etadi. Sulton Husaynning vorislari o'tasida toju-taxt uchun kurash avj olib, natijada hokimiyat ikkita shahzodaga-Badiuzzamon Mirzo bilan Muzaffar Mirzolarga o'tadi. Qulay vaziyatdan foydalangan Shayboniyxon 1507-yili shahzodalarni tor-mor etib, qattiq janglardan so'ng poytaxt Hirot va butun Xurosonni o'z qo'li ostiga oladi.

XULOSA

Shunday qilib, deyarli bir yarim asr davom etgan shon-shavkatli Temuriylar saltanati o'z nihoyasiga yetadi. Temuriylarning oxirgi zabardast vakili Zahiriddin

Muhammad Bobur 1525-yilgi Panipat jangidan so`ng shiraoliy Hindistonni egallashga muvaffaq bo`ladi. Boburiylar sulolasi Hindistonda deyarli uch asr mobaynida hukmronlik qilib, ko"p holda temuriylarning shon-shuhratini bu yerda tiklashga muvaffaq boladilar.

REFERENCES

1. Низомиддин Шомий ва унинг "Зафарнома" асари. Форс тилидан угирувчи - Юнусхон Хакимжонов. «Узбекистон» нашриёти, 1996 й. Б. 3.
2. "Zafarnoma", 1-jild, 10–11-betlar.
3. Bo`riev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. T., 1997 y
4. Amir Temur Jahon tarixida. T., 2001 y.
5. Azamat Ziyov. O`zbek davlatchiligi tarixi. T., 2000 y.

MAKTABGACHA TA'LIM QANDAY TALABLARGA JAVOB BERISHI KERAK?

Saydasova Charosxon

Toshkent shahar Mirobod tuman 174-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti mudirasi

ANNOTATSIYA

Maktabgacha ta'lim muassasasi belgilangan davlat normativlariga va maktabgacha ta'lim muassasasiga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, ularga qarab turish va ularni parvarish qilishni hamda sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: ta'lim muassasasi ustavi, ijtimoiy-kommunikativ, madaniy-gigiyenik ko'nikmalar

WHAT REQUIREMENTS SHOULD PRESCHOOL EDUCATION MEET?

Saydasova Charoskhon

Head of the 174th state preschool educational institution of Mirabad district of Tashkent

ABSTRACT

Pre-school educational institution shall ensure the upbringing, education, looking after and taking care of children in accordance with the established state norms and requirements of the pre-school educational institution, as well as the improvement of their health.

Key words: Charter of an educational institution, socio-communicative, cultural-hygienic skills

KIRISH

Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim mazmuni O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan yoki tavsiya qilingan dasturlar bilan belgilanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi o'z (mualliflik) dasturlaridan foydalanishga haqlidir. Bunday dasturlarni tasdiqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktabgacha ta'lim muassasasining ish rejimi va bolalarning u yerda qancha vaqt bo'lishi maktabgacha ta'lim muassasasi ustavi va muassisning qarori bilan belgilanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi (guruh)ning kunduzgi va kechki vaqtlarda hamda kechayu kunduz faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'yiladi.

Yangi davlat talablari:

- davlat maktabgacha ta'lim muassasalari;
- nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari;
- qisqa muddatli guruhlar;

-7 yoshgacha bolalar mavjud bo'lgan mehribonlik uylari va bolalar shaharchalariga nisbatan tatbiq etiladi.

Quyidagilar Davlat talablarining vazifalari hisoblanadi:

bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash;

- bolalarda o'qishga qiziqishni hamda o'qishga intilish hissini uyg'otish;
- bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun integral ta'limni tashkil etish;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyani amalga oshirish;
- bolalarni xalqimizning an'analari asosida tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

-bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashda ularning ota-onalari bilan o'zaro hamkorlik qilish hamda ota-onalarga amaliy jihatdan ko'maklashish;

-bolalarda ijtimoiy-kommunikativ, axloqiy, estetik sifat va salohiyatlarni uyg'otish hamda rivojlantirish;

-bolalarni sog'lom turmush tarzi bilan tanishtirish;

-bolalarda mustaqillik, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik xislatlarini shakllantirish.

Davlat talablari asosiy yo'nalishlar bo'yicha har bir yosh guruhi uchun indikatorlar to'plamini namoyon etadi:

-jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish (yirik va mayda motorika, sensomotorikani rivojlantirish, madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish);

-ijtimoiy-kommunikativ rivojlantirish(ijtimoiylashuv, muloqot va odob-axloq qoidalarini shakllantirish, bolaning oila va jamiyatda o'zini tutishi, bolada mehnat tarbiyasini, xavfsizlik asoslarini shakllantirish);

-nutq, savod, o'qish va chet tillarining o'rgatilishiga tayyorlash;

-bilish jarayonini rivojlantirish(dunyo haqida bilim va tushuncha berish, elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish);

-badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish (badiiy estetik, musiqiy ko'nikmalarni rivojlantirish).

MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga davlat tashrifi doirasida Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan 20 ga yaqin uchrashuvlar o'tkazilib tajriba almashinuvi O'zbekiston eksperimental tarzda bolalar bog'chalarni ochish birgalikda kadrlar tayyorlash va ilmiy izlanishlar olib borish

imkoniyatlarini o'rganib chiqish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Koreyaning ta'lim tizimiga kadrlar tayoorlashga ixtisoslashgan va tasarrufida maktabgacha ta'lim muassalari bo'lgan oliy ta'lim muassalari bilan hamkorliklarini rivojlantirish maqsadida Sanmyong Universteti , (sangmyung University) bilan Hadli kelishuvlar imzolanadi. Shuningdek Chonnam Milliy Universteti (Chonnam National Universtiy) bilan hamkorlik memorandumlari imzoladi.

XULOSA

Tarbiyachi ta'limning rivojlanish sohalaridagi muammolarga e'tiborni qaratadi, qanday sifatlarni qo'llab-quvvatlash talab qilinishi, har bir bola uchun qanday vazifalar dolzarbligini aniqlaydi. Bundan tashqari, u bola rivojlanishi xaritasini muayan davr davomida bolaning yoshini hisobga o Shunga mufoviq ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritiladi, shuningdek, yakka tartibda ishlash rejalashtiriladi va tarbiyachining kundalik ish daftarida aks ettirilgan vazifalar amalga oshiriladi. Shu karta bo'yicha o'quv yili oxirida (odatda may oyida) shu xarita asosida yakuniy kuzatuv olib boriladi.

REFERNCES

1. <https://fayllar.org/ozbekistondagi-maktabgacha-talim-turlari.html>
2. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/maktabgacha_talim_qanday_talab_larga_javob_berishi_kerak

ЎСМИРЛАРНИНГ КАТТАЛАР БИЛАН БЎЛАДИГАН МУЛОҚОТИ ВА УНИНГ ЎРНИ

Балтаев Жасурбек

Элликкаля тумани 67-сонли мактаб психологи

Балтаева Хилола

13-мактаб психологи

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада оилада фарзанд тарбияси ота ва она фарзанди мулоқотининг ўрни, бу мулоқотнинг ўсмирлар ҳаётига таъсири ҳақида маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: Мулоқот, ўсмирлар, психологик ўйинлар, машқлар, тренинглар, тафаккур, нутқни ўстириш

ADOLESCENTS' INTERACTION WITH ADULTS AND THEIR ROLE

Baltaev Jasurbek

School Psychologist, 67, Ellikkala District

Baltaeva Khilola

13th School Psychologist

ABSTRACT

This article provides information about child rearing in the family, the role of parent-child communication, the impact of this information on the lives of teenagers

Keywords: communication, teenagers, psychological games, exercises, trainings, developing contemplation and speech

КИРИШ

Наслимиз давомчиларини нафақат жисмонан бақувват, балки маънавий бой, янги давр талабига жавоб берадиган, мулоқот жараёнида эркин фикр юритадиган қилиб тарбиялаш ҳозирги куннинг долзарб муаммоларидандир. “Таълим тўғрисида”ги қонун, “қадрлар тайёрлаш миллий дастури”да шахснинг эркинлиги, мустақил фикрлаш қобилятини шакллантириш, муомала маданиятини таркиб топтиришга бирламчи эътибор қаратилган. Шундай экан, ўсмир ва ўспиринларни мулоқот жараёнида мустақил фикрини эркин ифодалаш малакаларини ва уларнинг танқидий фикрлашини шакллантириш психолог-педагоглар олдида турган долзарб масалалардан биридир. Зеро, ХХ1 асрда яшайдиган ҳар бир

инсоннинг танқидий фикрлаши учун аввало мулоқотга ўргатиш зарур. Ўсмир ва ўспиринларни мулоқотга ўргатиш учун уларга психологик, педагогик адабиётларни ўқишга тавсия қилиш, мулоқот жараёнида ёшлар фаолиятини кузатиш, фикрлашини аниқлаш ва шу жараёнда психологик ўйинлар, машқлар, тренинглардан фойдаланиш муҳимдир.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Мактабнинг ўрта ва юқори синфларда ёзма нутқ мазмунли, таъсирли бўлиб, грамматик жиҳатдан тобора тўғри, мукамал тузилиб боради ва оқибатда бундай нутқ оғзаки нутқнинг ўсишига ижобий таъсир кўрсата бошлайди. Болалар нутқи бевосита катталар нутқи таъсирида ўсади. Шунинг учун ўқитувчи нутқи ўқувчилар нутқини ўстиришда намуна бўлиб хизмат қилиши керак.

Ўқувчилар тафаккурини ўстирмай туриб, уларнинг нутқини ўстириб бўлмайди. Оғзаки гапириш, баён ёки иншо ёзишда ўқувчиларнинг режа тузиб олишларига эътибор бериш керак. Ёзма ва оғзаки нутқни ўстириш учун китоб устида мунтазам ишлаш, ўқиган матнларнинг тезисини, конспектини тузиш, маъруза, рефератлар тайёрлаш, адабий кечалар, ёзувчилар билан учрашиш муҳим аҳамиятга эга. Нутқ шартли рефлекслар пайдо бўлишининг умумий қонунлари асосида ўсади. Агар киши бирор бир товушни нотўғри талаффуз қилишга ўрганиб қолган бўлса, унда бу камчиликларни тугатиш қийин бўлади. Шунинг учун болаларда ёшлигиданоқ ижобий нутқ одатларини тарбиялашга аҳамият бериш зарур.

Ўсмирлар мулоқотида нисбатан ўспиринлар мулоқоти анча тарбияланган бўлади. Чунки улар мулоқот маданияти, муомала сирларини эгаллаган бўладилар.

Бизнинг юксак маънавий эҳтиёжларимиздан бири-бу мулоқотга бўлган эҳтиёж. Мулоқотга бўлган эҳтиёжимиз қондирилмаса, онгимиз ҳам ривожланмайди. Шунинг учун биз доимо мулоқотга бўлган эҳтиёжимизни қондиришимиз лозим. Кимлар биландир мулоқотдан қониқиш ҳосил қиламиз, баъзи ҳолларда эса биз қониқмасликни ҳис қиламиз. Катта ёшдаги кишилар расмий ва норасмий муносабатларга киришадилар. Расмий муносабатлар иш, хизмат юзасидан бўлади. Норасмий мулоқот эса ишдан бошқа пайтларда, ўйда (оила), маҳаллада, кўча - кўйларда бўлади.

Катталар мулоқотида кўпинча мулоқот маданияти амалга оширилади, яъни бир-бирларини ҳурмат қилиш, ишониш, англаш кабилар. Аммо баъзи пайтларда мулоқот бузилиши ҳам мумкин. Чунки катталар айрим пайтларда бир-бирларини тушунмасдан хафа қилиб қўйишлари, кўнгилга оғир ботадиган гаплар айтиб юборишлари, натижада низоларни келтириб чиқаришлари мумкин. Агар мулоқот

маданияти кишиларда яхши шаклланган бўлса, улар бир-бирларини тушунишлари осон рўй беради. Мулоқот маданияти ёшликдан оилада, ижтимоий муҳит таъсирида, ўз-ўзини англаш, тарбиялаш оқибатида шаклланиши мумкин. Биз катталар ёшларга намуна, ибрат бўлишимиз бир-биримизга бўлган мулоқотимиздан келиб чиқади. “**Олтин сўзлар**” (азизим, айланай, ўргилай, жуда ҳам ажойибсиз, бугун бошқачасиз, очилиб кетибсиз, кийимингиз жуда ярашибди каби) дан кундалик ҳаётимизда кўпроқ фойдаланишимиз зарур. Катталар мулоқотига ёшлар тақлид қилишлари орқали уларда муомала санъати, маданияти шаклланиб боради. Айниқса, оилада биз бу ҳолатларга эътибор беришимиз керак. Чунки “қуш уясида кўрганини қилади” деган нақл бежиз эмас.

МУҲОКАМА

Катталар ҳам бир-бирларига вербал, новербал ва паралингвистик таъсир кўрсатадилар. Биз вақти келганда имо-ишора, мимика, паузалар орқали ҳам бир-биримизга таъсир эта оламиз. Бир оғиз сўз билан ҳам хурсанд, ёки хафа қила оламиз. Шунинг учун доимо катталар бир-бирларига самимий муносабатда бўлиб, таъсир қилишлари лозим.

Катталар мулоқоти маълум бир ёшларда ўзига хос бўлади. Масалан, катталар маълумотларига, ёшларига, жинсларига, касбларига қараб мулоқотда бўладилар. Кексалар мулоқоти ўзига хосдир. Улар худди кичик болалардек иззат-талаб, инжик, эътибор талаб бўлиб қоладилар. Кексаларга эҳтиёткор бўлиб муомалада бўлиш зарур, чунки кўнгиллари нозик бўлади. Уларга кўнгилларини кўтарадиган сўзларни кўпроқ қўллаш зарур.

Демак, ҳар бир ёшга кирадиган кишилар, шу жумладан, катталар ҳам ўзига хос мулоқотга киришадилар. Мулоқот ҳар бир даврга хос ҳолда амалга оширилади. “Мен ўз боламни танимай қолаяпман”, “Фарзандимиз гўёки алмаштириб қўйилганга ўхшайди, илгари у тилла бола эди”, “Фарзандимизни тушунмай қолаяпмиз ёки улар бизни тушунишмаяптиларми?”, “Фарзандларимизни тарбиялаш тобора қийинлашиб борапти” сингари саволлар-у мулоҳазалар аксарият ота-оналарни қийнайди. Очиғини айтганда, ота-оналар билан фарзандлар ўртасидаги муносабатларда кузатиладиган бундай муаммолар битта ёки иккита оилага тааллуқли муаммо эмас, балки у кўпчилик оилаларни қийнаётган муаммо ҳисобланади.

Дарҳақиқат, ота-онанинг тарбиясини қабул қилмайдиган, уларнинг ўғитларини эшитмайдиган, турли-туман нотўғри йўлларга кириб кетган болалар қаердан пайдо бўлади? Қандай қилиб шунақанги болаларнинг пайдо бўлишининг олдини олиш мумкин? Умуман, хулқи оғишган болаларни қайтадан тарбиялаб бўладими? Тарбиялаб бўлса, қандай тарбиялаш зарур? Аксарият ота-оналар

шунга ўхшаш саволлар билан мутахассисларга мурожаат қилишади. Уларнинг безовталигини тушунса бўлади. Чунки хушхулқ, одобли, ҳар томонлама етук бола ота-она кўзининг нури, қалбининг кўридир. Бундай фарзандларни вояга етказиш икки томонлама фойдалидир. Биринчидан, бундай фарзандлар жамиятимизнинг устунлари бўлиб, уларнинг елкасига қурилган бино мустаҳкам бўлади ва натижада мамлакатимизнинг ижтимоий, иқтисодий ва маънавий-руҳий тараққиёти жадаллашади. Иккинчидан, бундай фарзандлар билан ота-оналар кексалик гаштини суриши мумкин ва натижада мамлакатимиздаги демографик муаммолар ҳам ўз ечимини топади.

Бу оламда ҳеч бир нарса ўз ўзича, тасодифан ёки шунчаки пайдо бўлмайди. Дунёда содир бўладиган ҳар бир нарсанинг ўз мантиғи ва сабаби бор. Бу ҳақиқат ҳар қандай одамга маълум. Бир нарса иккинчи нарсани дунёга келтиради. Бу ҳақиқат хусусан таълим ва тарбияга ҳам тўғри келади. Баъзида болаларимизнинг тўсатдан ўзгариб қолганлигини тушунмаймиз. Ўзимизча бунга тасодиф деб ўйлаймиз. Холбуки боладаги айнан мана шу ўзгаришнинг замирида бизнинг нотўғри тарбиямизнинг натижаси ётганлигини англамаймиз.

Катталарнинг болаларга тарбиявий таъсири бола ҳаётида ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган масала ҳисобланади. Сизнинг эътиборингизга ҳавола этилаётган мазкур қўлланма нафақат фарзандингизда ғайриодатий хулқ-атворнинг пайдо бўлиш сабабларини тушуниб олишингизга ёрдам беради, балки одатда тажрибасиз ота-оналарда кузатиладиган, улар орасида тарбиядаги кенг тарқалган хатоларнинг олдини олиш имкониятини беради.

НАТИЖА

Бу ерда бугунги кунда ота-оналарни қийнаган кўпчиликни қизиқтирган саволларига жавоб топади, деган умиддамиз. Бундай тарбия беришдаги куйидаги усуллар билан танишамиз : 1)“ҳаракат қоидалари” усули; 2) “боғ” усули; 3) “мукофот ва жазо” усули. “Ҳаракат қоидалари” усулида худди йўл ҳаракати қоидаларига ўргатиш кўринишида болага таъсир қилинади. Ота-оналар болани маълум қоидаларга ўргатилса, шунинг ўзи етарли, деб ҳисоблашади. Бола ўзини ёмон тутадиган бўлса, демак, ота-оналар унга яхшилаб тушунтирмаган, деб ҳисоблашади. Болада кузатиладиган барча камчиликларда “Мен сенга айтгандим-ку”, “Неча марта такрорлаш керак”, “Мен сени огоҳлантирган эдим” сингари гаплар билан маломат қилишади. Айтилган ўғитларнинг афсонавий кучига ишонишади ва уларнинг фикрига кўра инсоннинг ҳаёти айтилган ўғитларга риоя қилишдан иборат, деб билишади. Шунинг учун аксарият ота-оналар ўз фарзандларининг тарбиясида фақат панд-насихатлар етарли деб билишади. Бирок

тарбия фақатгина “Мен айтгандим-ку”нинг устига қурилмайди. Бизни тарбиянинг бу усули алдайди ва тарбияда адашганимизнинг гувоҳи бўламиз.

Иккинчи усулнинг “боғ” деб аталишига сабаб шундаки, ота-оналар болага худди боғда экиб қўйган дарахтига карагандек қарашади. Гўё ота-она боғбон. “Боғбон” ота-оналар ўсиб келаётган ниҳолнинг нотўғри ўсган шохларини қирққандек, ўз боласининг камчиликларини тўғрилаб борсак етарли, деб ўйлашади. Шундай қилсак боламиз секин-аста яхшиланиб бораверади ва ёши улғайгани сари боламизнинг тарбияси юксалади, деган фикрдадирлар. Бола дарахт эмас, у инсон. Ўсимликларга қўлланиладиган усуллар болаларга таъсир қилмайди. Бундай тарбия усули билан ота-оналар қанчалик болалардаги камчиликларни камайтиришга уринишмасин, болалар ўзгариб қолмайди. Бу ҳақиқатни англамаган ота-оналар бир умр болалардаги камчиликлар билан курашадилар, бироқ уларнинг саъй-ҳаракатлари натижа бермайди.

Учинчи усул “мукофот ва жазо” усули деб аталади. Бунда ота-оналар болаларини айб иш қилиб қўйсалар жазолайдилар ва яхши иш қилсалар “мукофотлайдилар”, яъни мақтаб қўядилар. Болаларни табиёлаш учун шунинг ўзи етарли деб ҳисоблашадилар. Холбуки бола бу усул билан тарбияланганда ҳар доим ҳам яхшиланиб бормайди. Балки у ота-онасидан кўрқиб ёки унинг мақтовини олиш учунгина ҳаракат қилади. Бола ўзи қилаётган ишнинг асл моҳиятини тушуниб етмайди. Бундан ташқари, ота-оналарнинг ҳар доим ҳам адолатли бўлишлигига кафолат йўқ. Шу нуқтаи назардан тарбиянинг бу усули ҳам ҳар доим яхши самара бермайди.

Савол: Ота-оналар ва фарзандлар ўртасидаги мулоқот тарбиянинг асосий омили эканлиги ростми? Аксарият ота-оналар болалар катталашгани сари улардаги ота-оналари билан мулоқот қилишга нисбатан эҳтиёж камая боради, деб ҳисоблашади. Уларнинг фикрига кўра, боланинг ўзи катталардан ажралади, унда ўзига хос сирлар пайдо бўлади ва унда мулоқотга нисбатан эҳтиёж камаяди. Бундай фикрдаги ота-оналарнинг ўзлари болалари билан мулоқотдан қочади. Улар шундай деб ўйлашадилар: “Боланинг қорни тўқ, усти бут бўлса, уларга яна нима қилиб бериш керак”. Холбуки бола устининг бутлиги ва қорнининг тўқлиги унинг бахтли эканлигини, унда муаммолар йўқлигини билдирмайди.

ХУЛОСА

Масаланинг мураккаблиги шундаки, ота-оналар ўз фарзандлари билан мулоқотга киришмайдилар ва бола хулқ-атворидаги ўзгаришларни тушунишмайдилар. Боланинг ёш даврларида кузатиладиган барча кризисларида уларга фаол мулоқот зарур бўлади. Фаол мулоқот деганда болада кузатилаётган

муаммоларни, шубҳаларни, кутилмаган вазиятларни муҳокама қилиш назарда тутилади.

Ҳар бир ота-она ўзларига шундай савол бериб кўрмоғи зарур:

Мен кечқурун, эрталаб нонушта вақтида, мактабдан (коледжан, лицейдан) келганида ўз фарзандим билан нима ҳақида гаплашдим?

Фарзандим ўзини қийнаган муаммолар бўйича гаплашгани қачон менга учрашган эди?

Фарзандим билан мулоқот қилишга бир кунда қанча вақтим кетади?

Фарзандим билан мен қачон кинога, театрга борганман ёки у билан қизиқарли китобни муҳокама қилганман?

Фарзандим билан бартараф этилмаган бирорта низоли вазият қолдимми?

Сўнгги ойларда ёки йилда фарзандим ўзгардимми? Агар ўзгарган бўлса, қайси томонга: ижобий томонгами ёки салбий томонгами?

Агар боланинг хулқ-атворида салбий томонга ўзгариш кузатилса, албатта бу ҳолатнинг сабабини аниқлашга ҳаракат қилинг. Балки у ўзидаги маълум ўзгариш билан сизнинг эътиборингизни тортмоқчидир. Балки у сизни ёрдамга чақираётгандир. Сиз тезда уни тўхтатинг, унинг муаммоларини тингланг ёки сўраб олинг, мавжуд вазиятни тушунишга ҳаракат қилинг. Шу нарсани тушуниб етинг, фарзандингиз билан ўзаро бир-бирингизни тушуниш риштасини бир лаҳзада узишингиз мумкин, бироқ уни қайтадан тиклашингиз анча қийин кечади. Шунинг учун азиз ота-оналар фарзандингиз билан мунтазам суҳбатлашиб боринг.

REFERENCES

1. А. Г. Исмаилова. Стиль педагогического общения воспитателя детского сада // Вопросы психологии. 2000. № 5. 65—72-с.
2. Дейл Карнеги. Муомала сирлари. Т. «Наврўз» нашриёти. 1992
3. В. Каримова. Ижтимоий психология ва ижтимоий амалият. Т. 1999.
4. В. Каримова. Ф. Акрамова. Психология. (маърузалар матни) Т. 2000.
5. В. Каримова. Психология. (ўқув қўлланма). Т. 2002.
6. Дейл Карнеги. Изтироб Асоратлари. «Фарғона» нашр. 2005.
7. Кан-Калик. Учителю о педагогическом общении. М. "Просвещение". 1987.
8. Р.С. Немов. Психология: Учеб. для студ. высш. пед. учеб. заведений: В 3 кн. -3-е изд. —М. Гуман. изд. центр ВЛАДОС, 1999.—Кн. 1. Общие основы психологии. 511—527-с.
9. А. Ю. Панасюк. Психологическая наука на службе у руководителя. М. 1990.

ELEKTOLITIK DISSOTSIYALANISH NAZARIYASI MAVZUSI BO'YICHA YANGI TURDAGI MASALALAR VA ULARNING YECHIMI

Nizomov Biloliddin Xusanboy o'g'li
Mamajonov Ulug'bek Muxtarovich
Andijon mashinasozlik instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola kimyo fanini o'rganuvchilarning bilimlarini mustahkamlash va ularda kimyodan masalalar ishlashga bo'lgan ko'nikmalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Maqolada elektrolitik dissotsalanish mavzusiga oid ayrim yangi turdagi masalalar va ularning yechimi keltirilgan bo'lib, o'rganuvchilarning fikrlash qobiliyatlarini yanada oshirishga va ushbu mavzuni mustahkam o'rganishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Dissotsalanish darajasi, elektronlar soni, kation, dissotsalanish konstantasi, anion.

NEW TYPES OF PROBLEMS AND THEIR SOLUTIONS ON THE SUBJECT OF THE THEORY OF ELECTROLITIC DISSOCIATION

Nizomov Biloliddin Khusanboy ugli
Mamajonov Ulugbek Mukhtarovich
Andijan Institute of Mechanical Engineering

ABSTRACT

This article is intended to strengthen the knowledge of students of chemistry and their ability to work on problems in chemistry. The article introduces some new types of problems related to the topic of electrolytic dissociation and their solutions, which will help to further develop the thinking skills of the learners and make them study the subject more solidly.

Keywords: Dissociation rate, number of electrons, cation, dissociation constant, anion.

KIRISH

Kimyo fani tabiiy fanlar sirasiga kirib, moddalar, ularning xossalari va turli jarayonlar natijasida bir turdan boshqa turga aylanishini o'rganadi. Bu fan biologiya, geografiya, tarix, geologiya, fizika, matematika va boshqa ko'plab fanlar bilan bog'langan bo'lib, ular orasida matematika alohida o'rin tutadi. Chunki, kimyo fanining

ko'plab mavzularida masalalar ishlanadi va buning uchun bizga matematika fani yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotlarda quyidagi turdagi masalalar berilgan:

1. Elektrolitning har 300 ta molekulasidan 180 tasi ionlarga ajralgan bo'lsa, uning dissotsilanish darajasi necha foizga teng?
2. Sianid kislotaning 0,2 molyarli eritmasida vodorod ionlarining konsentratsiyasi $8 \cdot 10^{-3}$ mol/l bo'lsa, kislotaning dissotsilanish darajasini aniqlang.
3. Dissotsiyalanish darajasi 75% bo'lgan 400 ml 0,1M li bromid kislota eritmasida necha mol kation bo'ladi?
4. CH_3COOH ning 0,002 M li eritmasining dissotsalanish darajasi 9,4 % bo'lsa, sirka kislotaning dissotsalanish konstantasini toping?

Quyida biz "Elektrolitik dissotsalanish nazariyasi" mavzusi bo'yicha yangi turdagi masalalar va ularning yechimlarini ko'rib chiqamiz.

1 – masala.

Na_2SO_4 tuzining 300 ta molekulasining dissotsalanishi natijasida xosil bo'ladigan kationlar tarkibidagi elektronlar sonini toping? ($\alpha = 100\%$)

Yechim.

Masala shartiga ko'ra birinchi navbatda natriy sulfat tuzining dissotsalanish reaksiya tenglamasini yozib olamiz.



MUHOKAMA

Endi masalani ishlash uchun umumiy nechta kation xosil bo'lganini aniqlab olishimiz kerak. Reaksiya tenglamasiga ko'ra bitta natriy sulfat molekulasidan ikkita natriy kationi xosil bo'lyapti. Masala shartida berilgan 300 ta molekulaning hammasi ionlarga ajralishinibilgan holda ($\alpha = 100\%$) ulardan nechta kation xosil bo'lishini aniqlab olamiz:

$$\begin{array}{l} 1 \text{ ————— } 2 \text{ kation} \\ 300 \text{ ————— } x = 600 \text{ kation} \end{array} \quad x = \frac{300 \times 2}{1} = 600$$

Demak, 600 ta kaliy kationi xosil bo'ladi.

Endi elektronlar sonini topishimiz kerak. Buning uchun avval bitta natriy kationida nechta elektron bo'lishini topamiz. Natriy atomida 11 elektron bo'ladi. Natriy kation holatiga o'tganda bitta elektronini sulfat anioniga beradi. Shuning uchun bitta natriy kationida 10 ta elektron bo'ladi. Dissotsalanish natijasida xosil bo'lgan 600 ta kationda esa nechta elektron bo'lishini topamiz.

$$600 \times 10 = 6000 \text{ ta elektron}$$

Demak, 300 ta molekula dissotsalanishi natijasida xosil bo'lgan kationlar tarkibida 6000 ta elektron bo'ladi.

Ushbu masalani anionga nisbatan ham qo'llashimiz mumkin.

2 – masala.

Na_2SO_4 tuzining 600 ta molekulasi dissotsalanishi natijasida xosil bo'ladigan anionlar tarkibidagi elektronlar sonini toping? ($\alpha = 100\%$)

Yechim.

(1) ga ko'ra, bitta molekuladan bitta sulfat anioni, 300 tadan esa 300 ta anion xosil bo'ladi.

Sulfat anioni tarkibidagi elektronlar sonini hisoblab olamiz. SO_4 tarkibida 48 ta SO_4^{2-} da esa ikkita natriyning bittadan elektronini olgani uchun 50 ta elektron bo'ladi.

Demak, 300 ta anion tarkibida $300 \times 50 = 15000$ ta elektron bo'ladi.

3 – masala.

$\text{Cr}_2(\text{SO}_4)_3$ tuzining 200 molekulasi dissotsalanishi natijasida xosil bo'ladigan kationlar tarkibidagi elektronlar sonini toping? ($\alpha = 60\%$)

Yechim.

Xrom (III) sulfat tuzining dissotsalanish reaksiya tenglamasini yozib olamiz.



Tuzning dissotsalanish darajasi 60% bo'lgani uchun 200 ta molekulaning nechitasi dissotsalanishini topib olamiz:

$$200 \times 0,6 = 120 \text{ ta } (3)$$

Reaksiya tenglamasiga ko'ra bitta molekuladan ikkita kation xosil bo'lyapti. 120 ta molekuladan esa, $120 \times 2 = 240$ ta kation xosil bo'ladi.

Bitta xrom kationida 21 ta elektron borligini bilgan holda 240 ta kationda nechta elektron bo'lishini topamiz:

$$240 \times 21 = 5040 \text{ ta elektron}$$

Demak, dissotsalanish darajasi 60% bo'lgan xrom (III) sulfat tuzining 200 ta molekulasi xosil bo'lgan kationlar tarkibida 5040 ta elektron bo'ladi.

NATIJA

Ushbu masalani anionga nisbatan ham qo'llashimiz mumkin.

4 – masala.

$\text{Cr}_2(\text{SO}_4)_3$ tuzining 200 molekulasi dissotsalanishi natijasida xosil bo'ladigan anionlar tarkibidagi elektronlar sonini toping? ($\alpha = 60\%$)

Yechim.

(2) ga ko'ra bitta molekuladan uchta sulfat anioni xosil bo'lsa, 120 ta molekuladan (3) 360 ta sulfat anioni xosil bo'ladi.

Bitta sulfat anioni tarkibida 50 ta elektron borligini bilgan holda 360 ta anion tarkibida nechta elektron borligini topamiz:

$$360 \times 50 = 18000 \text{ ta elektron}$$

Demak, dissotsalanish darajasi 60% bo'lgan xrom (III) sulfat tuzining 200 ta molekulasidan xosil bo'lgan anionlar tarkibida 18000 ta elektron bo'ladi.

XULOSA

Bu kabi masalalar kimyo fanini o'rganuvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishga va dissotsalanish darajasi, dissotsalanish konstantasiga oid masalalarni tushinishda yordam beradi deb hisoblayman. Bu esa mavzuni o'zlashtirish samaradorligini oshiradi va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. I. R. Asqarov, Sh. H. Abdullayev, O. Sh. Abdullayev. "Oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun qo'llanma" Toshkent: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2017, 150-b.
2. I. A. Tashev, I. I. Ismoilov, R. R. Ro'ziyev. "Anorganik kimyodan mashq va masalalar to'plami" O'qituvchi. Toshkent – 2005, 103 – b.
3. В. В. Щербаков, Н. Н. Барботина, К. К. Власенко. Общая химия. Сборник задач. Москва. Юрайт – 2019, с -100.

ПРЕКЛИМАКТЕРИК ЁШДАГИ АЁЛЛАРДА ҚИННИНГ РАК ОЛДИ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ГИСТОЛОГИК ТАҲЛИЛИ

Рахмонова Шахноз Каххоровна Тошкент стоматология давлат институти, ассистент shahnozrahmonova80@gmail.com	Раджабова Дилмира Отамурадовна Тошкент стоматология давлат институти, ассистент	Рахмонов Жамшид Ганибаевич Тошкент стоматология давлат институти талабаси sh.rakhmonov@gmail.com
---	---	--

АННОТАЦИЯ

Бу ишнинг мақсади ҳозирги кунда пременопаузаль ёшдаги аёлларда яъни 35-45 ёш оралиғида жинсий аъзолардаги патологик ўзгаришлар қисқа муддат ичида чуқур қайтмас морфологик ўзгаришларга айланиб, уларнинг ҳаётига катта хавф солмоқда. Шунинг учун улардаги рак олди жараёнларини ёшга ва табиатига қараб тўғри гистологик ташхислаш ва клиник билан баҳолаб даволашдир. Бунинг учун ТДСИ клиниканинг гинекология бўлимида гистологик лабораториясига олиб келинган 6 ой мобайнидаги таҳлиллардан 84 таси (84 та кин лахтаси) ташхиси билан келтирилган. Текширилганда уларнинг 45 тасида кўп қаватли ясси эпителий гиперплазияси, 39 тасида папиллома ва базал хужайраларнинг гиперплазияси аниқланди. Текширувда гемотоксиллин-эозин бўёғидан фойдаланилди.

Калит сўзлар: пременопаузаль давр, қин, базал хужайра, гиперплазия, папиллома, гемотоксиллин-эозин, гипертрофия.

HISTOLOGICAL ANALYSIS OF KINNING CANCER PROCESSES IN PREKLIMACTERIC AGE WOMEN

Rakhmonova Shakhnoz Kakhkhorovna Tashkent State Institute of Dentistry, Assistant shahnozrahmonova80@gmail.com	Radjabova Dilmira Otamuradovna Tashkent State Institute of Dentistry, Assistant	Rakhmonov Jamshid Ganibaevich student of the Tashkent State Institute of Dentistry sh.rakhmonov@gmail.com
--	---	---

ABSTRACT

The aim of this study is that in women of premenopausal age, ie between the ages of 35 and 45, pathological changes in the genitals in a short period of time become irreversible morphological changes and pose a serious threat to their lives. For this

purpose, 84 of the 6-month analyzes (84 kin clots) brought from the gynecology department of the TDSI clinic to the histological laboratory were diagnosed. Examination revealed multilayered squamous epithelial hyperplasia in 45 of them, papilloma and hyperplasia of basal cells in 39. Hemotoxylin-eosin dye was used in the examination.

Keywords: preclimacteric period, kin, basal cell, hyperplasia, papilloma, hemotoxylin-eosin, hypertrophy.

КИРИШ

Хозирги кунда преклимактерик давр аёлларида, яъни 35-45 ёш оралигида жинсий аъзо касалликларининг ошиб бориши кузатилмоқда. Бу касалликлар унинг нормал тузилишининг узгариши хисобига келиб чиқади. Репродуктив ёшдаги аёлларда нормада бачадон буйни цилиндрик, кизларда эса конуссимон тузилишга эга. Киннинг бачадон буйни билан бириккан жойи икки қисмдан иборат: кин усти ва кин. Кин усти қисми бачадон бушлигига ички бачадон қиррасига очилади. Кин қисми кин юзасига очилиб, ташки бачадон қирраси билан тугайди, бунга эктоцервикс дейилади. Кин узунлиги 2-3 см, калинлиги 1-1.2 см. Бачадон буйнининг кин қисми куп қаватли ясси эпителий билан қопланган, менструал цикл вақтида циклик узгаришларга учрайди. Эктоцервикс эпителиysi 4 қаватдан: базал, парабазал, оралик ва юза қаватлардан иборат. Базал қават базал мембранада бир қатор булиб жойлашиб нормада регенерация ва усишни тامينлайди, патологияда патологик пролиферация кузатилади. Булар полип, цервицит, эндометриоз, лейкоплакия, дисплазия эрозия, папиллома ва бошқалар. Папиллома сургич маъносини англатиб, яхши сифатли усмасимон хосила булиб, асоси бириктирувчи туқимали сургичдан, қобиги эпителийдан тузилган. Усганда ҳар хил қатталикда гулқарамга ухшаб усади. Бир вақтда бир неча усса папилломатоз деб номланади. Гиперплазия бу туқима структур элементларининг қупайиши билан хосил булувчи қушимча хосила. Гиперплазияда факатгина хужайралар қупайиб қолмасдан балки унинг ултраструктураларида узгариш кузатилади.

Мақсад: Преклимактерик ёшдаги аёллар кин соҳасини эрта, тўғри ва самарали лаборатор таҳлиллар асосида текшириб, рақ олди жараёнларини гистологик жиҳатдан фарқлаш ва асослаш.

Текширув усуллари ва материаллари: Тошкент давлат стоматология институти клиникасидаги гинекология булимидан олинган 2019-2020 йилдаги 35-48 ёшлар оралигидаги назоратга олинган 84 та аёл кинидан олинган биопсия материали таҳлил қилинганда, улар 3 гуруҳга ажратилди:


1-асосий гуруҳ булар жами касалланганларни 53 %ни ташкил этиб,45 нафар беморда олинган биопсия таҳлил натижалари «Куп каватли ясси эпителий гиперплазияси»ташхиси билан;

2-асосий гуруҳ булар жами касалланганларнинг 27% ни ташкил этиб,23 нафар беморда олинган биопсия таҳлил натижалари «Базал хужайралар гиперплазияси»ташхиси билан;


3-асосий гуруҳ булар жами касалланганларнинг 20%ни ташкил этиб,16 нафар беморда олинган биопсия таҳлил натижалари «Папиллома»ташхиси билан;



Олинган натижалар таҳлили ёш буйича таҳлил килинганда,37-40 ёшлар оралигида бу патологиянинг юкори курсатиши аникланди.



Базал хужайралар гиперплазияси(27 %, 40-45 ёшлиларда)



Кўп қаватли ясси эпителий гипер
плазияси(53%,37-40 ёшларда)

Папиллома (20 %,35-37 ёшларда)

ХУЛОСА

Шуни айтиш керакки, пременопаузаль ёшдаги аёлларда рак олди жараёнларининг келиб чиқиши уларнинг узок муддат давомида тиббий жиҳатдан муружаат қилмаганлиги ва тўғри ташхисланмаганлиги оқибатида келиб чиқади.Шунинг учун барча пременопаузаль ёшдаги аёлларни доимо кузатувга олиб, уларда гистологик таҳлилни тўғри баҳолаш орқали даволаш керак.

REFERENCES

1. Lai J., Elleray R., Nordin A. et al. Vulval cancer incidence, mortality and survival in England: age-related trends. *BJOG*. 2014;121(6):728-38.
2. Злокачественные новообразования в России в 2014 году (заболеваемость и смертность). Под ред. А.С. Каприна,
3. Крапошина Т.П., Филюшкина А.Ю., Антоян М.Г. Этиология, патогенез и лечение склерозирующего лишая вульвы (обзор литературы). *ВестникРГМУ*. 2014;(3):41-5.

4. Клинический протокол диагностики и лечения «Невоспалительные заболевания вульвы и промежности». 2016. Режим доступа: http://www.rcrz.kz/docs/clinic_protocol/2016. [Дата доступа: 15.09.2018].
5. Tristram A., Hurt C.N., Madden T. et al. Activity, safety, and feasibility of cidofovir and imiquimod for treatment of vulval intraepithelial neoplasia (RTiVIN): a multicentre, open-label, randomised, phase 2 trial. *Lancet Oncol.* 2014;15(12):1361-8.
6. Реуцкая М.А., Кулинич С.И. Микробиологическое и морфологическое обоснование диагностики и лечения заболеваний вульвы. *Сибирский медицинский журнал (Иркутск)*. 2012;(1):54-7.
7. Солопова А.Г., Макацария А.Д., Иванов А.Е., Маландин А.Г. Предрак и рак женских наружных половых органов. М.: МИА, 2007. 80 с.
8. Chovanec J., Mouková L., Feranec R. Preinvasive lesions in gynecology - vulva. *Klin Onkol.* 2013;26(Suppl):S44-6.
9. Schierbeck L.L., Rejnmark L., Tofteng C.L. et al. Effect of hormone replacement therapy on cardiovascular events in recently postmenopausal women: randomised trial. *Br Med J.* 2012;345:e6409.
10. Pérez-López F.R., Ceausu I., Depypere H. et al. EMAS clinical guide: vulvar lichen sclerosus in peri- and postmenopausal women. *Maturitas.* 2013;74(3):279-82.
11. Реуцкая М.А., Кулинич С.И. Дистрофия вульвы или хронический вульвит? Микробиологическое и морфологическое обоснование. *Сибирский медицинский журнал (Иркутск)*. 2012;(2):66-69.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ И ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ КРИПТОГРАФИИ

Ахмедова Хусния Хусановна

Ассистент, Ташкентский университет информационных технологий имени
Мухаммада ал-Хоразмий
h.ahmedova86@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь идёт о том, что представляет собой традиционная и современная криптография, рассматриваются тенденции и основные проблемы её развития, а также какое место она занимает в повседневной жизни каждого человека.

Ключевые слова: традиционная и современная криптография, квантовая криптография, «легковесная» криптография, гомоморфное шифрование.

DEVELOPMENT TRENDS AND PROBLEMS OF MODERN CRYPTOGRAPHY

Akhmedov Khusniya Khusanovna

Assistant, Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-
Khorizmi
h.ahmedova86@mail.ru

ABSTRACT

This article is about what traditional and modern cryptography is, the trends and the main problems of its development, as well as what place it occupies in the everyday life of every person, are considered.

Keywords: traditional and modern cryptography, quantum cryptography, "lightweight" cryptography, homomorphic encryption.

ВВЕДЕНИЕ

В настоящее время именно в информационном пространстве происходит так называемая «гонка вооружений» во всём мире. Это связано в первую очередь с развитием информационных технологий. Следствием этого развития являются увеличение количества угроз, возникновение новых понятий, таких как «кибертерроризм», «информационная война» и др., а также развитие методов и средств защиты информации. В любом государстве одной из важнейших задач

является именно надёжная защита информации [2]. Также в повседневной жизни многие люди довольно часто сталкиваются с необходимостью шифрования данных. Например, для создания аккаунтов на различных сайтах в сети Интернет пользователю нередко необходимо ввести **свои персональные данные, придумать логин и пароль. Разумеется, ни один пользователь** не захочет, чтобы его конфиденциальные данные оказались в публичном доступе. В связи с этим, криптография нашла широкое распространение в современном мире. Криптография – это наука о методах обеспечения конфиденциальности и аутентичности информации, то есть недопущения её прочтения посторонними лицами, не имеющими права доступа, а также целостности и подлинности авторства и невозможности отказа от него.

МЕТОДОЛОГИЯ

Ежедневно при помощи современных компьютерных и сетевых технологий проводятся различные бизнес-расчёты, совершаются многомиллионные сделки во многих странах, т.е. осуществляется финансовый и юридический электронный документооборот. И для обеспечения его безопасности необходимо решение задачи аутентификации информации. При этом важным элементом является электронная цифровая подпись (ЭЦП) и её достоверность [4]. Она представляет собой эффективное средство защиты информации от модификации и переносит свойства реальной подписи под документом в сферу электронного документооборота. Существует несколько схем построения цифровой подписи. Они основываются либо на алгоритмах симметричного шифрования, либо на алгоритмах ассиметричного шифрования.

Традиционная криптография использует алгоритмы, строящиеся путём комбинирования огромного числа относительно несложных преобразований. Принципы построения одноключевых шифров практически не изменились с тех пор, как Хорст Фейстель в своих работах заложил их основы [5]. Произошло лишь некоторое расширение набора базовых преобразований, появилось большее разнообразие в архитектурах, а также изменения отражают развитие используемой вычислительной базы. Тем не менее, важно отметить тот факт, что типовой размер ключей и блоков данных, применение которых считается безопасным, вырос приблизительно в два раза.

Что же касается современной криптографии, то здесь наблюдается иная картина. Стойкость её алгоритмов основывается на пока недоказанной вычислительной невозможности эффективного решения некоторых математических задач, то есть на гипотезе, которая в итоге может оказаться ошибочной [8]. Например, стойкость криптосистемы RSA базируется на

сложности задачи факторизации больших чисел, а стойкость современных схем ЭЦП, большинство из которых являются вариациями обобщенной схемы Эль-Гамала, – на сложности задачи дискретного логарифмирования в конечных полях [6].

ОБСУЖДЕНИЕ

Криптостойкие системы можно разделить на два типа: с абсолютно стойкими и достаточно стойкими алгоритмами шифрования. Они удовлетворяют следующим условиям:

- длина ключа должна быть либо равной, либо больше длины сообщения;
- ключ необходимо генерировать для каждого сообщения и использовать его можно только единожды;
- ключ должен быть статистически надёжен;
- открытый текст должен обладать некоторой избыточностью (это является критерием оценки правильности расшифровки).

Примером такого алгоритма шифрования является шифр Вернама (одноразовый блокнот). Абсолютно стойкие шифры применяются только в сетях связи с небольшим объёмом передаваемой информации, обычно это сети для передачи особо важной государственной информации. Это связано с тем, что для каждого сообщения необходим уникальный ключ, а из-за проблем удобства использования и высокой стоимости практическое применение абсолютно стойкого алгоритма шифрования сильно ограничено. [2]

Рассмотрим основные проблемы в современной криптографии.

1. Недостаточность числа рабочих схем. В отличие от алгоритмов традиционной криптографии, которые могут быть созданы в неограниченном количестве путём комбинирования различных элементарных преобразований, каждая "современная" схема базируется на определённой "нерешаемой" задаче. Как следствие, количество рабочих схем криптографии с открытым ключом весьма невелико.
2. Постоянное увеличение размера блоков данных и ключей, обусловленное прогрессом в области математики и вычислительной техники. К примеру, для криптосистемы RSA сейчас рекомендуется брать размер чисел не менее 4 Кбит, тогда как в момент её создания было достаточно и 512 бит. Другими словами, "безопасный" размер чисел в RSA на порядок вырос. Подобная ситуация наблюдается и для других схем, тогда как в классической криптографии этот размер увеличился всего вдвое.
3. Потенциальная ненадежность базиса. В настоящее время теория вычислительной сложности занимается вопросами возможности решения

задач данного типа за полиномиальное время (гипотеза $P = NP$). В рамках теории уже доказана связь большинства используемых вычислительно сложных задач с другими аналогичными задачами. Это означает, что, если будет взломана хотя бы одна современная криптосистема, многие другие также не устоят [5].

4. Отсутствие дальней перспективы. В связи с развитием технологий, а также увеличением вычислительных мощностей, дальнейшее увеличение размера блоков данных и длины ключа приведёт к тому, что шифрование потеряет свою лёгкость использования и, возможно, современная криптография просто придёт в негодность из-за того, что решение «невозможных» задач станет возможным. Примером этому может являться квантовый компьютер.

Квантовая криптография, появившаяся около 30 лет назад на стыке квантовой механики и классической криптографии, в последние годы достигла заметного прогресса среди областей науки и технологий. Она добилась наибольших результатов в плоскости практических приложений, имеющих непосредственное отношение к вопросам обеспечения информационной безопасности. И есть большая вероятность того, что через 20-30 лет появятся квантовые компьютеры. В таком случае, традиционные методы криптографической защиты станут уязвимыми, и защищённые системы легко будут поддаваться взлому.

Одним из направлений квантовой криптографии является квантовое шифрование. Его первым примером стала технология потокового шифрования Alpha Eta. Шифрование информации происходит по принципу, основывающемуся на использовании многоуровневого кодирования поляризованных или фазовых степеней свободы когерентных оптических состояний, являющихся в общем случае многофотонными. Ещё в 2004 году была продемонстрирована возможность её использования с потоком данных в оптоволоконных сетях со спектральным разделением сигналов. Скорость передачи зашифрованных данных тогда составляла 155 Мбит/с, использовался квантовый ключ длиной 1 Кбит, который обновлялся каждые 3 секунды. Alpha Eta также была успешно протестирована на существующей волоконно-оптической линии связи длиной около 850 км. Скорость передачи зашифрованных данных составила 622 Мбит/с [3].

РЕЗУЛЬТАТ

Также широкое распространение в настоящее время получили низкоресурсная (или «легковесная») криптография и гомоморфное шифрование [8]. Благодаря «легковесной» криптографии появляется возможность реализовать криптографическую защиту на миллионах различных интеллектуальных

устройств, снабжённых весьма ограниченными вычислительными ресурсами и имеющих доступ в Интернет. Ими могут быть различные датчики, бытовые приборы и приборы охранной сигнализации, бесконтактные смарт-карты и др. Но так как все эти устройства имеют небольшие размеры и работают они на малых мощностях, нужно обеспечить им такую защиту, которая не будет перегружать систему. Из этого следует, что технологии и технологические решения, применяемые к средствам низкоресурсной криптографии, имеют ограничения. Примерами таких ограничений являются: для аппаратной реализации – размер микросхемы, затраченное на исполнение программы время, потребляемая энергия; для программной реализации – размер оперативной памяти или размер программного кода. В области «легковесной» криптографии необходимо стремиться найти баланс между безопасностью, производительностью и ценой. Некоторые исследователи считают, что уже есть достаточно большой выбор «облегчённых» криптографических алгоритмов, которые можно использовать на практике. И наиболее активная деятельность по разработке низкоресурсных криптоалгоритмов ведётся в области алгоритмов блочного шифрования. Примерами таких алгоритмов являются CLEFIA и PRESENT, включённые в международный стандарт ISO/IEC 29192-2 (Block ciphers) [7].

А суть гомоморфного шифрования заключается в том, что любые математические действия над зашифрованными данными приводят к такому результату, который был бы получен в результате операций с открытым текстом [1]. Так, например, один человек мог бы сложить два зашифрованных числа, но в то же время другой человек сумел бы расшифровать результат, при этом, не используя ни одно из исходных чисел. Этот вид шифрования был предложен ещё в 1978 году. А в 2009 году Крейг Джентри закончил своё исследование. В результате которого была получена система полностью гомоморфного шифрования, которая позволяет обрабатывать надёжно зашифрованные данные, не заглядывая при этом в их содержание. А в мае 2013 года стало известно, что всемирно известная компания IBM выпустила свободно распространяемую криптографическую библиотеку HElib, с поддержкой гомоморфного шифрования. В наши дни существуют и другие разработки полностью гомоморфных симметричных криптосистем, основанные не схеме Джентри. Этот вид шифрования в основном используется для обеспечения безопасности в работе с облачными сервисами, а также в поисковых системах, требующих осуществления «приватного поиска» [2].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Разумеется, необходимо подбирать метод криптографической защиты для каждой информационной системы индивидуально, основываясь на тщательном

анализе сильных и слабых сторон того или иного метода. И, возможно, благодаря дальнейшему развитию информационных технологий, особенно в области криптографии, подобрать необходимый метод защиты будет проще, в связи с чем уязвимостей станет меньше, и криптостойкость системы повысится.

REFERENCES

1. Комиссаренко В.В. Современные тенденции развития средств и методов криптографической защиты информации. В кн.: 2-я конф-ия. «Технологии защиты информации и информационная безопасность организаций», г. Минск, 2016 г.
2. Шаньгин В.Ф. Защита информации в компьютерных системах и сетях. – Москва: ДМК Пресс, 2012 г. – 593 с.
3. Яценко В.В. Введение в криптографию. – Издание 4 дополненное – МЦНМО: Москва, 2012 г.
4. Актуальные направления и нерешённые проблемы криптографии. [Электронный ресурс]. Под свободной редакцией – Режим доступа: <http://cryptowiki.net> (30.15.2018 г.)

ТАРЖИМА МУАММОЛАРИНИНГ УМУМЛАШТИРИЛГАН ТАВСИФИ**Сафаров Одилжон Мамадиевич**

ЎзДЖТУ мустақил тадқиқотчиси

osafar@mail.ru**АННОТАЦИЯ**

Таржима - мураккаб фаолият. Унинг мураккаблиги муаммоларга бой эканлиги билан бевосита боғлиқ. Улар ҳақида етарли тасаввурга эга бўлиш, мазкур фаолият моҳиятини теран тушуниш имконини беради. Шу боис ушбу ишда таржиманинг муҳим муаммолари умумлаштирилиб тавсифланган.

Калит сўзлар: тил, таржима, маданият, танқид, таҳрир, таҳлил, услуб, шарҳ, изох, тушуниш, матн турлари, таржимон омили, таржима бирлиги.

GENERALIZED CHARACTERISTICS OF TRANSLATION PROBLEMS**Safarov Odiljon Mamadievich**

Self – employed applicant of UZSUWL

osafar@mail.ru**ABSTRACT**

Translation is a complex activity. Its complexity is directly related to the richness of its problems. Having a sufficient understanding of them contributes to a clear understanding of the essence of this activity. Therefore, in this work summarizes important translation problems.

Keywords: language, translation, culture, criticism, editing, analysis, style, commentary, note, understanding, types of texts, translation unit, translator factor.

КИРИШ

Таржима – илм ва санъат. Илм бўлганда ҳам, қанчадан-қанча буюк мутафаккирлару, илму-маърифат аҳлининг хаёлини асрлар давомида банд этиб келаётган **мураккаб** илм. **Санъат** бўлганда ҳам, санъатлар **шоҳи**. Унга тенг келадиган санъат йўқ.

Бу илму санъатнинг ўзига хос мураккабликлари, унга оид муаммолар алоҳида ўрганиб чиқилганида яққол намоён бўлади.

Изланишлар далолат беришича, таржима илмига оид манбаларда ушбу фаолиятга тегишли у ёки бу муаммо муайян даражада муҳокама этилган ҳоллар

учрайди. Бироқ мазкур фаолиятга оид деярли барча муҳим муаммолар умумлаштирилган ҳолда тавсифланган ҳол учрамайди.

Мазкур ишнинг **янгилиги**, унда айнан шундай муаммолар атрофлича очиб берилганида ўз ифодасини топган. Албатта, бу ҳол таржима моҳиятини теран тушуниш, унга оид тадқиқотларни тўғри ташкил этиш имконини беради. Шу нуқтаи назардан бу иш долзарб аҳамиятга эга ва ундан баҳраманд бўлиш, нафақат таржима илми ёки амалиёти соҳасида фаолият юритувчилар, балки шу фаолият масалаларига қизиқувчиларнинг барчаси учун фойдадан холи эмас.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТДОЛОГИЯ

Мавзуга оид манбалар ҳақида мулоҳаза юритадиган бўлсак, Ҳанс Ёахим Штёрхнинг “Das Problem des Übersetzens” (Таржима муаммоси - Дармштадт, 1963, 1973) тўплами, Т. Р. Левицкая ва А. М. Фитерманнинг «Проблемы перевода» (Москва, 1976) китоби, Антон Поповичнинг «Проблемы художественного перевода» (Москва, 1980) китоби, Сидер Флориннинг «Муки переводческие» (Таржима машаққатлари – Москва, 1983) китоби, Ғайбулла Саломовнинг “Таржима ташвишлари” (Тошкент, 1983) китоби, Ҳайдемарие Залевскининг “Probleme des Simultandolmetschens” (Синхрон таржима муаммолари - Берлин, 1987) номли монографияси ҳамда яна бошқа бир қанча китоблар, монографиялар, ўқув қўлланмалари, мақола ва тезислар айнан шундай манбалар қаторига киради.

Таржима ишлари биринчи навбатда қиёсий хусусиятга эгадир. Бу қиёс тиллар қиёсида, адабиётлар қиёсида, маданиятлар қиёсида яққол намоён бўлади. Шунинг учун ҳам мазкур ишни ёзишда қиёсий-тарихий ва тасвирий методлардан кенг фойдаланилди.

МУҲОКАМА

Ғ. Саломов таъбири билан айтадиган бўлсак, - “Аслида фан, бадиий адабиёт, санъат ва таржима ҳақидаги баҳсни халқнинг саводхонлиги, умумий маданий савияси, ўлкада матбуот ва нашриёт ишининг аҳволи масаласидан бошламоқ керак. Негаки, адабиёт, китоб, таржима уларни ўқий оладиган, тушунадиган ва муносиб баҳолашга қурби етадиган халқ учун яратилади” [1]. Бас шундай экан, **маданиятлараро тафовутлар** муаммоси таржиманинг долзарб муаммоларидан бири сифатида эътироф этилиши, имий асосга эга. Чунки, муайян халқ вакилларининг тафаккур тарзи улар қайси маданиятга, қайси дин ҳамда миллатга тегишли эканликларига бевосита боғлиқлигини сира инкор этиб бўлмайди.

Халқларнинг тафаккур тарзи эса, уларнинг тиллари орқали намоён бўлади. Демак, **тиллараро тафовутлар** ҳам таржима муаммоларидан бири.

Таржима аслиятга қай даражада мос бўлиши, мана шундай тафовутлар оз ёки кўплигига боғлиқ. Маълумки, тиллар генетик, морфологик жиҳатдан ўзаро фарқланади. Масалан, одатда икки флектив ёки икки агглютинатив тиллараро таржима, флектив-агглютинатив ёки агглютинатив-флектив тиллараро таржимадан аниқроқ чиқиши табиий. Чунки, бундай тиллардаги грамматик, лексик, фонологик бирликлар кўпинча бир-бирига мос келади. Бундай афзаллик, айниқса, шеърий таржималарда яққол намоён бўлади.

“Таржиманинг барча турларини – оғзаки, илмий, бадиий – аввало тиллар тафовутидан келиб чиқадиган, кейин эса таржима қилинаётган матнни идрок этиб, маълумотни бошқа тилда бериш билан боғлиқ техник, психологик ва бошқа муаммолар бирлаштиради” [2], - дея уқдиради И. Левий. Таржима жараёнида икки тил, икки маданиятга хос тафаккур тарзи ўзаро тўқнашиши туфайли, аслият матнини таржимада тўғри бериш кўпинча осон кечмайди. Шунинг учун ҳам айрим ҳолларда таржимага тегишли шарҳ ва изоҳлар илова қилиниши илмий асосга эга.

Таржимашуносликда таржима оригинал ижодга қиёсланган ҳоллар кўп учрайди. Бу бежиз эмас, албатта. Чунки таржимага тегишли муаммоларнинг аксарияти оригинал ижодда ҳам учрайди. Масалан, матнга **шарҳ ва изоҳлар** илова қилиниши ҳоллари оригинал ижодда ҳам кўп учрайди. Шунингдек, оригинал ижодга тааллуқли **тахрир, таҳлил, танқид** муаммолари таржимага ҳам тегишлидир.

“Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да арабчадан ўзлаштирилган **тахрир** сўзи куйидагича изоҳланган: “1 Ёзма ишни, асарни, тузатишлар киритиб яхшилаш, тузатиш. 2 эск. Ёзиш, ижод қилиш” [3]. Худди шу луғатда *тахрирчи* сўзи *тахрир қилувчи, муҳаррир, редактор* эканлиги ҳам қайд этилган. Таъкидлаш лозимки, бадиий, илмий ва ҳоказо асарлар тахрирчиси билан шу соҳаларга оид таржима адабиётлари тахрирчиси ўртасида катта фарқ бор. Чунки муайян таржима адабиёти тахрирчиси тегишли соҳанигина эмас, балки тегишли тилларни ҳам билиши керак. Қолаверса, у таржима илмидан ҳам атрофлича хабардор бўлиши шарт. Акс ҳолда у таржима адабиёти нуфузини анча тушириб юбориши мумкин. Натижада, таржимонга ҳам, муаллифга ҳам муйаян даражада маънавий зарар етказилади. Бундай зарар минглаб, миллионлаб ўқувчиларга ҳам етиб бориши муқаррар. Минг афсуски, охир-оқибатда асосий айбдор машаққатли ва ҳалол меҳнат соҳиби таржимон бўлиб қолиши мумкин.

Ҳар қандай таржиманинг кадр-қиммати, уни **таҳлил қилиш**, яъни ўрганиш, текшириш орқали намоён бўлади. “Тегишли таржима нусхаси аслиятга мослиги

ҳақида ҳақиқий хулоса чиқариш учун, дастлаб айнан қайси матн таржимонга аслият сифатида хизмат қилгани аниқлаб олиниши керак” [4]. Таржима таҳлилига худди шу нуқтаи назардан ёндашилиши лозим. Чунки муайян таржима аслият тили орқали эмас, бирор воситачи тил орқали амалга оширилган бўлиши ҳам мумкин. Агар воситачи тилда тегишли матннинг бир нечта таржималари бўлса, танланган матн аслиятга қанчалик яқинлиги ҳақида хулоса чиқарилиши керак. Умуман олганда таржима аслиятдан бевосита амалга оширилган бўлиши мақсадга мувофиқдир.

Воситачи тилдан қилинган таржимани аслиятдан қилинган таржима сифатида тақдим этадиган таржимонлар ҳам учрайди. Таржима танқиди бундай ҳолларга чек қўйиши лозим. И. Левий (1927-1967) ёзишича, - “Таржима ҳақидаги танқидий мулоҳазаларнинг аксарияти ҳақиқий эстетик қарашдан келиб чиқилган ҳолда билдирилмайди ва кўпинча шунчаки қайдлар тарзида, шунингдек таржима муваффақитли ва силлиқ чиққанлиги ҳақидаги умумий ифодалар билан чекланилган ҳолда бўлади” [5]. Шунингдек, И. Левий фақат таржима назариясига оид ишлардагина (тезис, монография ва ҳ.) муайян таржимага оид хато ва камчиликлар очиб ташланишини таъкидлайди.

А. Фёдоров эса таржима танқиди борасида амалга оширилган ишларни юқори баҳолайди. “Бадиий адабиёт – буюк санъат, маданиятимиз ҳаётидаги муҳим жабҳадир, - деб ёзади у. - Айни пайтдаги таржималар танқиди мантиқий, ҳалол, холисона. Таржималарга тақризлар ўқувчига ҳам, таржимоннинг ўзига ҳам керак. Қолаверса, улар бизнинг кунлардаги таржимачиликнинг келажакда яратиладиган тарихи учун ҳам муҳим материалдир” [6]. А. Фёдоровнинг мулоҳазасига кўра, таржима танқиди - санъат. Таржима санъатидаги муваффақиятларга танқид санъати ҳам бевосита боғлиқлигини у шундай ифодалайди: «В успехах искусства перевода так или иначе участвовало и участвует искусство его критики» [7].

Ғ. Саломов бадиий таржима амалиётида ҳозиргача жиддий ўрганилмаган муаммолардан баъзилари сифатида қуйидагиларни қайд этади:

“1. Китобхонга тушунарли тил билан таржима қилиш, таржимада автор ва асарнинг тил, услуб хусусиятларини ўзгартириш ҳуқуқини берадимиз?

2. Аксинча, авторнинг тил ва услуб хусусиятларини акс эттириш, асарни ҳижжалаб таржима қилиш лозимлигини кўрсатадимиз?

3. Нима сабабдан бадиий таржима қилиш принциплари қатъий бўлса ҳам, бир асарни бир неча киши ағдарса, бир-биридан жиддий тафовут қиладиган бир неча хил таржима ҳосил бўлади. Таржимада бу тахлит хилма-хилликка йўл қўйиш мумкинми?” [8].

Таржиманинг асл моҳиятини англаш орқалигина, бу муаммоларнинг барчасини ҳал қилиш чораларини топиш мумкин. Таржиманинг асл моҳиятини англаш учун, мазкур фаолият яна қандай муаммоларга эга эканлиги аниқлаб олиниши мақсадга мувофиқдир.

“Бугунги кунда таржима назариясида муҳокама этилаётган таржима муаммолари ичида - таржима инварианти, таржима бўлиш муаммоси, таржима бирлиги, таржиманинг семантик ва услубий муаммолари, таржима амалиёти ва ҳ. – биз таржимада **тушуниш** муаммосини топа олмаймиз” [9], - деб ёзади А. Крюков. Шунингдек, у мазкур муаммони ўрганишга фалсафий ҳерменевтика (матнни тушуниш санъати ҳақидаги таълимот) асосида ёндашишни таклиф қилади.

Шундай мулоҳаза немис таржимашунослари Фритц Пайпке, Радегундис Штолце ва бошқалар томонидан ҳам билдирилган.

Таржимага хос яна бир муаммо **таржима услуби** муаммосидир. “Услуб ёзувчининг ўзи, унинг бутун борлиги, вужуди, юрак тепиши, бадиий мушоҳада формаси, унинг овози демакдир. Бинобарин, агар таржимада авторнинг услуби тўғри акс эттирилмаган бўлса, бундай таржиманинг тўғрилигига ишониб бўлмайди: унда таржимон авторнинг ўрнига ўзини қўйган бўлади” [10], - деб ёзади Ғ. Саломов. Умуман олганда, бу муаммо ҳақида ёзмаган таржимашунос деярли бўлмаса керак. Бироқ таржима илмида таржима услуби муаммоси нималардан иборат эканлиги ҳанузгача тўлиқ очиб берилган, деб бўлмайди.

Таржиманинг навбатдаги муаммоси сифатида **таржимон омили** муаммоси эътироф этилиши мумкин. Чунки, муайян матнни тушунувчи ҳам, уни бошқа тилда ифодаловчи ҳам айнан таржимон ёки таржима қилувчи шахсдир. Бу муаммо ҳақида И. Левий шундай ёзган: “Аслиятни яратиш жараёнига нисбатан *таржимоннинг ижодий жараёнини* ўрганиш мушкулроқ, чунки унинг излари бизга фақат тил орқали ифодаланган ҳолда, одатда нозик мазмунли тусларда, берилган бўлади, қолаверса, айнан таржимоннинг ижодий жараёнига кўпинча *журнал ёки нашриёт таҳрирчилари* ва *бошқа тuzатувчилар* аралашади” [11].

Шунга ўхшаш мулоҳаза Иван Кашкин, Гиви Гачечиладзе, А. Фёдоров ва бошқа таржимашунослар томонидан ҳам билдирилган. Шундай бўлса-да, ҳар қандай таржиманинг сифати айнан таржимон омилига, яъни унинг билими ва маҳоратига боғлиқ эканлигини ҳеч ким инкор эта олмайди.

Таржимоннинг билими ва маҳорати қай даражада эканлиги эса, у таржима илмидан қанчалик хабардор эканлигига ҳам боғлиқ. Акс ҳолда у ўз фаолиятига ўзи билганча ёндашиши мумкин. Шу нуқтаи назардан **таржима илмининг айни пайтдаги аҳволи** ҳам таржиманинг долзарб муаммоларидан биридир. Ҳолбуки, таржима илмида амалга оширилган ишлар етарли даражада эмаслигини кўплаб

таржимашуносларнинг ўзлари ҳам эътироф этишган. А. Фёдоров эса бу ҳақда шундай ёзади: “Ҳа, айти пайтдаги аҳвол *таржиманинг умумий назариясида* ҳам, *бадиий таржима назариясида* ҳам оддий эмас. Савол пайдо бўлади: бу турфаликлар бир-бирига қанчалик тўғри келади ёки, аксинча, тўғри келмайди – зиддиятли, ...? Бу саволга жавобни, албатта, келажак беради, ҳатто жуда яқиндаги бўлмаслиги ҳам мумкин” [12].

НАТИЖА

Таржима ҳақиқатан ҳам муаммоларга бой фаолият бўлиб, шу фаолиятга оид тадқиқотларда улар албатта инobatга олиниши керак. Акс ҳолда бу борада олиб борилаётган ишлар яхши натижа бермаслиги табиий. Таржима илмининг айти пайтдаги аҳволи ҳам шундан далolat беради. Қолаверса, юқорида қайд этиб ўтилган муаммоларга қуйидагиларни ҳам қўшиш мумкин: **Таржиманинг азалий муаммоси, таржима бирлиги муаммоси, таржима турлари** (ёзма, оғзаки, машина таржимаси) муаммоси, **адабиёт соҳалари ва матн турлари муаммоси, таржима бўлмаслик муаммоси** (проблема непереводимости), **воситачи тил орқали таржима муаммоси, мафкуралар таъсири муаммоси, луғатлар аҳволи муаммоси, таржима усуллари ва уларни тўғри қўллаш муаммоси** шулар жумласидан.

ХУЛОСА

Сир эмаски, таржимага оид деярли барча замонавий тадқиқотларда шу фаолият билан боғлиқ масалалар турлича, кўп ҳолларда қиёсий тилшунослик ёки қиёсий адабиётшунослик нуқтаи назаридан ёритиб келинди. Бунинг қибатида келиб чиққан зиддиятлар таржима илми тараққиётига тўсқиник қилиб қилиб келди. Таржимон омили масаласи эса, бундай тадқиқотларда деярли эътиборсиз қолиб келди. Албатта, бу катта хато эди. Ҳолбуки, ҳар қандай ҳолда ҳам, муайян таржима қай даражада амалга оширилгани ёки амалга оширилиши таржимон омилига, яъни унинг билими ва маҳорати билан боғлиқ масалаларга бевосита боғлиқ.

Бас шундай экан, таржима илмига оид тадқиқотлар шу омилга тегишли масалаларни ҳам қамраб олиши мақсадга мувофиқ.

REFERENCES

1. Саломов, Ғ. Маънавий камолот калити // Таржима ташвишлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. - Б. 9.
2. Левый, И. Общая и специальная теория перевода // Искусство перевода. – Москва: Прогресс, 1974. – С. 32.

3. Маъруфов, З. М. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Москва: Рус тили, 1981. - Б. 149.
4. Левый, И. Анализ перевода // Искусство перевода. – М.: Прогресс, 1974. – С. 218.
5. Левый, И. Литературоведческие методы // Искусство перевода. – Москва: Прогресс, 1974. – С. 44.
6. Фёдоров, А. Искусство перевода и жизнь литературы. – Ленинград: Советский писатель, 1983. – С. 61-62.
7. Там же, 63 с.
8. Саломов, Ғ. Бадиий таржима ҳақида ўй ва мулоҳазалар // Таржима санъати (мақолалар тўплами, 3-китоб). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. - Б. 53.
9. Крюков, А. Н. Понимание как переводческая проблема // Кухаренко, В. А. (ред.). Перевод и интерпретация (Сборник научных трудов). – Москва, 1988. – С. 65.
10. Саломов, Ғ. Бадиий таржима ҳақида ўй ва мулоҳазалар // Таржима санъати (мақолалар тўплами, 3-китоб). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. - Б. 53.
11. Левый, И. Анализ перевода // Искусство перевода. – Москва: Прогресс, 1974. – С. 217-218.
12. Фёдоров, А. Искусство перевода и жизнь литературы. – Ленинград: Советский писатель, 1983. – С. 172.

O'ZBEKISTON ILK DAVLATLARNING PAYDO BO'LISHI

Baltayev Mansur

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani 13-maktab tarix fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Vatanimiz O'zbekistonda ilk davlatlarning paydo bo'lishi. Qadimiy davlatlarning nomlari va ichki va tashqi siyosati to'g'risida o'quvchilarga va shunga qiziquvchilarga ma'lumotlar berish. Har bir davlatning rivojlanishi, o'z taraqqiyotiga va inqiroziga ta'sir qilgan omillarni to'liq ochib berish. Hududimizda joylashgan qal'alar va ularning o'z davridagi istiqbollariga nazar solish.

Kalit so'zlar: Ilk davlatchilik, Xorazm, Baqtriya, Davon davlati, Kang' davlati, So'g'd davlati, Kushonlar davlati, quldorlik, feodalizm, qabila, urug', qal'alar nomi va ta'rixi.

THE EMERGENCE OF FIRST STATES IN UZBEKISTAN

Baltaev Mansur

Teacher at school No. 13 in Ellikkala district of the Republic of Karakalpakstan

ABSTRACT

The emergence of the first states in our homeland Uzbekistan. To inform students and those interested in the names of ancient states and their domestic and foreign policies. Full disclosure of the factors influencing the development of each state, its own development and crisis. castles located in our territory, a look at their prospects in their time.

Keywords: first states, Kxarezm, Baktriya, Davan states, Kang states, Sugd states, Kushans states, cities names and histories.

KIRISH

O'zbekiston davlatchiligi borasida gap ketganda avvalambor Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya davlati nafaqat O'zbekiston, balki O'rta Osiyo hududidagi ilk davlatlardan sanalishini aytishimiz joiz deb o'ylayman. Davlat qurish ham oson emasligini bilamiz. Albatta, har bir fan davlatchilik tushunchasiga o'z aspekti doirasida ta'rif berishga harakat qiladi. Masalan, falsafiy kitoblarning ayrimlarida davlatga berilgan ta'rifda quyidagi mazmundagi so'zlar bor: "Jamiyatni tartibga solib turuvchi va boshqaruvchi siyosiy tashkilotga davlat deyiladi" yoki siyosatshunoslikka oid manbalarda "Jamiyatni boshqaruvchi va qonun bilan kafolatlovchi siyosiy tashkilotga

davlat deyiladi” deyilgan. Tarixiy nuqtai nazardan aytganda davlat deb–muayyan boshqaruv apparatiga ega bo’lgan, mavjud qatlamlar manfaatini himoya qiluvchi tuzilmaga davlat deyiladi. Bugungi kunda ham davlatlar o’z tasarrufidagi qatlamlar – ziyolilar, tadbirkorlar, nafaqaxo’rlar, talabalar, dehqon va ishchilarni qonuniy himoya qiladi. Demak, qadimgi davrlar davlatlarida o’ziga xos boshqaruv shakli bo’lib, mavjud qatlamlarni himoya qilgan. Biroq tarixning guvohlik berishicha, qadimgi davlatlarda ko’proq amaldorlar (quldorlikda quldorlar, feodalizmga katta yer egalari va h.k.) manfaati himoya qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Har bir davlat o’z davlatchilik tarixiga ega. Bizning O’zbekistonimiz hududida ham qadimgi davrlardan boshlab davlatchilik poydevoriga asos solingan. Bizda davlatchilikka xos boy tarixiy tajriba mavjud bo’lib, bu juda olis davrlarga borib taqaladi. Albatta, davlatlar o’z–o’zidan paydo bo’lmagan, buning o’ziga xos omillari mavjud. Hozirgi O’zbekiston hududida davlatchilik poydevori temir asri, ya’ni 1–mingyillik bilan chambarchas bog’liq. Chunki bu davrda hunarmandchilik yanada rivojlandi, dehqonchilik gurkirab o’sdi. Temirdan yasalgan mehnat quollarining keng tarqalishi mehnat unumdorligini oshirdi. Bu davr temirchi kasbining paydo bo’lishi va temirchilikning ixtisoslashuvi bilan xarakterlanadi. Bu hol ishlab chiqarishning yanada ilg’or usullariga o’tish va ikkinchi mehnat taqsimotining paydo bo’lishi uchun sharoit yaratdi. Ikkinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti bu – hunarmandchilikning alohida ajralib chiqishi va ixtisoslashuvi. Urug’ jamoasi hududiy qo’shnicilik jamoasiga aylana bordi. Yangi yerlar va suv manbalari uchun qabilalar o’rtasida doimo kelishmovchiliklar bo’lib turgan. Qabila chegaralarini qo’riqlash, yangi yerlarni o’zlashtirish va boshqa qabilalar ustiga yurish qilish maqsadida qabilaviy harbiy ittifoqlar tashkil topa boshlagan. Bunday ittifoqlar tepasida urug’, qabila boshliqlari turganlar. Ular o’z obro’si va ta’siri bilan mashhur kishilardan saylangan. Mil.av. 1–mingyillik boshlarida Markaziy Osiyo aholisi to’rt guruhga bo’lingan: zodagonlar, harbiylar, ziroatchilar va hunarmandlar. Xo’jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari bo’lgan dehqonchilik va chorvachilik, shuningdek hunarmandchilik va mol ayirboshlashning rivojlanishi urug’ va qabilalar ichida ayrim to’q oilalarning vujudga kelishiga olib keldi. Muntazam bo’lib turadigan harbiy to’qnashuvlar sharoitida urug’–qabila boshliqlarining ta’siri kuchayadi. Jamiyat endi harbiy demokratiya qonun–qoidalariga asosan yashay boshlaydi. Harbiy demokratiya–davlatga o’tish davrining boshqaruv shaklidir. Uni harbiy va qabila boshliqlari boshqarganlar. Davlatlar paydo bo’lishining formulasini quyidagicha belgilash mumkin:

Qabila – urug’ – hududiy qo’shnicilik jamoasi – davlat..

Shunday qilib, davlatlar tashkil topishidagi omillar quyidagilardan iborat bo’ldi:

ikkinchi mehnat taqsimotining paydo bo'lishi;
mulkiy tengsizlik (ayrim kishilarning boyib ketishi).

MUHOKAMA

Hozirgi O'zbekiston hududidagi ilk davlat birlashmalari Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya davlatlaridir.

Qadimgi Xorazm – mil.av. 1–mingyillikning 8–6 asrlarida tashkil topgan. Bu davlat Xorazmdan tashqarida bo'lgan yerlarni birlashtirgan. Qadimgi Xorazm markazlaridan biri Ko'zaliqir shahri bo'lgan. U qalin mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Uning dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan aholisi turli xil uy – qo'rg'onlarda va qishloqlarda yashaganlar. Qadimgi Xorazmda hunarmandchilik, binokorlik va savdo sotiq yuksak darajada rivojlangan.

Baqtriya – hududi hozirgi Surxondaryo viloyati, janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston. Bu davlat ham mil.av. 8–6 asrlarda tashkil topgan. Baqtriyaning tarkibiga aynan Baqtriyadan tashqari Marg'iyona va So'g'diyona ham kirgan. Shuning uchun u qadimgi bir–biriga qarindosh bo'lgan elatlarning davlat birlashmasi deyilgan. Bu davlatning aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik va savdo bilan shug'ullangan. Baqtriyaning shahar xarobalariga Qiliztepa, Uzunqir, Bandixon va boshqalar kirgan.

Mil.av.530 yilda Eron ahamoniylaridan bo'lgan Kir II massagetlarga qarshi hujum qiladi. U malika To'maris bilan to'qnashadi va undan yengiladi. Undan so'ng yana Eron ahamoniylaridan bo'lgan Doro I mil.av. 519 yilda saklarga qarshi hujum qiladi va uning ham yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi. Lekin ahamoniylar ayrim bosib olingan mamlakatlarni alohida viloyat – satrapliklarga bo'lib boshqaradilar. Satrap forscha “xshatra” ya'ni “viloyat” degan ma'noni anglatadi. Markaziy Osiyoning bosib olingan viloyatlari uch satraplikka bo'linadi. Mil.av. 5–4 asrlarda Markaziy Osiyo hududida dastlabki ahamoniylar tanga pullari tarqalgan.

Mil.av.329 yilda Makedoniyalik Iskandar Markaziy Osiyoga hujum qiladi. Greklarga qarshi Spitamen mardonovar kurashgan. Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyoning ko'plab joylarini bosib oldi va 12ta shahar qurdirgan. U bu yerda 3 yil hukmroklik qilgan. Uning vafotidan so'ng Markaziy Osiyo yerlarida Salavkiylar davlati tashkil topgan. Shu davrlardan boshlab ellinistik madaniyat tarkib topgan. Ellinlashtirish – Sharqqa yunon madaniyatining yoyilishi jarayoni, aralash madaniyatning – yunon va mahalliy sharq madaniyatining tashkil topish jarayoni.

Mil.av. 3 asr o'rtalarida, ya'ni 250 yilda Baqtriya va Parfiya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqadi va Yunon–Baqtriya deb ataladi. Uning hukmdorlari greklar bo'lib, birinchi shohi

Diodot bo'lgan. Parfiyada esa hokimiyat Mitridat I qo'lga o'tgan. Mitridat I Marg'iyonani bosib olgan, uning tarixi ko'proq Arshakiylar davri bilan bog'liq. Bu

vaqtda So'g'diyona ham Baqtriya tarkibidan ajralib chiqadi. Yunon–Baqtriya davlati 120 yil yashaydi.

A.Makedonskiydan keyingi davrlarda, ya'ni mil.av. 3 asrlarda Markaziy Osiyoda bir qancha davlatlar tashkil topadi. Ular quyidagilar:

Dovon davlati – mil.av. 3 asrdan to milodning 2 asrlarigacha mavjud bo'lgan. Uning hududi hozirgi Farg'ona vodiysi bo'lib, Andijon va Namangan ham kirgan. Bu davlat tarixi ko'proq Xitoy manbalarida uchraydi, uning boshqa ataladigan nomlari – Parkana, Boxon, Polona bo'lgan. U o'zining uchqur samoviy otlari va vinosi bilan mashhur bo'lgan. Xitoyliklar bu davlatga tez–tez hujum qilib turgan va har gal ularni samoviy otlar bilan o'lpon to'lashga majbur etgan. Bu davlatning iqtisodiy asosini bog'dorchilik, yilqichilik, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo tashkil etgan. Dovon davlatining poytaxti Ershi shahri bo'lib, u hozirgi Andijon viloyatining Marhamat tumaniga to'g'ri keladi. Uning Uchqo'rg'on. Sho'rabashat kabi shaharlari mavjud bo'lgan.

Qang' davlati – bu davlatga mil.av. 3 asrlarda saklar asos solgan. U Xitoy manbalarida Qang'yuy deb atalgan. Uning poytaxti hududlari hozirgi Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelib, Qang'dez nomi bilan yuritilgan. Keyinchalik u o'zining hududlarini kengaytirgan. Xitoyliklar bu shaharni Bityan deb atashgan. Mil.av. 2 asr oxirlarida ular eng qudratli davlatga aylanadi. Aslida Qang' so'zi ularning turmush tarzidan kelib chiqqan bo'lib, “arava” yoki “aravaga ortilgan yuk”, ayrim manbalarda esa ular Sirdaryo bo'ylariga yaqin yashaganligi uchun “daryo”, “suv” degan ma'noni bildiruvchi ikkinchi mazmunga ham ega bo'lganligi bayon qilinadi. Qang'liklar Toshkent viloyati vohalarida asosan dukkakli o'simliklarni ekish, undan tashqari savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Milodning 3 asriga kelib Eftalitlar tomonidan parchalanib ketadi.

NATIJA

So'g'd davlati – bu davlat mil.av. 250 yillarda Baqtriya tarkibidan ajralib chiqadi. Uning hududi hozirgi Qashqadaryo va Zarafshon vohalari, Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlariga to'g'ri keladi (Ungacha bu hududlar Baqtriya tarkibida bo'lgan). Uning aholisi asosan bog'dorchilik, polizchilik, dehqonchilik, chorvachilik, savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Uning shahar xarobalaridan biri – Afrosiyobdir.

Xorazm – mil.av. 4 asrda bu davlat ahamoniylardan mustaqil davlatga aylanadi. Biroq bu davlatni A.Makedonskiy bosib ololmagan. Shuning uchun bu davlat o'ziga xos an'ana va madaniyatni saqlab qolgan. Uning yodgorliklari – Jonbosqal'a. Qo'yqirilganqal'a, Oybuyirqal'a va Tuproqqal'adir. Tarixchi olimlar Qo'yqirilganqal'adan aylana shaklida qurilgan ibodatxona qoldiqlari topishgan. Astronom olimlar fikricha, bu yerda ulkan rasadxona bo'lgan. Shuningdek,

Oybuyirqal'adan xum sirtiga chekilgan mahalliy yozuv namunalarini topishdi. Qo'yqirilganqal'adan ham ba'zi yozuv namunalari topilgan bo'lib, bu ularda o'zlarining mahalliy yozuvlari bo'lganligidan dalolat beradi. Xorazm davlatining iqtisodiy asosini savdo, sholikorlik, chorvachilik, hunarmandchilik tashkil etgan.

Kushonlar saltanati – mil.av. 140–130 yillarda yuechji qabilari shimoli-sharqdan kelib, Yunon–Baqtriya davlatiga yunonlar zulmidan ozod bo'lishiga yordam berdilar va shu yerda o'rnashib qoldilar. Beshta hokimlik – Guyshuan, Shuanmi, Xisi, Xyumi, Xuanmilarni birlashtirgan Kudzula Qadfiz I bu davlatga asos soladi. Ularning bu yerdagi dastlabki poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryo viloyati) bo'lgan. Keyinchalik Kanishka davrida poytaxt Peshovarga ko'chiriladi. Chunki ular sarhadlarini Hindistongacha kengaytiradi. Kushonlar davrida tangalar oltin, kumush va misdan zarb qilingan. Bu davlat o'sha davrlarning eng taraqqiy etgan davlatlari – Rim, Gretsiya, Xitoy, Eron, Hindiston kabi davlatlar bilan elchilik munosabatlarini yo'lga qo'ydi. Tarixchi olimlar yaqinda Skandinaviya yarim orolidan Kushonlar saltanatiga xos tanga pullarni topishgani bu davlatning boshqa davlatlar bilan savdo va diplomatik munosabatlari mustahkam bo'lganligini anglatadi. Kushonlar saltanatining madaniy yodgorliklariga – Xolchayon, Dalvarzintepa, Dalvarzin, Ayritom, Zartepa va Qoratepalar kiradi. Bu davlatda ijtimoiy sohaning hamma turlari – savdo, hunarmandchilik, zargarlik, me'morchilik (suyak va yog'och o'ymakorlik), hakkoklik (metallga naqsh tushirish), chorvachilik, dehqonchilik yaxshi rivoj topgan. Bu davlat rivojlangan quldorlik davlati bo'lib, feolizm kurtaklari namoyon bo'la boshlagan edi. Kushonlar saltanati eftalitlar tomonidan inqirozga yuz tutdi.

Vatanimiz hududida milodiy 4 asrlardan boshlab feodal munosabatlar tarkib topa boshlaydi. “Feod” yer degan ma'noni anglatib, bu davrlardan boshlab yerga egalik qilishning mavqei ortib boradi. Ilgarilari hunarmandchilik yetakchi bo'lgan bo'lsa, endi yeri bor zamindorlar mulkdor va boy kishilar hisoblangan. Bu davrda “dehqon” degan tushuncha “qishloq hokimi” degan ma'noni anglatgan. Hududimizda zaiflashib borayotgan Qang' va Kushonlar saltanatidan asta-sekin ilk mustaqil feodal davlatlar ajralib chiqib boshlaydi. Bu davlatlarga Xorazm, So'g'd, Toxariston, Choch va Eloq, Farg'ona kabi hokimliklar kirgan. Bu davlatlar hokimlari So'g'd va Farg'onada–ixshidlar, Toxaristonda–malikshohlar, Xorazmda–xorazmshohlar, Choch va Eloqda–budun va dehqonlar deb atalgan.

Mahalliy davlatlardan tashqari vatanimiz hududida Yettisuv va Sharqiy Turkistondan kelgankochmanchi chorvadorlarning Xiyoniylar, Sharqiy Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali kelgan kochmanchi chorvador Kidariylar va Eftalitlar ham o'z ma'lum bir muddat davlatchiligini barpo etgan. Undan tashqari, 5 asrning ikkinchi va 6 asrning birinchi yarmida Oltoy va Janubiy Sibirdagi turklar birlashib, 558 yildan

hududimizga kelib, uni egallaydi. Shu davrdan boshlab Turk hoqonligi davri boshlanadi.

Vatanimiz davlatchiligi tarixida arablardan keyingi davr ham muhim o'rin tutadi. O'rta asrlarda, ya'ni 9 asrlardan boshlab arab xalifaligidan bir qancha mustaqil davlatlar ajralib chiqadi. Bu davlatlarga – Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar kabilar kiradi. Bu davlatlarning taraqqiyot davri Sharqda uyg'onish davri deb ataladi. Uyg'onish davrida ilm–fan, san'at, adabiyot, me'morchilik, musiqa va san'atning boshqa turlari keng rivoj topdi va bu jarayonlar davlatlar yuksalishiga ijobiy ta'sir qildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bizning jonajon diyorumizda ham necha yillar muqaddam davlatchilik poydevori qo'yilgan va ular o'z davrining yuksak taraqqiyot cho'qqisiga yetgan. Qolaversa, ular boshqa davlatlar davlatchiligida o'ziga xos poydevor bo'la olgan. Aytishimiz mumkinki, vatanimiz nafaqat ilm–fan, san'at va amaliy hunarmandchilik markazi, balki dunyoga dong'i ketgan davlatchilik tarixiga ega mamlakat hisoblanadi.

REFERENCES

1. Tarix ortga qaytmaydi to'plam. 2004-yil
2. I.Karimov “ Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” . 1998 -yil
3. I.Karimov “ Yuksak manaviyat yengilmas kuch”. 2008-yil
4. Azamat Zie “O'zbek davlatchiligi tarixi” 2000-yil

MATEMATIKA FANINING RIVOJLANISHI VA SONLARNING PAYDO BO'LISHI

Bayjonova Nazokat

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani 14- maktabning matematika fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Matematika tarixi matematikani rivojlanish tarixini, bunda xalqlarning, alohida olimlarning va olimlar kollektivining fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini o'rganishni, matematik tushunchalarni, qonunlarni paydo bo'lish va ularning fandagi va hayotdagi rolini o'rganish bilan shug'ullanadi. Shuningdek matematika o'qituvchilari uchun hamda fan tarixi bilan qiziquvchilar uchun ham foydalidir. O'quvchilarni matematika tarixi, bu boradagi kashfiyotlar bilan tanishtirish, matematik tushunchalarni va qonuniyatlarni ro'yobga kelishda ayrim olimlarning, olimlar jamoasining va xalqlarning roli bilan tanishtirish ularning dunyo qarashini shakllantirishda, matematikaga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, kasbiy tayyorgarliklarini shakllanishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar. Matematikada tenglamalar ildizi, Differentsial va integral, xisob abjad hisobi, kristollografiya, kvant fizikasi, Lagranj tenglamalari, fut, lokat, Primitiv ko'rinishdagi miqdoriy munosabatlar, son , figura, yuza, kasr sonlar, algoritim, o'nlik sonlar, katta sonlar.

DEVELOPMENT OF MATHEMATICS AND ORIGIN OF NUMBERS

Bayjonova Nazokat

Teacher at school № 14 in Ellikkala district of the Republic of Karakalpakstan

ABSTRACT

The history of mathematics deals with the history of the development of mathematics, including the study of the contributions of individual scientists and groups of scientists to the development of science, the emergence of mathematical concepts, laws, and their role in science and life. It is also useful for math teachers and those interested in the history of science

Keywords: root of equations in mathematics, differential and integral calculus, alphabetical calculus, crystallography, quantum physics, Lagrangian notations, feet, locks, quantitative relations in primitive form, numbers, figures, surfaces, fractions, algorithms, decimals, large numbers

KIRISH

Matematika juda qadimgi fanlardan biri bo'lib dastlabki bosqichlarda o'zaro muomala va mehnat faoliyatlari asosida shakllana boshladi. U asta-sekin rivojlana boshladi, ya'ni faktlar yig'a boshladi. Matematika mustaqil fan sifatida vujudga kela boshlaganda uning bundan keyingi rivojlanishiga matematik bilimlarning o'zi ham ta'sir eta boshladi. Shulardan ba'zilarini qayd etib o'taylik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

1) Nyutonning (differentsial va integral xisobining ilk qadamlari) flyuksiyalarni hisoblash usuli darhol mexanikani masalalarini hal qilishni umumiy metodi darajasigacha ko'tarildi.

2) Lagranj algebraik tenglamalarni radikallarda hal qilish problemasini izlaganda tenglama ildizlarini "gruppalash masalalarini" qaragan edi. Keyinroq esa E.Galua gruppalar nazariyasini rivojlantirib, yuqoridagi problemani hal etdi. So'ng XIX asrda A.Keli gruppaga ta'rif berdi. S.Li esa uzluksiz gruppalar nazariyasini yaratdi. 1890 yilda E.S.Fedorov gruppalar nazariyasi kristollografiyaga tatbiq etdi. Hozirda esa gruppalar nazariyasi kvant fizikasining ilmiy quroliga aylangan. Bulardan ko'rinadiki matematika nafaqat o'z-o'zini rivojlantiradi, balki boshqa fanlarning rivojlanishiga va aksincha boshqa fan yutuqlari asosida o'zi ham rivojlanadi. So'ngi yillarda fan va texnikaning jadal rivojlanishi kibernetika, hisoblash texnikasi, ekonomika, boshqarish sistemasi, psixologiya, meditsina va boshqa sohalarda matematikaning roli yanada kuchayib ketdi. Matematika tarixi matematikaning rivojlanish jarayonida ko'pdan - ko'p yorqin dalillar bilan bir qatorda qorong'u zulmat davrlarini boshidan kechirganligidan dalolat beradi. Haqiqatdan, ham din peshvolari din ta'limotiga mos kelmagan har qanday yangilikning yo'q qilishga intilganlar. Faqat ayrim olimlarning katta jasoratigina fanni ilgari siljishi uchun imkoniyatlar yaratib bergan. Jumladan Kopernik va Galiley, Ulug'bek qismlari. Yoki XVII asrda Leybnits va Nyuton asarlarida cheksiz kichiklar haqida ma'lumotlar paydo bo'lishi bilan Episkop Berklining qattiq tanqidiga uchradi. Yoki limitlar nazariyasi XIX asr oxiriga qadar qattiq tortishuvlarga sabab bo'lib keldi. Hatto Koshining ishlari ham bunga barham bera olmagan edi. Yoki N.I.Lobachevskiy ishlari o'limidan so'ng XIX asr oxirida tan olindi. (Ya.Bolyai va Gauss ishlari). Matematikani sotsial-iqtisodiy sohalarga ta'sirini chuqurroq ko'rabilish uchun uning tarixini turli ijtimoiy formatsiyalar bilan birgalikda qarash kerak.

MUHOKAMA

O'rta asrlarda esa fan ko'p jihatdan boy-feodallarning manfaatiga, dinga bo'ysundirilgan (savdo ishlari, hosil bo'lish, meros bo'lish, o'zga yerlarni bosib olish, ta'sir doiralarni kengaytirish). Matematika fanida ilg'or va reaksion kuchlarning

kurashi har doim sinfiy xarakterga ega bo'lib kelgan. Ayniqsa tarixiy va filosofik masalalarda bu yaqqol ko'rinib turadi. Demak, matematika tarixini bilish fanni mantiqan va tarixan rivojlanishining asosiy faktlarini va qonunlarini to'g'ri bilish va talqin qilish imkonini beradi, sxolastikani bartaraf etadi, ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Matematika tarixida o'zining xarakteri jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladigan davrlar mavjud bo'lib, bunday ajratishlar davlatlarda nisbatan, sotsial-iqtisodiy formatsiyalarga nisbatan, buyuk kashfiyotlarga nisbatan va hokazo qarab davrlarga bo'linishi mumkin. Shulardan biri A.N.Kolmogorov taklif etgan variantdir. U quyidagicha:

I. Matematikaning ro'yobga kelishi. Bu davr eramizdan oldingi VI-V asrlargacha davom etib, bu paytga kelib matematika mustaqil fan sifatida shakllanadi. Bu davrning boshlanishi esa, o'tmish ibtidoiy davrga qarab boradi. Bu davrda matematika hali fan sifatida shakllanmagan bo'lib, qilingan ishlarning xarakteri asosan kuzatish va tekshirish natijalari asosida materiallar to'plashdan iborat bo'lgan.

II. Elementar matematika davri. Bu davr eramizdan oldingi V-V asrlardan boshlanib, to hozirgi XVI asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda asosan o'zgarimas miqdorlarga oid masalalar atroflicha o'rganilgan bo'lib, bularning ba'zilari o'rta maktab kursiga kiritilgan, matematikaning bundan keyingi rivoji o'zgaruvchi miqdorlarning kiritilishi bilan bog'liq.

III. O'zgaruvchi miqdorlar matematikasi. Bu davrning boshlanishi o'zgaruvchi miqdorlarning kiritilishi, Dekart analitik geometriyasi vujudga kelishi, Nyuton va Leybnits asarlarida differentsial va integral xisobi tushunchalari paydo bo'lishi bilan xarakterlidir. XVI asrdan to XIX asrgacha davom etgan bu davrda matematika jadal sur'atlar bilan rivojlandi, yangi bo'limlar vujudga keldi. Barcha ilmiy yo'nalishlarning bunday rivoji matematikani hozirgi zamon ko'inishiga olib kelinishiga sabab bo'ldi. Hozirda biz buni matematikaning klassik asoslari deb yuritimiz.

IV. Hozirgi zamon matematikasi davri. Bu davrda yangi matematik nazariyalar, matematikaning yangidan -yangi tatbiqlari vujudga keldiki, u matematika predmetini mazmunini judayam boyitib yubordi. Bu esa o'z navbatida matematika asosini (aksiomalar sistemasini, isbotlashning mantiqiy usullarini va boshqalar) hozirgi zamon matematikasining yutuqlari asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

NATIJA

Endi esa sonlarning paydo bo'lish tarixiga nazar solsak. Qadim tosh asrida (poleolit davri) odamlar hali g'orlarda yashagan va hayoti hayvon hayotidan deyarli farq qilmaydigan davrdan boshlab, odamlar ov qurollarini tayyorlash, o'zaro aloqa vositasi bo'lgan tilni vujudga keltirish borasida, keyinroq esa o'ziga e'tibor berishi (rasmlar, figuralar, bezaklar va boshqalar). Yashash uchun ne'matlarni ishlab chiqarishni yo'lga

qo'yishi, yerni ishlay boshlashi boshqacha aytganda tabiatga nisbatan insonning aktivligini oshishi (neolit davri 15 ming yil) sonli miqdorlar va fazoviy munosabatlarni tushinishda ilgari qo'yilgan qadam bo'ldi. Yashashni o'troq holga o'tishi, qishloqlar paydo bo'lishi, hayvonlarni o'rgatilishi, ekinlar ekish, mehnat qurollarini yaratilishi bu protsessni yanada tezlashtirdi. Albatta matematik bilimlarni shakllanishi turli xalqlarda o'ziga xos usullar bilan shakllandi. Lekin shunga qaramasdan asosiy matematik tushunchalar; son, figura, yuza, natural sonlarning cheksiz davom etishi va boshqalar asosan amaliyot natijasida vujudga keldi va rivojlanish bosqichining uzundan - uzun yo'lini bosib o'tdi.

Alfavitli sanoq sistemasi (abjad hisobi). Eramizdan avvalgi V asrdan etib kelgan eng qadimgi grek - yunon alfavit sistemasi.

7 8 9 1 2 3 4 5 6 ,), дзета(), дигамма, , , , , (30 40 50 60 70 80 90 10 20 , , qo, , , ,), каппа, (100 200 300 400 500 600 700 800 900) самма, , , , (, , , Misol: ... , 444 ... , 1000, , 2000, Arab hisobi (abjad hisobi).

Alif Be Jim Dol Ke Vov Ze Xe Itqi 1 2 3 4 5 6 7 8 9
yo Kof Lom Mim Nun Sin A'in Fe Sod 10 20 30 40 50 60 70 80 90

Qof Re Shin Te Se Xe Zol Zol Izqi Ta'in 100 200 300 400 500 600 700 800 900 1000

Mas. 12 = 4 ب ی avval 10 ni o'ng tomoniga 2 ni yoziladi 539 = 4000 = 4 د ع (4 va 1000 ko'rinishida) 50000 = 5 ن ع (50 va 1000 ko'rinishida)

O'nli bo'lmagan pozitsion sistemalar. Bularga Vavilon, indeetslar, mayya qabilasi, hindlarning ikkilik sistemasi kiradi. O'nli sanoq sistemasi nol bilan birga dastlab eramizdan 500 yil avval Hindistonda vujudga keldi. Hindlarning matematikaga oid eng qadimgi yodgorliklari eramizdan oldingi VIII - VII asrlarga to'g'ri kelib, bular sanskrit tilida yozilgan diniy kitoblardir. Bularda geometrik yasashlarga oid (saroylar qurish, ibodatxonalar qurish, buddalar yasash ...), doirani kvadratlashning dastlabki urinishlari, Pifagor teoremasining tatbiqlari va buning natijasida Pifagor sonlarini topishga doir arifmetik masalalar echish va boshqalar. Sanoq sistemasi avval boshdan o'nlik sistemada ishlatila boshladi. Xususan katta sonlarni tuzish va ular ustida amallar bajarish odat tusiga kirgan. Jumladan qadimiy afsonaga qaraganda Buddha o'nli sanoq sistemasida 1054 gacha bo'lgan sonlarni tuzgan va ularning har bir razryadiga mos nomlar qo'ygan. Yoki boshqa bir afsona (yer xudosini ishqida musobaqalashgan Sarvatasidda) maxraji 100 bo'lgan geometrik progressiyaning $107+9*48$ - hadini ya'ni 421 ta nol bilan tugaydigan sonni hosil qilganligi haqida so'z boradi. Yoki boshqa misol $b_1 = 3, q = 5, S = 22888183593$ bo'lgan geometrik progressiyaning hadlari sonini topish masalasi (Bxaskara "Lilovati" asari). O'nli sanoq sistemasi (nol bilan) va

sonli simvolikani ishlab chiqish va rivojlantirish bilan birga hindlar cheksiz katta sonlar haqida ham tasavvurga ega bo'lganlar. Jumladan Bxaskara Akarya 0 a ko'rinishdagi ifodaga izoh berib, uni son ekanligini, lekin unga qanday katta sonni qo'shganimizda yoki ayirganimizda ham o'zgarmaydi deb tushuntiradi. Xitoyda matematik tushunchalarni paydo bo'lishi Xitoy matematika tarixchisi Li Yanning tasdiqlashiga ko'ra e.o. XIV asrga to'g'ri keladi. Dastlabki matematikaga oid ma'lumotlar chjoubi (quyosh soati) va matematikaga oid 9 kitob (matematika v devyati knigax) asarlardir. Bu asarlar eramizning boshida (e.o. 152 y. olim Chjan Tsan) paydo bo'lib, bungacha bo'lgan Xitoydagi matematikaga oid barcha ma'lumotlar jamlangan. Jumladan bu asarda ieroglifli simvolika bilan berilgan o'nli sanoq sistemasi haqida ham ma'lumotlar bor. Sonlar sinflarga bo'linib, har birida to'rttadan razryad bor. Nol esa yo'q bo'lib, faqat XII asrda paydo bo'lgan (hindlardan o'zlashtirilgan bo'lsa kerak). Arifmetik amallar esa sanoq taxtasida bajarilib, nolni o'rni bo'sh qoldirilib ketgan. Misrda matematikaga oid bo'lgan ma'lumotlar 1858 yili Raynda (Rhind) papirusining o'qilishidir. U Londonda saqlanayotgan bo'lib, taxminan uzunligi -5,5 metr eni - 32 sm bo'lib, 84 ta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masala jamlangan. Ikkinchi katta yodgorlik Moskvada bo'lib, Axmes papirusi deb ataladi. Uzunligi o'shanday bo'lib, eni 8 sm ga teng, 25 ta masala bor. Birinchisi e.o. 1650 yilga tegishli bo'lib, 1882 yili V.V.Babinin ruscha sharxini bergan. Ikkinchisi e.o. 1850-yilga tegishli bo'lib, sovet akademiklari B.A.To'raev va V.V.Struve tomonidan o'qilgan va o'rganilgan. Ma'lum bo'lishicha Misrliklar e.o. 4000 yillar davomida matematikani amaliy ishlari bilan shug'ullanganlar. Ularga o'nlik va 60 lik sanoq sistemalari tanish bo'lgan. Jumladan o'nli sanoq sistemasi ieroglifli bo'lib, bog'lovchi sonlar 10k larga maxsus belgilar qo'yilgan. Algoritmik sonlar esa bog'lovchi sonlarning kombinatsiyasi asosida tuzilgan. Umuman olganda o'nli sanoq sistemasini paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi turli xalqlarda turlicha kechdi.

XULOSA

O'nli sanoq sistemasining bundan keyingi rivoji ko'p jixatdan Islom dinining vujudga kelishi va 641 yili Bag'dod xalifaligini o'rnatilishi bilan bog'liq. Taxminan 773 yili al - Fazari xindlarning "Siddxanti" (300 – 400 yillar) asarini arab tiliga tarjima qiladi (saqlanib qolgan "Sur'ya" qismi). Islom davri matematikasi turli - tuman kuchlar ta'siri ostida rivojlandi. Ayniqsa xalifa Abbosiylar davrida: al - Mansur (754 - 775), Xorun - al - Rashid (786 - 809), al - Ma'mun (813 - 833). Al-Ma'mun Bog'dodda kutubxonasi va observatoriyasi bo'lgan katta madrasa qurdiradi. Bu yerda ko'plab sharq olimlari ishlab ijod qilganlar. Xivalik Muxammad ibn Muso al-Xorazmiy (825 yili) Xindistonga qilgan safaridan so'ng yozgan "Xind sonlari haqida" asari (XII asrda Lotin tiliga tarjimasi saqlangan) paydo bo'lgandan so'ng o'nli sanoq sistemasi tez tarqala

boshladi. Bu davrga kelib savdo-sotiq keng yo'lga qo'yilgan turli xalqlardagi matematika yutuqlari umumlashtirilib yaxlit holga kelgan edi. Ana shunday holda u Yevropaga kirib keldi. (Algoritm - Algorifm – al-Xorazmiy). Xulosa qilib aytganda islom dini tarqalishi bu yangidan-yangi o'lkalarni qamrab olish va natijada vujudga kelgan ulkan davlatni boshqarish uning ravnaqini ta'minlash fanni keng miqyosda davlat raxnamoligiga olishni taqozo etardi. Chunki savdo-sotiqni yo'lga qo'yish yangi shaxarlar barpo etish, meros masalalari va boshqalar bunga sabab bo'la oladi. Natijada davlat apparatida maxsus oylik bilan ishlovchi olimlar jamlana bordi. Ular turli mamlakatlardan keltirilgan asarlarni o'rganish, tarjima qilish, umumlashtirish va yangi kashfiyotlar bilan shug'ullanishgan. Shuning uchun ham al-Xorazmiyning "Xind sonlari haqida" asari o'ziga xos entsiklopedik asar bo'lib, berilgan sharxlar va Xorazmiy tomonidan rivojlantirilgan nazariyalar bizning hozirgi zamon o'nli sanoq sistemasiga juda yaqin keltirilgani uchun ham, u butun dunyoda qabul qilindi. Hind raqamlari: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9. Shunday qilib butun joxonda matematika va sonlar shu zaylda rivojlandi. Al-Xorazmiyning matematikaning rivijlanishiga qo'shgan hissasi esa alohida o'ringa sazovordir.

REFERENCES

1. Axmedov S.A. O'rta Osiyda matematika o'qitish tarixidan. T.: «O'qituvchi», 1977.
2. Abduraxmonov A. Al-Xorazmiy buyuk matematik. T.: «O'qituvchi», 1983.
3. Abduraxmonov A., Narmonov A., Normurodov N. Matematika tarixi. T.: O'zRMU, 2004.
4. Beruniy. Tanlangan asarlar. «Qonuni Mas'udiy». T.: «Fan», 1975.
5. Nazarov X., Ostonov Q. Matematika tarixi. T.: «O'qituvchi», 1996.
6. Gleyzer o'.I. Istoriya matematika v shkole. M.: Prosvechenie, 1964 .
7. Depman I. Iz istorii matematiki. M.: Prosvechenie, 1950 .

**O'ZBEKISTONDA MILLIY QADRIYATLAR VA MILLATLARARO
TOTUVLIK****Jalilov Mirsaid Bektosh
o'g'li****Qalandarov Ravshan
Bektosh o'g'li**
Navoiy davlat pedagogika instituti**Mahammatova Sharofat
Qudrat qizi****ANNOTATSIYA**

Qadriyatlar deganda biz narsa va voqealar, jamiyat moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ifodalash uchun qo'llaniladigan tushuncha. Milliy-ma'naviy qadriyatlar – “milliylik” “ma'naviyat” va “qadriyat” tushunchalari kesishgan nuqtada jamlashgan ijtimoiy xodisalarni o'z ichiga oladi. Deylik ayrim millatlar tarixiy taraqqiyot davomida ishlab chiqarishning ma'lum sahasida yuksak layoqatni shakllantirgan tarbiya, tafakkurning ta'siri yo'nalishiga e'tibor beradi. Milliy xarakterida, hayotga, ijtimoiy hodisalarga munosabatida o'ziga xosliklari bor. Axloqiy, huquqiy, siyosiy madaniyat sohalaridagi xatti-harakatlarda ham ma'lum ijobiy tafovutlar uchraydi. Bunga o'xshash rangbaranglik nafaqat boyligimiz, balki taraqqiyotimiz sur'atini tezlashtiruvchi omil bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: qadriyat, millatlararo, elat, baynaminallik, milliy markazlar, demokratiya peinsiplari, tarixiy ildizlar, umuminsoniy.

**NATIONAL VALUES AND INTERNATIONAL FRIENDSHIP IN
UZBEKISTAN****Jalilov Mirsaid Bektosh
ugli****Kalandarov Ravshan
Bektosh ugli**
Navoiy State Pedagogical Institute**Mahammatova Sharofat
Kudrat kizi****ABSTRACT**

Values are the concepts we use to describe the importance of things and events, the material and spiritual riches of society. National-spiritual values - social phenomena that are concentrated at the intersection of the concepts of "nationality", "spirituality" and "value". For example, some nations focus on the direction of the influence of education, thinking, which has formed a high capacity in a particular field of production during the course of historical development. It has its own national character, attitude to life and social events. There are also some positive differences in behavior in the areas of moral, legal and political culture. Such diversity can be a factor not only in our wealth, but also in the pace of our development.

Keywords: values, interethnic, ethnicity, inter-ethnicity, national centers, principles of democracy, historical roots, universal.

KIRISH

Qadriyatlar deganda biz narsa va voqealar, jamiyat moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ifodalash uchun qo'llaniladigan tushuncha. Milliy-ma'naviy qadriyatlar – "milliylik" "ma'naviyat" va "qadriyat" tushunchalari kesishgan nuqtada jamlashgan ijtimoiy hodisalarni o'z ichiga oladi. Deylik ayrim millatlar tarixiy taraqqiyot davomida ishlab chiqarishning ma'lum sahasida yuksak layoqatni shakllantirgan tarbiya, tafakkurning ta'siri yo'nalishiga e'tibor beradi. Milliy xarakterida, hayotga, ijtimoiy hodisalarga munosabatida o'ziga xosliklari bor. Axloqiy, huquqiy, siyosiy madaniyat sohalaridagi xattiharakatlarda ham ma'lum ijobiy tafovutlar uchraydi. Bunga o'xshash rangbaranglik nafaqat boyligimiz, balki taraqqiyotimiz sur'atini tezlashtiruvchi omil bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahon keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka-yu yagonadir. O'zbekiston deb atalmish yurtning yagonaligi uning betakror tabiati, boy tarixi, mehnatkash insonlari bilan bir qatorda bu zaminda turli millat va elat vakillarining yagona oila farzandlaridek yashashlarida namoyon bo'lmoqda. Bunday ahillik, do'stlik va hamkorlik o'zining chuqur tarixiy ildizlariga va asosiga ham ega. Adolatli milliy siyosat olib borilganida ko'p millatlilik maqsadimiz yagonaligini, taqdirimiz birligini, hamjihatlik zarurligini tushunishta yordam beradi, umuminsoniy g'oyalarning ustuvor bo'lishini, shaxsiy manfaatlarni to'g'ri anglab olishni osonlashtiradi. Aksincha, milliy munosabatlarga ziyraklik va noziklik bilan yondashmaslik umummilliy tamoyillarga biroz e'tiborsizlik ham tinchlik va barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, qomusimizning 18-moddasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir»¹, - degan qoida ana shu bag'rikenglikning zamonaviy siyosiy-huquqiy ifodasidir. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov shunday yozadi: "Ayni chog'da insoniyat tarixida buning aksini, ya'ni ko'p elatli davlatlardagi millatlararo munosabatlarda uyg'unlikning yo'qligi, butunbutun xalqlar va mamlakatlarni ancha orqaga uloqtirib tashlagan ijtimoiysiyosiy falokatlarga olib borganini ko'rsatuvchi misollar ham oz emas. Zero, ko'p elatlilik nafaqat ayrim mamlakatlarning, balki butunbutun mintaqalarning ham ichki siyosiy barqarorligi va milliy xavfsizligiga putur yetkazuvchi bosh omilga aylangan"

Millatlararo hamjihatlik qaror topmasa, tajovuzkor Millatchilik va shovinizmning halokatli g'oyalari tarqalishi uchun qulay vaziyat yaratiladi. Milliy istiqlol royasining amal qilishiga, kishilar qalbi va ongiga singdirilishiga jiddiy zarar yetkazadi. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda bu muammo ilmiy asosda, xolisona hal qilinmoqda.

Mamlakatimizda statistik ma'lumotlarga ko'ra, 136 millat, elat, xalq va etnik guruhlarning vakillari yashaydi. Ularning har biri o'z milliy madaniy urfodatlari, an'analari, tiliga, konstitusiyaviy huquqiy tenglikka ega. O'zbekistonda bugungi kunda 100 dan ortiq milliy madaniy markaz faoliyat ko'rsatmoqda. Shu yo'nalishda markazlar tuzish bo'yicha 15 ta tashabbuskor guruh ish olib bormoqda.

Turli millat vakillarining ijodiy tadbirlari, badiiy ko'rgazmalari, bir tomondan, ayni millatning O'zbekiston fuqarosi sifatida o'z o'rnini borligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, shu zaminda yashovchi barcha millatlarning O'zbekiston xalqi-O'zbekiston fuqarosi ekanligini namoyon etuvchi, mustahkamlovchi milliy g'oya atrofida birlashuviga olib boradi.

Ulug' bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy ham «Agar fikrlari va harakatlari jamiyat manfaatlariga xizmat qilmaydigan bo'lsa, mamlakatni bunday kishilardan tozalash kerak», degan fikrni bejiz aytmagan. Bashariyat tushunchasi rangorang millatlar va elatlar, shuningdek turli din va irqqa mansub insonlarni o'ziga qamrab oladi. Demak har bir inson bashariyat va ayni vaqtda o'z xalqi, o'z Vatanining farzandi hamdir. Har bir kishida o'z xalqining tili, ruhiyati, an'analari, qadriyatlari barq urib turadi.

E'tibor berilsa, mazkur qoidada milliy hayotga, fuqarolarning milliy histuygulariga daxldor muhim ahamiyatga ega bir qator tamoyillar belgilab qo'yilganiga ishonch hosil qilish mumkin.

Tarixiy tajriba ko'p millatli davlatning barqarorligi millatlararo munosabatlarga daxldor huquq va erkinliklarni to'g'ri belgilab qo'yish bilan bir qatorda amaliyotda unga qanchalik rioya qilishga ham bog'liqligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Xususan, millatlararo munosabatlar sohasidagi amaliyot haqida gap ketar ekan, istiqlol yurtimizdagi turli millat va elat vakillariga o'zining tarixiy vatanlari bilan aloqalar o'rnatishga imkon berganini qayd etish lozim. O'rnatilgan aloqalar ona tilini o'qitish va o'rganishni yo'lga qo'yish, turli qo'llanmalar va adabiyotlarni o'z vaqtida olish, yoshlarni ta'lim olish uchun rivojlangan mamlakatlar, ba'zan esa ularning tarixiy vataniga yuborish imkoniyatlarini yaratdi. Shuningdek keng qamrovli madaniyma'rifiy dasturlarni amalga oshirish uchun sharoit yuzaga keldi.

O'zbekiston hozir va bundan keyin ham o'z mustaqilligini himoya qila olishi uchun ko'p millatli o'zbekistonliklarning har bir avlodi milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalab borishi barqarorlik va umummilliy totuvlik va bag'rikevtlikni yanada mustaxdsamlab boradi. Zero, milliy g'oya - barcha o'zbekistonliklarning manfaatlarini ham ifodalovchi g'oyadir.

Respublikada istiqomat qilib turgan 136 millat va elatning har biri o'ziga xos madaniyatga va ko'p asrlik an'analarga ega. O'zbekiston Respublikasi o'tkazayotgan milliy siyosatning eng muhim ustuvor yo'nalishi barcha millatlarning ravnaqi uchun tinch sharoit va imkoniyat yaratish, millatlararo munosabatlarni uygunlashtirishdan iborat. Bu sohada keyingi yillardagi eng katta yutug'imiz umumiy uyimizdagi tinchlik va barqarorlik millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir. Odamlarimiz ongida ana shu qadriyat va uning o'zgarmas ahamiyati tushunchasi kun sayin oshib borayotganligidir deyish mumkin.

NATIJA

Bugun O'zbekiston diniy bag'rikenglik (tolerantlik) va millatlararo murosa borasida faqat MDH davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda.

Tariximizning har qaysi davrida din doimo odamlarda yaxshi hislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan halos bo'lishga chorlagan, yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan. Bugungi kunda ma'naviy va diniy jabhalarda kechayotgan murakkab jarayonda barcha millat va din vakillari bir-birlariga nisbatan hamjihatlik bag'rikenglik va o'zaro hurmat tamoyillariga amal qilishlari doimiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir.

So'nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan diniy aqidaparastlik va jangarilik islomning asl mohiyati bo'lgan bag'rikenglikka zid bo'lgaya harakatlarga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi zamonda milliy va diniy bag'rikenglik dunyoda tinchlik va barqarorlikni asrash hamda diniy ekstremizm, fundamentalizm va aqidaparastlikka qarshi kurashni, butun jahon hamjamiyatining hamkorligini nazarda tutadi. Shu tamoyilga asoslangan O'zbekiston turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrabavaylash, barcha fuqarolar o'z e'tiqodini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular o'rtasidagi qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Diniy bag'rikenglik ham dinlararo hamda har bir dinning ichidagi turli xil yo'nalishlar va mazhablarning ezgu g'oyalarini qadrlash, birbirlarini hurmat qilish asosida amalga oshadi.

XULOSA

Bu milliy g'oya amal qiladigan ustuvor g'oyalar sifatida milliy bag'rikenglik va dinlararo bag'rikenglikka asoslash turli xalqlar va millatlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik totuvlikni ta'minlash orqali erkin va farovon hayot qurishga, insonlarning tub hayotiy maqsadlari bilan mushtarakdir. Chunki milliy g'oya «aholining barcha qatlamlarida mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni izchil ravishda olib borish - bu zamon talabidir. Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur, chunki mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat yo'lini yo'qotishi muqarrar».2 Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, milliy bag'rikenglik -turli milatga mansub kishilarning birbirlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urfodati va an'analarini, milliy madaniy merosini hurmat qilishni, ularning sha'ni, qadrqimmatini, ornomusini qadrlash orqali amalga oshadigan o'ziga xos ma'naviy kenglikni (bag'rikenglikni) anglatadi. Milliy bag'rikenglik bunga zid bo'lgan, milliy manfaatga ziyon yetkazish hisobiga ta'minlanmaydi. U turli millat manfaatlarini uygun ko'rish va ta'minlash asosida mustahkamlanib boradi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent O'zbekiston 2018.
2. Islom Karimov. "yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" toshkent Ma'naviyat 2008
3. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. To'shkwnt O'zbekiston 2017

O‘ZBEK VA INGLIZ NUTQIY ETIKETLARINING QIYOSIY TADQIQI

Lola Uzakova

FarDU, Ingliz tili (lingvistika) 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda tilshunoslikda o‘zbek va ingliz etiketlarining farqiga katta e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, qiyosiy tadqiqot usuli muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Ushbu maqolada etiket haqida umumiy ma’lumot berilib undan so‘ng o‘zbek va ingliz nutqiy etiketlarining qiyosiy farqini korib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: madaniyat, ibtidoiy davr, odamlar dunyoqarashi, insoniyat tarixi, odob-axloq, nutqiy etiketlar

COMPARATIVE STUDY OF UZBEK AND ENGLISH SPEECH ETHICS

Lola Uzakova

FarSU, 1st year master's degree in English (linguistics)

ABSTRACT

Today, linguistics pays great attention to the differences between Uzbek and English etiquette. The method of comparative research is especially important. This article provides an overview of etiquette and then compares the differences between Uzbek and English etiquette.

Keywords: culture, primitive period, people's worldview, human history, ethics, speech etiquette

KIRISH

Etiket axloqiy madaniyatning yaqqol ko‘zga tashlanadigan munosabatlar ko‘rinishlaridan biri sifatida ko‘proq insonning tashqi madaniyatini, o‘zaro munosabatlardagi o‘zini tutish qonun-qoidalarning bajarilishini boshqaradi.

Aslida, “etiket” tushunchasi miloddan avvalgi 2,5 - 3 ming yillikda qadimgi Misrda paydo bo‘lgan. Etiket (étiquette) atamasi esa XVII asrning oxirida vujudga kelgan. Ammo qadimgi manbalar etiket qoidalari ta’b, rasm-rusm hamda odatlar shaklida azaldan ibtidoiy davridayoq qabilalarda mavjud bo‘lganligini asoslaydi. Bunday qoidalarni to‘liq bajarmaslik o‘zi yashayotgan jamoa yoki qabilaga xiyonat qilish bilan barobar bo‘lgan. Avvalida bunday qoidalar nafaqat axloqiy, balki huquqiy, iqtisodiy, diniy hamda qon-qarindoshlik munosabatlarini ham qamrab olgan edi. Jamoaning har bir a’zosi unga so‘zsiz bo‘ysunar edi. Shu tariqa etiket bu davrda mustaqil qoidalarga

ega bo‘lmagan, asosan jamoatning ijtimoiy muammolariga bog‘liq holda tatbiq etilgan. Ya’ni, bu qoidalar tabiiy jamoatning talabi bilan vujudga kelgan. Bunday talablarning bajarilishi qabila yoki jamoatning kattalari tomonidan nazorat qilinardi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Keyinchalik esa ushbu qoidalar mustaqil ravishda ajralib chiqib, faqatgina axloqiy me’yorlar darajasida ko‘rila boshladi. Qadimgi Sharqda, jumladan, Somir alqovlarida inson xatti-harakatlarini tartibga soluvchi yozma yodgorliklarda – giltaxtalarda o‘z aksini topgan. Qadimgi Misrda esa bu tartib qoidalar qonunlar majmui sifatida emas, balki badiiy adabiyotlar orqali namoyon bo‘lgan. Bunday qoidalar, ayniqsa, Somirda ilohiylik bilan yo‘g‘rilgan. Ularni bajarmaslik xudoning qahri bilan qaytarilishi ta’kidlangan. Qadimgi Skandinaviya adabiy yodgorligi “Edda” eposi nafaqat dasturxon atrofida o‘tirish qoidalari, balki mezbon sharafiga tilak aytish me’yorlarni ham o‘zida mujassam etgan.

Bu kabi xatti-harakat me’yorlari jamiyat taraqqiyotining yo‘nalishini belgilab berardi – yashash tarzi, odamlar dunyoqarashi, jamiyatdagi darajalarni farqlardi. Bu esa keyinchalik turmush etiketi, siyosiy etiketning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. U butun bir jamiyat bilan birga, o‘zaro davlatlarning tashqi munosabatlarini ham belgilardi.

Shuni ta’kidlash zarurki, axloqiy tafakkur etiketni o‘z-o‘zicha axloqiy anglashning muhim xususiyatlariga hamda axloqiy tamoyillar, me’yorlar, tushunchalarsiz qabul qilib, uni ijtimoiy hayotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash bilan kutilgan natijani bermaydi. Chunki hozirgi zamon etiket mezonlari, qoidalari va talablari barcha ijtimoiy hayot sohalarini qamrab olmoqda. Bugungi etiket inson axloqiy munosabatlarini himoyalaydi. Biroq, etiketning axloqiy talabi hisoblangan nazokat, takalluf, iltifotda samimiylik, ya’ni botiniy axloqning bo‘lmasligi yoki sustligi amalga oshirilgan harakatlarni oqlamaydi. Shu ma’noda, bu yo‘lda yuksak axloqiy bilim va dunyoqarashga ega bo‘lmay turib, kutilgan natijaga erishish qiyin. Zero, ulug‘lar aytganidek, “Vaqtiki ma’lum bo‘ldi, har kishiga ul ilmni bilmak vojibdurkim, qilur amalida ul ilmga hojatmand bo‘lg‘ay. Bas, bilgilki, omi(lar) hamisha xatardadurlarkim, agar bir amalni qilmoqni xohish qilsalar, ul amal ilmni bilmagay...”

MUHOKAMA

Etiketning qoidalari – odobga, odob – xushxulqqa, xushxulq - axloqiylikka olib borardi. Binobarin, axloq – jamiyat, zamon, ba’zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma’naviy hodisa sifatida nafaqat shaxsni, balki butun bir jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois etiketni bugungi kunga kelib, texnika asri kishisining zamon talablariga javob beradigan madaniy-

maishiy turmush tarzini go'zallashtirishga, o'zaro munosabatlar tizimini madaniylashtirishga xizmat qiluvchi fanning yangi tarmog'i deyish mumkin.

Nutqiy etiketlar deganda suhbatdoshlar o'rtasida nutq aloqasini o'rnatish va nutq holatiga muvofiq hissiy ijobiy tonallikda aloqani ta'minlash maqsadida hozirgi paytda ushbu jamiyatda qabul qilingan lingvistik belgilar va ulardan foydalanish qoidalari tushuniladi. Masalan, ozbek va ingliz tillaridagi nutqiy etiketlaridagi frazalar : salom / hi, siz yaxshi yashayapsizmi? ishlaringiz qalay / how are you?, mening hurmatim / with my respect, sharafni e'lon qilishga ijozat bering / let me introduce/ it is an honour to introduce; xush kelibsiz / welcome, marhamat / here you are, yoqimli ishtaha / bon appetite, eng yaxshi tilaklar bilan/ with best wishes non va tuz / bread and salt, choy va shakar / tea and sugar, Xudo yordam beradi / God supposes; rahmat / thank you, Masihni qutqaring /Help,please, sizga samimiy minnatdorchiligimni bildirishga ijozat bering/let me express my deepest graitude; sog'-salomat bo'ling/ stay healyhy, yana ko'rishguncha/ see you, xayr/ goodbye va h.k.

NATIJA

Nutq odob-axloqi o'zbek va ingliz tillarigi xos bo'lgan universal til hodisasidir. Shu bilan birga, har bir tilda nutq nazokatining milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi so'z va iboralarning o'ziga xos lug'ati mavjud.

Ingliz tili:	O'zbek tili:
Salomlashish	
Nice to meet you	Siz bilan tanishganimdan xursandman
Taklif qilish	
Would you like...?	Istaysizmi...?
Kechirim sorash	
Excuse me	Meni kechirasiz
Iltimos qilish	
Can you do me a favour?	Ijozat bering / Siz menga yordam bera olasizmi?

Bir-birlari bilan aloqa qilishda odamlar bu yoki boshqa ma'lumotni, u yoki bu ma'noni uzatadilar, biror narsani yetkazadilar, nimanidir so'rashadi va muayyan nutq harakatlarini bajaradilar. Biroq, ma'lumot almashishga kirishdan oldin, ovozli aloqaga kirish kerak va bu ma'lum qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Biz ularni deyarli sezmaymiz, chunki ular tanishdir.

Nutqiy etiketlar qoidalari nutq odob-axloq qoidalari bilan tartibga solinadi - nutq tilida rivojlangan va aloqani o'rnatish va saqlash holatlarida qo'llaniladigan barqaror iboralar tizimi. Bu murojaat: Hurmatli / Dear Sir or Madame salomlar Good morning et cetera/ Xayrli tong va hakazo, hamdardlik va hamdardlik: accept my condolences, tasdiqlash va iltifot: you are absolutely right/ siz haqsiz, taklifnomalar, takliflar,

so‘rovlar: I would like to invite you/ sizni taklif qilishga ruxsat bering, maslahatlar: I would like to recommend you/ sizga maslahat beraman va boshqa narsalar. Nutq odob-axloqi suhbatdoshga do‘stona munosabatni bildiradigan, aloqa uchun qulay muhit yaratadigan barcha narsalarni o‘z ichiga oladi. Til vositalarining boy to‘plami nutqiy vaziyatga mos va adresat uchun qulay bo‘lgan narsani tanlashga imkon beradi *siz* yoki *siz* muloqot shakli, samimiy, sodda yoki, aksincha, rasmiy suhbat ohangini o‘rnatish.

XULOSA

Umuman, o‘zbek tilidagi va ingliz tilidagi nutqiy etiketlarga xos ayrim leksik semantik guruhlarini bir-biri bilan solishtirish orqali va qiyosiy tadqiqi, ushbu tillardagi odob-axloqi qoidalarini va madaniyatini aks ettirish uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

REFERENCES

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. Toshkent.O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma’naviy-axloqiy fikr rivoji. – Toshkent.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
3. Abu Homid Muhammad al-G‘azzoliy. Kimyoi saodat. Ruh haqiqati. – Toshkent.: Adolat. 2005.
4. Komilov N. Komil inson haqida to‘rt risola. – T.: Ma’naviyat. 1997.
5. A.Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010, 308-b.
6. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati.T.: Iqtisod-moliya. 2009
7. Jaloliddin Rumi. Ichindagi ichindadir. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2003. - 29 b.
8. Фрейд З. «Психология массы и анализ человеческого «Я» - СПб, Азбука классика .2008.
9. Максимов А. Искусство общения или ремесло общения. М.: 2006.
10. Фрейд З. Остроумие и его отношение к бессознательности. □ Минск. Поппури, 1999-5 s.
11. Этикет от а до я. www.etiksite.ru. 11. KB.
12. Правила этикета. www.etiksite.org. 3 KB.

ONA TILI DARSLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY METOD – KAKOGRAFIYA USULIDAN FOYDALANISH

Nursulton Shayxislamov

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Maqolda o‘quvchilarga imlo qoidalarini o‘rgatish, xususan, kakografiya yo‘li, ya’ni maqsadli ravishda xatolarga yo‘l qo‘yilgan matni o‘quvchilarga tuzatish usuli haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: imlo, imlo qoidalari, mashqlar, to‘g‘rilash, kakografiya usuli

USE OF MODERN METHODS - CACOGRAPHY IN TEACHING NATIVE TONGUE LESSONS

Nursulton Shayxhislamov

Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent Region

ABSTRACT

The article discusses the question of teaching the students the spelling rules on the basis of the method of cacography, i.e. the method of basis of error, correction of the texts which contain errors entered intentionally.

Keywords: spelling, spelling rules, intentionally, exercises, error, correction, thought, cacographical method

KIRISH

Bugungi shiddatli davr har bir insondan bolalik chog‘idan boshlab qunt bilan o‘qish, ilm va hunar o‘rganishni talab etmoqda. Ana shu talab asosida mamlakatimizda o‘ziga xos ta’lim tizimi yaratildi: “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilindi. Ularda ta’limning boshqa sohalari qatori ona tili ta’limiga ham alohida o‘rin ajratilgan.

Ona tili o‘quvchini mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og‘zaki va yozma ravishda to‘liq bayon qilishga o‘rgatadi. O‘quvchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi.

Ma’lumki, har bir milliy til o‘zida moddiy olamni aynan, adyektivat aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg‘u-alamlari-yu shodliklarini ham o‘rinda tugal ifodalaydi. Insonda har bir narsaga nisbatan o‘z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tilning o'ziga xos nafosatini o'quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta'limida an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Keyingi yillarda *breyndayting*, *breyntorming*, *aqliy hujum*, *bumerang*, *blits-so'rov*, *klaster*, *keys-stadi*, *germenektiv suhbat* kabi turli tuman metodlar paydo bo'ldi [1, 180-bet]. Shunday usullardan biri kakografiyadir.

Kakografiya so'zi lotincha **kakos** – *yomon, xunuk, yoqimsiz va graphos* – *yozmoq* so'laridan olingan bo'lib, muayyan maqsadni ko'zlab xatoliklarga yo'l qo'yilgan matnni tuzatirish orqali o'quvchilarga imloni o'rgatish usuli sanaladi. Bu usulning pedagogik va didaktik jihatlari hali ochib berilmagan [2, 13-bet]. Rus tilida *какофонический, какофония* degan so'zlar mavjud bo'lib, ularga lug'atlarda *quloqqa yoqmaydigan, yoqimsiz, nosoz, g'aliz; uyg'unlashmagan, yoqimsiz tovushlar yig'indisi* degan izohlar beriladiki, bu so'z semantikasiga salbiy baho yuklaydi [3, 414-bet]. Shunga ko'ra, kakografiya usulida yozuv bilan bog'liq g'alizlik, yoqimsizlik yashirinib yotganga o'xshaydi, ammo orfografik nuqtayi nazardan qaralganda u bilan bog'liq didaktik hamda pedagogik jihatlarni ochib berish masalaga oydinlik kiritishi mumkin.

Kakografiya interfaol usullardan biri sifatida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga, eng muhimi ona tili darslarida olingan bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular bo'yicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. O'quvchilardagi loqaydlik, beparvolikni yo'qotib, dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, mutelik, tobelik, nafaollik kabi salbiy xususiyatlarga barham beradi.

Ayniqsa, fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya bo'limlari bilan bog'liq amaliy darslarni o'tishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Masalan, o'quvchilarga unli va undosh tovushlar bo'yicha yetarlicha ma'lumotlar berilgach, "Mustahkamlash darslari" yoki "Takrorlash darslari"da turli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda asosiy e'tibor so'zlarning aytilishi va yozilishi o'rtasidagi farqqa qaratiladi.

Tajribadan ma'lumki, o'quvchilarning aksariyati ona tili darslarida imlo qoidalarini puxta o'zlashtirmaydilar. So'larni qanday aytilsa, shunday yozishga odatlanib qoladilar. Shuningdek, o'quvchilarning nutqidagi dialektal xatoliklar ularning savodxonligiga soya solidi. Bu esa bora-bora ulardagi savodxonlik darajasining qotib qolishiga, so'zlarning muntazam ravishda xato yozilishiga sabab bo'ladi.

Masalan, o'quvchilarning og'zaki nutqida *baho, bahor, bilan, yulduz, teatr, savol, orden, obod, marvarid, shanba, mas'ul, daryo* kabi so'zlarni *boho, bohor, blan, yuldiz, tiatr, sovol, ordin, obot, marvarit, shamba, ma'sul, dayra* tarzida talaffuz qilish va shu asosda xato yozish amaliyotda uchraydi. Bu narsa ularning unli va undosh harflar imlosi

bo'yicha ona tili darslarida yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lganliklarini ko'rsatadi. Bu kabi xatoliklarning oldini olish maqsadida "O'zbek tilining imlo qoidalari"dagi "Ayrim unlilar va undoshlar imlosi" yuzasidan tegishli nazariy ma'lumotlar mavzular o'tilgach, quyidagicha topshiriq beriladi:

So'zlarni o'qing, xato yozilgan o'rinlarni topib, o'zbek tilning imlo qoidalariga mos ravishda ularni to'g'rilang va daftaringizga ko'chirib yozing.

Bugalter, hayol, xayol, xolol, momila, xuqiq, rektir, kanferensiya, kamyuter, maylis va hokazo.

To'g'ri yozilishi: *buxgalter, xayol, hayo, halol, muomala, halol, huquq, rektor, konferensiya, kompyuter, majlis.*

Kakografik yo'nalishdagi bunday topshiriqlarni bajarish bilan quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqa mustahkamlanadi;
- O'quvchilar ona tilidan olingan bilim va malakalarni xotirlashga, esga olishga harakat qiladi;
- Materiallarni bir-biriga solishtiradi, taqqoslaydi;
- Xulosalar chiqaradi, orfografik bilimlarni mustahkamlaydi.

MUHOKAMA

Ayniqsa, og'zaki nutqda *h – x, b – p, d – t, z – s* kabi birining o'rniga ikkinchisi ko'p qo'llaniladigan undosh tovushlarning imlosini o'rgatishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Bunda xato yozilgan so'zlarni o'quvchilarga slaydlar orqali ko'rsatish, sinf taxtasiga ataylab xato yozish, so'zlari xato yozilgan tarqatma materiallarni qo'llash kabi vositalardan foydalanish unumli. Masalan:

Xato yozilgan so'zlarni aniqlab, ularni imlo qoidalariga mos ravishda to'g'rilang va daftaringizga ko'chirib yozing.

Orombahsh, zahira, hoxish, xol-ahvol, hiyonat, ihlos, xar hil, xamma, Xindiston, hatti-xarakat, hayol

To'g'ri yozilishi: *orombaxsh, zaxira, xohish, hol-ahvol, xiyonat, ixlos, har xil, hamma, Hindiston, xatti-harakat, xayol.*

Kakografiya usuli leksikologiya bilan bog'liq mavzularni o'tishda ham qo'l keladi. Matn ichida bir tovush bilan farqlanuvchi *dars-darz, bob-bop, mart-mard, qasr-kasr, qaram-karam, halok-halak, kaft-kift, asl-asil, asr-asir, oxir-axir-oxur, chog'-choq-choh* singari paronim so'zlarni xato yozib, o'quvchilardan ularni to'g'rilab yozishni so'rash ulardagi bilimlarni mustahkamlashga olib keladi.

Xato yozilgan paronim so'zlarni toping, ularni imlo qoidalariga mos ravishda to'g'rilab, daftaringizga ko'chiring.

Birovga choq qazisang, o'zing tushasan. Mart bir o'ladi, nomart – ming. Qarz ikki qo'ldan chiqadi. Onangni kiftingda ko'tarsang, singlingni kaftingda ko'tar.

Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana,

Dovrug'i ham dardi sendek kim bor yana,

Xalq bo'lishga haddi sendek kim bor yana,

Moziyni yot etay desang – xalq bo'l, elim! [4, 10-bet].

Gaplardagi **choh, mard, momard, qars, kaft, kift, yod** so'zlari noto'g'ri yozilgan. Buni faqat o'ylash, fikrlash, leksikologiya bo'yicha o'tilganlarni eslash, xotirlash va zaruriy xulosalar chiqarish orqaligina topish mumkin. Bu esa o'quvchilarning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi, ulardagi mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

NATIJA

Kakografiyaning yana bir ko'rinishi matn ichida noto'g'ri berilgan so'zlarni to'g'rilashdan iborat.

Gaplarni o'qing, noto'g'ri yozilgan so'zlarni orfografiya qoidalariga mos ravishda ko'chirib yozing.

Bug'day noning bo'masin, Bug'day so'zing bo'sin. Ma'zali so'zga qulog' charchamas. Toom lazati o'zidan, Odam lazati – so'zidan. Qulog'dan kirgan soviq so'z ko'ngilga borib muz bo'lar. Puling bo'masa bo'masin, shirin so'zing bo'sin. Tili shirinning do'si ko'p. Qattiq gap qarindoshga ham yoqmas.

To'g'ri yozilishi: *Bug'doy noning bo'lmasin, Bug'doy so'zing bo'lsin. Mazali so'zga quloq charchamas. Taom lazzati o'zidan, Odam lazzati – so'zidan. Quloqdan kirgan sovuq so'z ko'ngilga borib muz bo'lar. Puling bo'lmasa bo'lmasin, shirin so'zing bo'lsin. Tili shirinning do'sti ko'p. Qattiq gap qarindoshga ham yoqmas.*

Bunday topshiriqlar o'quvchilardagi ko'rish, eslash, narsalarni bir-biriga solishtirish va zaruriy xulosalar chiqarish kabi aqliy-ruhiy xususiyatlarning rivojlanishiga turtki bo'ladi.

XULOSA

Umuman olganda, biz – yoshlar vatanimiz O'zbekistonning qanotlarimiz. Bugun bizning oldimizda ona tilini o'rganish borasida yagona to'g'ri yo'l turibdi. Bizdan millatimizning bebaho boyligi, xalqimiz tafakkurining tengsiz javohiroti sanalgan o'zbek tilini mukammal o'rganishimiz, og'zaki va yozma savodxonligimiz yuksak bo'lishi talab etilmoqda. Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun bizga kakografiya usuli kutilgan samarani berishi mumkin. Zero, davr o'qituvchidan ham, o'quvchidan ham izlanishni, yangiliklarni o'zlashtirishni talab etmoqda.

REFERENCES

1. Шайхисламов, Н. (2020). ТРУДНОСТИ СИНТАКСИЧЕСКОГО АНАЛИЗА: ЗАГАДКИ ИНФИНИТИВА. *Academic research in educational sciences*, (3).
2. Shayxislamov, N. (2020). So‘z urg‘usining o‘zbek va ingliz tillaridagi farqlash vazifasining qisqacha tavsifi. *O‘zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar*, 13-14.
3. Shayxislamov, N. (2020). Когнитив тилшуносликда концепт: “Тўй” концепти ва унинг универсал табиати. *O‘zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar*, 54-60.
4. Shayxislamov, N. HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA TIL VA MADANIYATNING TALQINI. *Scientific Progress*, 1(1), 59-70.
5. Shayxislamov, N. (2020). In the Field of Modern Linguistics-Linguoculturology. *Мировая наука*, (8), 33-36.
6. Шайхисламов, Н. (2020). Ўқувчиларнинг нутқий компетенцияларни ривожлантиришда нутқнинг илмий-назарий изоҳи. *Science and Education*, 1(5).
7. Shayxislamov, N. (2020). Problems of sociolinguistics: status of the language. *O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim*, 3, 279-281.
8. Shayxislamov, N. (2020). Cognitive Linguistics, the Symbolic and Interactive Functions of Language. *Образование и наука в XXI веке*, 1(6), 390-393.
9. Шайхисламов, Н. (2020). Зооним компонентли метафораларнинг антропоцентрик таъқиқ этишда гендер жиҳатлар. *Образование и наука в XXI веке*, 1(6), 304-309.
10. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. *O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim masalalari: muammo va yechimlar*, (3), 71-73.
11. Shayxislamov, N. (2020). Nutqning paralingvistik va ekstralingvistik vositalari. *Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар*, 36-37.
12. Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Shofqorov, A. M. (2020). RASMIY HUJJATLAR MATNINING LEKSIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING TARJIMADA BERILISHI. *Science and Education*, 1(Special Issue 3).
13. Shofqorov, A. M., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Alimova, E. B. (2020). O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI MAQOLLARDA “DO ‘STLIK” KONSEPTI IFODALANISHI. *Science and Education*, 1(Special Issue 3).
14. Шайхисламов, Н. (2020). Синтаксисни морфология билан интегратив ўргатиш. *Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари*, 383-385.
15. Shayxislamov, N. Z. O. G. L. (2020). TIL KORPUSI YARATISHNING UMUMIY TAMOYILLARI XUSUSIDA. *Science and Education*, 1(Special Issue 3).

16. Шукурова, М. А. (2020). СВЯЗЬ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КУЛЬТУРОЙ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО НАРОДОВ. *Science and Education*, 1(Special Issue 3), 204-211.
17. Жабборова, О. М., & Бозоров, Н. Н. (2020). У^ ИТИШНИНГ КЛАСТЕР УСУЛИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 1(4), 373-377.
18. Qurbonova, M. (2020). Methods for improvement of training competitions for classifications leading on the organization of independent works. *Экономика и социум*, (6), 240-244.
19. Курбонова, М. Ф. (2020). Ёшларда креатив тафаккурни шакллантиришнинг педагогик асослари. *Халқ таълими*, 3.
20. Абдураимовна, Ш. М. (2019). Вопросы изучения фразеологических единиц в современной русской прозе. *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития*, 105-108.

ФРАЗЕОЛОГИЯ. ФРАЗЕОЛОГИЯ КАК НЕОТЕМЛИМАЯ ЧАСТЬ ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Каипова Гульзар Орынбаевна

Школа 282, Яшнабадского района города Ташкента

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрывается роль фразеология в языкознание и её способность окрасить устную речь.

Ключевые слова: Фразеология, книжно-литературной речи, метафоричность, афористичность.

PHRASEOLOGY. PHRASEOLOGY AS AN INTEGRAL PART OF LANGUAGE

Kaipova Gulzar Orinbaevna

School 282, Yashnabad district of Tashkent city

ABSTRACT

This article reveals the role of phraseology in linguistics and its ability to color oral speech.

Keywords: Phraseology, book-literary speech, metaphor, aphorism.

ВВЕДЕНИЕ

Фразеология - это молодая наука, ей около десяти лет. Но за эти годы решены многие вопросы, изучен огромный материал, но далеко не все тайны открыты. Задачи, стоящие перед фразеологией, ещё очень велики. Её развитие связано с работами академика В.В. Виноградова, он впервые выделил виды фразеологических оборотов русского языка.

Иногда, чтобы добиться нужного речевого эффекта, трудно подобрать ясные и образные слова. Фразеологизмы помогают точнее и эмоциональнее передать иронию, насмешку, горечь, любовь - все человеческие чувства. Они дают возможность ярче выразить свою мысль и донести ее до собеседника.

МЕТОДОЛОГИЯ

Часто пользуясь фразеологизмами в повседневной речи, мы даже не замечаем этого, не задумываемся, как составить предложение с фразеологизмом - просто произносим его автоматически, ведь крылатые выражения знакомы и

привычны каждому человеку с детства. Многие из них пришли к нам из легенд и сказок, из других языков и эпох.

В русском языке фразеологизмы служат для выразительности речи, её образности, яркости и точности. Употребляя такие сочетания, мы придаем своему рассказу эмоциональность, афористичность и даже метафоричность.

Фразеологизмы можно разделить на группы с точки зрения происхождения и традиции использования:

- выражения из разговорно-бытовой речи: заговаривать зубы, потерять голову, чудеса в решете, на безрыбье и рак рыба, в сорочке родился;

- выражения из профессиональных сфер употребления, из арго: ставить в тупик, зеленая улица - из словоупотребления железнодорожников; топорная работа, без сучка, без задоринки - из речи столяров; втирать очки, карта бита - из арго картежников;

- выражения из книжно-литературной речи:

- а) термины и обороты из научного обихода: центр тяжести, цепная реакция, катиться по наклонной плоскости, довести до белого каления;

- б) выражения из произведений художественной литературы и публицистики: "А ларчик просто открывался" (И. Крылов); "с чувством, с толком, с расстановкой" (А. Грибоедов); "живой труп" (Л. Толстой); "Дело пахнет керосином" (М. Кольцов).

ОБСУЖДЕНИЕ

Фразеологизмы воспроизводятся в речи целиком, как единое слово, поэтому в смысловом отношении они приравниваются к одному слову:

- держать в курсе – осведомлять;
- скрепя сердце – неохотно;
- выматывать душу – изводить.

Русский язык очень богат фразеологизмами. К фразеологическим выражениям большинство учёных относят пословицы, поговорки, меткие и яркие выражения писателей, учёных, общественных деятелей, ставшие крылатыми. Одни из них употребляются в переносном значении, другие - в прямом значении. Фразеологизмы делают нашу речь более яркой и выразительной и поэтому широко используются в литературном языке. Большая часть фразеологизмов отражает глубоко народный, самобытный характер русского языка. Значительная часть фразеологических оборотов относится к разговорному стилю, имеет нередко ярко выраженную окрашенность. Многие фразеологизмы свойственны книжным стилям и могут характеризоваться оттенками торжественности, официальности, иногда иронии, шутки. Чтобы речь была яркой, образной, а

иногда и доступной, человек использует крылатые слова и выражения. Это говорит о знании языка, его истории, умении пользоваться речевыми возможностями, подчёркивает его самобытность, индивидуальность. Речь человека, в которой встречаются фразеологизмы, более яркая, эмоциональная, раскрывает характер собеседника, привлекает слушателей, делает общение более интересным, живым.

РЕЗУЛЬТАТ

Для фразеологизмов характерна эмоциональная выразительность. Они не только называют явления действительности, но и передают отношение говорящего к названному явлению. Эмоциональность и образность фразеологизмов не всегда замечаются говорящими, но сопоставление фразеологизмов со словами и словосочетаниями оживляет их эмоциональность и образность.

Допустим, я скажу, что девочка плакала. Это будет звучать обычно. А если представим, что она редела как белуга, то сразу увидим печальную картину.

Таким образом, мы убедились, что фразеологизмы делают наш язык более яркой и выразительной.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Чтобы речь была яркой, образной, а иногда и доступной, человек использует крылатые слова и выражения. Это говорит о знании языка, его истории, умении пользоваться речевыми возможностями, подчёркивает его самобытность, индивидуальность. Речь человека, в которой встречаются фразеологизмы, более яркая, эмоциональная, раскрывает характер собеседника, привлекает слушателей, делает общение более интересным, живым.

REFERENCES:

1. Шайхисламов, Н. (2020). ТРУДНОСТИ СИНТАКСИЧЕСКОГО АНАЛИЗА: ЗАГАДКИ ИНФИНИТИВА. *Academic research in educational sciences*, (3).
2. Shayxislamov, N. (2020). So‘z urg‘usining o‘zbek va ingliz tillaridagi farqlash vazifasining qisqacha tavsifi. *O‘zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar*, 13-14.
3. Shayxislamov, N. (2020). Когнитив тилшуносликда концепт: “Тўй” концепти ва унинг универсал табиати. *O‘zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar*, 54-60.
4. Shayxislamov, N. HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA TIL VA MADANIYATNING TALQINI. *Scientific Progress*, 1(1), 59-70.

5. Shaykhislamov, N. (2020). In the Field of Modern Linguistics-Linguoculturology. *Мировая наука*, (8), 33-36.
6. Шайхисламов, Н. (2020). Ўқувчиларнинг нутқий компетенцияларни ривожлантиришда нутқнинг илмий-назарий изоҳи. *Science and Education*, 1(5).
7. Shayxislamov, N. (2020). Problems of sociolinguistics: status of the language. *O 'zbekistonda ilm-fan va ta'lim*, 3, 279-281.
8. Shaykhislamov, N. (2020). Cognitive Linguistics, the Symbolic and Interactive Functions of Language. *Образование и наука в XXI веке*, 1(6), 390-393.
9. Шайхисламов, Н. (2020). Зооним компонентли метафораларнинг антропоцентрик таъқиқ этишда гендер жиҳатлар. *Образование и наука в XXI веке*, 1(6), 304-309.
10. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili fanini o 'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. *O 'zbekistonda ilm-fan va ta'lim masalalari: muammo va yechimlar*, (3), 71-73.
11. Shayxislamov, N. (2020). Nutqning paralingvistik va ekstralingvistik vositalari. *Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар*, 36-37.
12. Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Shofqorov, A. M. (2020). RASMIY HUIJATLAR MATNINING LEKSIK XUSISIIYATLARI VA ULARNING TARJIMADA BERILISHI. *Science and Education*, 1(Special Issue 3).
13. Shofqorov, A. M., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Alimova, E. B. (2020). O 'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI MAQOLLARDA "DO 'STLIK" KONSEPTI IFODALANISHI. *Science and Education*, 1(Special Issue 3).
14. Шайхисламов, Н. (2020). Синтаксисни морфология билан интегратив ўргатиш. *Нутқ маданияти ва ўзбек тилишунослигининг долзарб муаммолари*, 383-385.
15. Shayxislamov, N. Z. O. G. L. (2020). TIL KORPUSI YARATISHNING UMUMIY TAMOIYILLARI XUSUSIDA. *Science and Education*, 1(Special Issue 3).
16. Шукурова, М. А. (2020). СВЯЗЬ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КУЛЬТУРОЙ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО НАРОДОВ. *Science and Education*, 1(Special Issue 3), 204-211.
17. Жабборова, О. М., & Бозоров, Н. Н. (2020). У^ ИТИШНИНГ КЛАСТЕР УСУЛИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 1(4), 373-377.
18. Qurbonova, M. (2020). Methods for improvement of training competitions for classifications leading on the organization of independent works. *Экономика и социум*, (6), 240-244.
19. Курбонова, М. Ф. (2020). Ёшларда креатив тафаккурни шакллантиришнинг педагогик асослари. *Халқ таълими*, 3.

20. Абдураимовна, Ш. М. (2019). Вопросы изучения фразеологических единиц в современной русской прозе. *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития*, 105-108.

CONTENTS**Ҳайдаров Усмон Амиркулович***Тарих дарсларини самарадорлигини оширишда миниатюралардан фойдаланишнинг йўллари (pp.4-8)*<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/4-8.%203-001.pdf>**Ҳайдаров Сулаймон Амиркулович***Ўзбекистон тарихи фанини ўқитишда тасвирий санъат асарларидан фойдаланишнинг ўзига хослиги (pp.9-14)*<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/9-14.%203-002.pdf>**Ulug'bek Jalolov***Musiqa tarbiyasining o'quvchi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashdagi o'rni (pp.15-19)*<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/15-19.%203-003.pdf>**Bekova Mahkamtosh Kupaysinovna***Har bir millatning o'zligini anglatadigan oynasi bu uning ona tili va adabiyotidir (pp.20-25)*<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/20-25.%203-004.pdf>**Abdualimova Shalola***Kitob – mangulik ardog'idagi durdona (pp.26-29)*<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/26-29.%203-005.pdf>**Jurayeva N.V., Qarshiboyeva N.A.***NG harf birikmasini bo'g'inlarga ajratuvchi va izoh beruvchi kompyuter dasturi (pp. 30-34)*<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/30-34.%203-006.pdf>**Мирзахмедов Шерзод Махсудович***Темурбеклар мактаби ўқувчиларини ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш (pp. 35-39)*<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/35-39.%203-007.pdf>**Boyto'rayeva D***Aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy moslashtirishning pedagogik sharoitlari (pp. 40-45)*<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/40-45.%203-008.pdf>**Зотова Елена Алексеевна***Психическое выгорание как фактор снижения результативности соревновательной деятельности и прекращения спортивной карьеры (pp. 46-56)*<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/46-56.%203-009.pdf>**Махмудова Д.М., Ходжаева Н.К., Матякубов Б.М.***Юпқа қатламли полимер материалларнинг деформацион ва анизотропик хоссалари (pp. 57-72)*<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/57-72.%203-010.pdf>**R. Kh. Djurayev, Sh.Yu. Jabborov, I. I. Omonov***Methods for Assessing the Information Security of Telecommunications Networks (pp. 73-77)*<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/73-77.%203-011.pdf>

Turdiyev Temur Taxirovich, Karimova Iqbola Madaminovna, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li, O'rinov Nodirbek Toxirjonovich

Bo'lakli bir jinsli bo'lmagan g'ovak qatlamlarda suyuqliklar harakati jarayonini matematik modellashtirish muammolari va asosiy masalalari (pp. 78-84)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/78-84.%203-012.pdf>

Muhammadzoid Xabibullo o'g'li Abduqodirov, Abror Axmadjon o'g'li Fayzullayev

Musiqiy tovush va uning xususiyatlari (pp. 85-87)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/85-87.%203-013.pdf>

Расулова Насибахон Юсуфжоновна

Адаптивное обучение в системе высшего образования (pp. 88-97)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/88-97.%203-014.pdf>

Gulbahor Esirgapovna Musayeva

11-sinf o'zbek tili darslarida "Hayrat ul-abror" dostonining interfaol metodlar asosida o'rganish (pp. 98-101)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/98-101.%203-015.pdf>

Б. А. Ахмедов, Н. Шайхисламов, Т. Мадалимов, Қ. Махмудов

SMART технологияси ва ундан таълимда тизимида кластерли фойдаланиш имкониятлари (pp. 102-112)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/102-112.%203-016.pdf>

В. А. Akhmedov

Development of Network Shell for Organization of Processes of Safe Communication of Data in Pedagogical Institutions (pp. 113-117)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/113-117.%203-017.pdf>

Shoxida Raxmatullayevna Mahkamova, Sarvinoz Polatovna Obidova

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni musiqiy tarbiyalash va ta'lim berish (pp. 118-121)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/118-121.%203-018.pdf>

Дилрабо Икромжоновна Абдукодирова

Математика фанини ўқитишда халқаро баҳолаш дастурларининг аҳамияти (pp. 122-125)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/122-125.%203-019.pdf>

Shavkatova Shahnoza Po'lot qizi

Ekstremal vaziyatlarda aholiga psixologik xizmat ko'rsatishning ijtimoiy – psixologik xususiyatlari (pp. 126-131)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/126-131.%203-020.pdf>

Choriyeva Mehninoz Qiyomiddinovna

Abdurahmon Tamkinning adabiy merosi va ilmiy asarlari (pp. 132-135)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/132-135.%203-021.pdf>

Nabijonov Otabek Ganiyevich

Iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirishning nazariy asoslari (pp. 136-139)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/136-139.%203-022.pdf>

Shuhrat Jamilov, Asror Shoimqulov

“O‘ZTEMIRYO‘LMASHTA‘MIR” korxonasi sharoitida elektr mashinalarining izolyatsiyani dielektrik xususiyatlarini tiklash (pp. 140-144)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/140-144.%203-023.pdf>

Umurova Ma‘rifat Yoshiyevna, Raximov Abdurasul Ravshan o‘g‘li

Musiqqa madaniyati darslarida “Vena klassik maktabi” namoyondalari hayoti va ijodiyiy faoliyati bilan tanishtirish uslublari (pp. 145-152)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/145-152.%203-024.pdf>

Рахматов Хуршид

Ўзбекистон ва Араб давлатларининг ўзаро муносабатлари динамикаси (pp. 153-159)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/153-159.%203-025.pdf>

Bahodirxonov Usmonxon

Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy asarlari Movarannahrning XV asr tarixiga oid manbaa sifatida (pp. 160-164)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/160-164.%203-026.pdf>

Saydasova Charosxon

Maktabgacha ta'lim qanday talablarga javob berishi kerak? (pp. 165-167)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/165-167.%203-027.pdf>

Балтаев Жасурбек, Балтаева Хилола

Ўсмирларнинг катталар билан бўладиган мулоқоти ва унинг ўрни (pp. 168-173)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/168-173.%203-028.pdf>

Nizomov Biloliddin Xusanboy o‘g‘li, Mamajonov Ulug‘bek Muxtarovich

Elektolitik dissotsiyalanish nazariyasi mavzusi bo‘yicha yangi turdagi masalalar va ularning yechimi (pp. 174-177)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/174-177.%203-029.pdf>

Рахмонова Шахноз Каххоровна, Раджабова Дилмира Отамурадовна, Рахмонов Жамшид Ганибаевич

Преклимактерик ёшдаги аёлларда қиннинг рақ олди жараёнларининг гистологик таҳлили (pp. 178-182)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/178-182.%203-030.pdf>

Ахмедова Хусния Хусановна

Тенденции развития и проблемы современной криптографии (pp. 183-188)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/183-188.%203-031.pdf>

Сафаров Одилжон Мамадиевич

Таржима муаммоларининг умумлаштирилган тавсифи (pp. 189-195)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/189-195.%203-032.pdf>

Baltayev Mansur

O‘zbekiston ilk davlatlarning paydo bo‘lishi (pp. 196-201)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/196-201.%203-033.pdf>

Bayjonova Nazokat

Matematika fanining rivojlanishi va sonlarning paydo bo‘lishi (pp. 202-207)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/202-207.%203-034.pdf>

Jalilov Mirsaid Bektosh o'g'li, Qalandarov Ravshan Bektosh o'g'li, Mahammatova Sharofat Qudrat qizi

O'zbekistonda milliy qadriyatlar va millatlararo totuvlik (pp. 208-212)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/208-212.%203-035.pdf>

Lola Uzakova

O'zbek va ingliz nutqiy etiketlarining qiyosiy tadqiqi (pp. 213-216)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/213-216.%203-036.pdf>

Nursulton Shayxislamov

Ona tili darslarini o'qitishda zamonaviy metod – kakografiya usulidan foydalanish (pp. 217-222)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/217-222.%203-037.pdf>

Каипова Гульзар Орынбаевна

Фразеология. Фразеология как неотъемлимая часть языкознание (pp. 223-227)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/223-227.%203-038.pdf>
